ISSN: 2181-4163

INTERNATIONAL SCINETIFIC JOURNAL

The international scientific journal "Interpretation and researches" publishes the results of scientific research conducted by school teachers, university students, professors and teachers, and independent researchers in the form of scientific articles. This journal is indexed in authoritative databases and published in electronic form.

The international scientific journal has certificate No. 054841 of the Agency for the Development of Information and Mass Communications under the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan. The journal accepts articles in the following areas: 1. Exact sciences 2. Natural sciences 3. Engineering sciences 4. Pedagogical sciences 5. Social and human sciences 6. Medical sciences. Note for authors of articles: articles are accepted in Uzbek, Russian, English, Karakalpak.



INTERPRETATION AND RESEARCHES

GOOGLE SCHOLAR ZENODO CYBERLENINKA OPEN AIRE

www.interpretationandresearches.uz

№2
30.01.2023

International scientific journal

“INTERPRETATION AND RESEARCHES”

volume 1 issue 2
30. 01. 2023

International scientific journal
“Interpretation and researches”

Bosh muharrir:
R.I.Abdullayev

Bosh muharrir o‘rinbosari:
N.I.Xolmatova

Texnik muharrir:
X.D.Halimboyev

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligi tomonidan 2022- yil 22-dekabr sanasida №054841 raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan

ISSN 2181 - 4163

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

Aloqa uchun:
Telefon: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru

www.interpretationandresearches.uz

Tahrir hay’ati a’zolari
(O‘zbekiston)

Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Umarova Maxliyo Yunusovna
Filologiya fanlari doktori
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Gaylieva Ogulbay Kurbanmuradovna
Filologiya fanlari doktori (DSc)
Qoraqalpoq davlat universiteti

Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna
Falsafa fanlari doktori, professor
O`zbekiston Milliy universiteti

Navruzova Gulchixra Nigmatovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Buxoro muxandislik-texnologiya instituti

Djumaniyazova Feruza Djumanazarovna
Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori
O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti

Akbarov Qobuljon
Tarix fanlari nomzodi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Bazarov Otabek Odilovich
Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori
Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Zokirov Sanjar Ikromjon o‘g‘li
Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori. Farg’ona politexnika instituti

Akramov Shukurjon To‘xtasinovich
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Xasanov Akbarjon Abdurashidovich
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Ibragimova Mavluda Ro‘zmetovna
Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori
O‘zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti katta ilmiy xodimi

Tahrir hay’ati a’zolari
(Xorijiy davlatlar)

Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Xo‘jand davlat universiteti
Tojikiston

Muxtorov Kiromuddin Tochievich
Huquqshunoslik fanlari nomzodi, dotsent
Xo‘jand davlat universiteti
Tojikiston

Hamdamov Sherali Jumabekovich
Matematika-fizika fanlari nomzod
Xo‘jand davlat universiteti
Tojikiston

G‘ufronov Dodaxon Najmidinovich
Geografiya fanlari nomzodi
Xo‘jand davlat universiteti
Tojikiston

Bahriev Fayzullojon Faxriddinovich
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Xo‘jand davlat universiteti
Tojikiston

Fuat Serkan Say
Phd, Mersin Universiteti
Turkiya

Tuba Tombuloglu
Phd, Mersin Universiteti
Turkiya

Hayrettin İhsan Erkoç
Chanakkale Onsekiz Mart Universiteti
Turkiya

ОАВДА УЧРАЙДИГАН ПЛЕОНАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЛИНГВОПРАГМАТИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Бозорова Гулмира Зайниддиновна
Бухоро Давлат университети ўқитувчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7538742

Аннотация: Ушбу мақолада ортиқчалик тамойили асосида шаклланувчи плеонастик бирликларнинг ОАВда учрайдиган шакллари таҳлилга тортилган. Плеонастик бирикмалар лингвопрагматик жиҳатдан тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: ОАВ, ортиқчалик тамойили, плеоназм, плеонастик бирикмалар, лингвопрагматика.

Ҳозирги кунда жамиятни оммавий ахборот воситаларисиз тасаввур этиб бўлмайди. Бу эса ОАВ омма онгига таъсир этишнинг фаол воситасига айланишга улгурганини кўрсатиб турибди. ОАВ тўртинчи ҳокимиятга тенглаштирилади. Жамиятни ислоҳ қилиш, тараққиёт сари етаклаш, ривожланган мамлакатлар қаторига олиб чиқишда унинг роли беқиёс эканлиги ҳозирги кунда очиқ кўриниб турибди. Омма содир бўлаётган воқеа ва ҳодисаларни аниқ маълумотлар орқали қабул қилишни истайди ва ана шунда ОАВ тилининг омма онгига таъсир қилиш кучи ортади.

Бу борада Президент Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган маросимда қилган маърузасида: “Қонунларнинг мазмун-моҳиятини халқимизга етказишда Ўзбекистон Миллий Телерадиокомпанияси, Ўзбекистон Миллий Ахборот Агентлиги ва бошқа оммавий ахборот воситаларида битта-иккита мақола ёки кўрсатув билан чекланиш мумкин эмас. Қабул қилинган қонунларни атрофлича муҳокама қилиш, юртдошларимизнинг уларга муносабатини ифода этадиган таҳлилий материаллар, кўрсатув ва эшиттиришлар, афсуски, жуда кам. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш фаолиятида очиқлик ва ошкораликни таъминлаш учун биз фуқаролик жамияти институтлари, оммавий ахборот воситалари ва аҳоли билан самарали ҳамкорликни кенг йўлга қўямиз. Янги қабул қилинган қонунлар, фармон ва қарорларнинг асосий маъносини аҳолига етказиш бўйича самарали механизм яратиш керак”[1] - деб таъкидлаб ўтади.

“Ахборот тарқатиш муайян даражада жамият онгига таъсир этиб, оламнинг умумий тасвирини тузиш орқали дунё ҳақида манзара ҳосил қилади. Бу вазифани амалга оширишда ОАВнинг қуйидаги хусусиятлари муҳим аҳамият касб этади: оммавий аудиторияга қаратилганлиги; ҳамма учун мўлжалланганлиги, тезкорлиги” [2]. Инсон онги, фикрлаш доираси ва унинг

хулқига таъсир этишда оммавий алоқа воситалари муҳим ўринларда туради. Дунё ҳақида ахборот бериб, инсонларга зарур бўлган ахборий эҳтиёжни қондириш орқали ОАВ уларнинг фикрлаши, дунёни тасаввур этиш усуллари ва маданиятини шаклланишига жуда катта таъсир ўтказади. Маданият шаклланиши билан бир қаторда жамият ҳам тараққий этиб боради. Жамиятнинг ривожланган кўриниши бу каби муҳим жараёнларни ўзида мужассамлаштирган бўлиши керак. ОАВ тили замонавий жамиятнинг барча жабҳалари, айниқса, ижтимоий-иқтисодий ва маданият соҳаларига ўз таъсирини ўтказмоқда. ОАВ тили инсонларга дунёнинг ҳозирги ҳолати ҳақида хабар бериш билан уларнинг фикрлаш қобилиятини ўстиради, дунёқарашини кенгайтиради ва маданий жиҳатдан шакллантиради. ОАВ тили дунёқарашни ўзгартириш ва онгни манипуляция қилиш каби турли хил таъсир этиш кўринишларга эга. Замонавий жамиятда оммавий онг манипуляция қилишнинг объектига айланди ва унда аниқ бир техник восита мавжуд бўлиб, бир вақтнинг ўзида кенг оммага таъсир этишга ёрдам беради. Шубҳасиз, бу ерда гап замонавий ОАВ тили ҳақида кетмоқда.

Ахборотни идрок этиш ва уни тушуниш услублари, шунингдек, инсон онгига таъсири оммавий алоқа воситаларига боғлиқ саналади. Оммавий ахборот шиддат билан ривожланиб бораётган замонавий ахборот жамиятининг глобал тарзда ривожланиши нафақат инсон ҳаёт тарзининг ўзгаришига, балки, энг аввало замонавий инсон онгининг тузилиши ва унинг фикрлашининг ўзгаришига олиб келаётганлигини таъкидлаб ўтамиз. ОАВ тили шу даражада катта таъсир кучига эгаки, керак бўлса, жамиятнинг ҳар қандай соҳасига таъсир кўрсата олиши бугунги кунда ўз ифодасини топмоқда. Ҳозирги кунда ОАВ умумий маълумотларни етказишда воситачилик вазифасини бажариб келмоқда[3].

Бугунги глобаллашув ва электрон технологиялар ривожланган даврда оммавий ахборот воситаларини ижтимоий тармоқларсиз тасаввур этиш қийин. Радио, телевидение, газета ва журналлар орқали етказиладиган ахборот оқими эндиликда интернет тармоқлари ёрдамида, хусусан, ижтимоий тармоқлар орқали жамоатчиликка етказилмоқда. Замон талаби билан ОАВнинг тармоғи электрон сайтлар билан яна-да бойиди.

ОАВда эълон қилинган мақолалар матнида, журналист ва мухбирлар томонидан интервью, репортажлар жараёнидаги нутқда сўз қўллашдаги семантик такрорлар кўзга ташланади. Жумладан, УзА мухбири, Нигора Рахмонова томонидан “Бухорода «Тадбиркор аёл» ўқув семинари бўлиб ўтмоқда” сарлавҳаси остида чоп этилган мақолада қуйида жумлалар мвжуд: *“Ўқув семинарда Қорақалпоғистон Республикаси, Хоразм, Навоий, Бухоро*

*вилоятларидан 24 нафар **етакчи лидер** тадбиркор аёллар, туман раҳбарлари қатнашмоқда”* [4].

Юқорида келтирилган мақола парчасида ***етакчи лидер*** бирикмаси қўлланган бўлиб, мазмуний қаватланиш мавжуд плеонастик бирлик саналади. Чунки *лидер* сўзининг луғавий маъноси етакчи деган мазмунни ифодалайди:

Лидер (*инг. leader* – етакчи, бошлиқ, раҳбар) – 1.Бирор сиёсий партия ёки ташкилотнинг раҳбари, йўлбошчиси. 2.Спорт мусобақаларида олдинда борувчи шахс ёки жамоа; етакчи, пешқадам. *Турнир лидери. Мотоцикл пойгаси лидери*[5].

Мазмунан битта тушунчани ифодалаган икки сўзни ёнма-ён қўллаш, табиийки, ортиқча. Етакчи лидер мисолида бундай такрорийлик ўзлашма сўз ҳисобига вужудга келган. Чет тилидан кирган сўзнинг моҳиятига эътибор қаратмаслик, чет тилидан кирган сўзлардан ўрни билан фойланмаслик оқибатида нутқимизда шунга ўхшаш плеонастик бирликлар шаклланган. Бундай бирликларни ОАВ жуда кўп учратиш мумкин. Хусусан, электрон сайтларда чоп этилаётган хабарлар ва маълумотлар бу каби камчиликлардан холи эмас.

Масалан, 7 май 2021 йилда Мактабгача таълим вазирлигининг “Facebook” тармоғидаги расмий сайтига *“ЮНИСЕФ лойиҳаси доирасида ташкил этилган альтернатив муқобил гуруҳлар тўғрисида”* сарлавҳаси билан видео репортаж жойланган. Мазкур сарлавҳада таркибидаги ***муқобил альтернатив*** бирлиги ҳам семантик қаватланишга мисол бўлади. Чунки *альтернатив – муқобил* демакдир.

Альтернатив – мумкин бўлган икки ёки бир неча имкониятдан бирини танлашга асосланган; муқобил. *Альтернатив хизмат*[6].

Ушбу изоҳнинг ўзидан бирикма шаклида айнан бир маъноли икки сўздан фойдаланилгани яққол кўриниб турибди.

Қашқадарё вилояти “Ёшлар Иттифоқи” томонидан ташкил этилган “Қашқадарё ёшлари” телеграм каналида берилган қуйидаги матн эътиборимизни тортди:

“*Очиқ осмон остида, жонли мусиқадан баҳраманд бўлишни истайсизми? Шаҳрисабз шаҳридаги "Оқ сарой" майдонида 27-июн куни соат 19:00 да Ўзбекистондаги ягона бўлган, 100 кишилик мусиқачидан иборат “Саҳро симфонияси” **мусиқали оркестр** концертида кутиб қоламиз!* [7]”

Мазкур таклифнома шаклидаги эълонда ***мусиқали оркестр*** бирикмаси мавжуд бўлиб, бу ҳам биз тадқиқ этаётган семантик қаватланиш намунасидир.

Оркестр (*фр. orchestre* – театрдаги ўтириш жойи; *юн. orchestra* – рақс майдончаси; юнон театрида саҳнанинг олд майдончаси) 1.Мусиқа асарини биргаликда ижро этадиган турли хил чолғу асбоблари йиғиндиси ва шу

асбобларни чалувчи мусиқачилар жамоаси. *Торли оркестр. Симфоник оркестр. Оркестр садоси*[8].

ЎТИЛда берилган изоҳда *оркестр* сўзи бевосита *мусиқа* билан алоқадор, мусиқий асарларни ижро этиш учун мўлжалланган чолғу асбоблари ҳамда уларни чалувчи мусиқачиларни англатгани ҳолда унга яна *мусиқали* сифатловчиси қўшиш ноўрин. Бу мисолда ҳам семантик такрор, ҳам нутқий ғализлик кўзга ташланади. Чунки оркестр сўзининг семасида мусиқий асар ёки мусиқачилар жамоаси маънолари яширинган.

Лингвопрагматик жиҳатдан таҳлил қиладиган бўлсак, ижтимоий тармоқни юритадиган блогерда муайян мусиқий билимнинг етишмаслиги натижасида атамани қўллаш билан боғлиқ ҳатолик юз берган. Оркестр сўзи мусиқа илмида, аксарият ҳолларда, *симфоник, торли, дамли*, шунингдек, *миллий чолғу асбоблари* каби сўзлар билан биргаликда бирикма шаклида учрайди. Бу мисолларда оркестр таркибини ташкил этувчи чолғу асбобларининг турига қараб сўз бирикмасининг тобе қисми танланади. Бизнинг наздимизда, блогер томонидан мана шу каби бирикмалар номини эслаш баробарида, уларга эътиборсизлик натижасида сўз қўллашда хатоликка қўйилган.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 24 йиллигига бағишланган маросимдаги маърузаси. – Тошкент. 2016.

2. Володина М.Н. Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования. Ч 2. –М., 2004.

3. Ўлмасов Ш. ОАВ тили омма онгига таъсир этишнинг асосий воситаси сифатида. Хорижий филология №2, 2018 йил. 96-97 б. https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/download/767/669/642

4. https://uza.uz/uz/posts/buxoroda-tadbirkor-ayol-oquv-seminari-bolib-otmoqda_373726

5. https://uz.wiktionary.org/wiki/lider

6. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20A.pdf 75-б.

7. https://t.me/s/Ittifoq_Qashqadaryo?q=musiqali+orkestr

8. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20O.pdf 138-б.

ASTRONOMIYA FANINI O‘RGANISHDA ASTRONOMIK MIFLARNING O‘RNI

S.G‘. Haitova, H.F. Nasimov, A.M. Bozorova
Navoiy davlat pedagogika instituti talabalari
Ilmiy rahbar Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7586369

Annotatsiya: Ushbu maqolada Astronomiya fanini o‘rganish usullarini takomillashtirishda ilmiy merosdan foydalangan holda xalq rivoyatlari va miflardan foydalanishning pedagogik asoslari bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье изложены педагогические основы использования народных сказаний и мифов с использованием научного наследия в совершенствовании методов изучения астрономической науки.

Annotation: This article outlines the pedagogical foundations for the use of folk tales and myths with the use of scientific heritage in improving the methods of studying astronomical science.

Kalit so‘zlari: Astronomiya fani, milliy meros, integrasiya, xalq rivoyatlari, kalendarlar, burjlar.

Ключевые слова: астрономическая наука, национальное наследие, интеграция, народные сказания, календари, созвездия

Keywords: astronomical science, national heritage, integration, folk tales, calendars, constellations.

Ma’lumki, ta’lim maqsadlaridan biri milliy qadriyatlarning ilmiy merosidan foydalangan holda ta’lim-tarbiya integrasiyasini shakllantirish masalasidir. Bunda asosiy e’tiborni inson go‘dakligidan allalar tinglab, ertaklar, afsona va rivoyatlar eshitishga moyilligi mavjudligidan foydalanib, zamonaviy bilimlarning sifatini oshirishga va takomillashtirishga qaratmoqchimiz.

Astronomik ta’limni rivojlantirishda uni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish bilan birga tarixiy an’analarni saqlagan holda milliy qadriyatlarni qamrab olgan xalq rivoyatlaridan foydalanish o‘quvchilarda ilmiy, axloqiy, mehr-sadoqat, ota-onaga hurmat g‘oyalari singdiriladi.

O‘quv jarayonida boy ilmiy-milliy merosdan o‘quvchi yoshlarni xabardor qilish ta’lim va tarbiya uyg‘unligiga erishishda muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, xalq rivoyatlaridan foydalanish orqali mavzularni mustahkamlash, o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish mumkin.

Astronomiya fanining dasturida keltirilgan “Yulduzlar osmoni va uning aylanishi. Osmon sferasi, uning asosiy nuqta, chiziq va aylanalari. Quyoshning yillik ko‘rinma harakati. Turli geografik kengliklarda osmon sferasining sutkalik ko‘rinma aylanishi. Quyoshning sutkalik harakatining yil davomida o‘zgarishi. Kalendarlar. Quyosh kalendarlari. Oy kalendarlari. Xijriy kalendarlar. Quyosh-Oy kalendari va muchal haqida tushuncha” kabi mavzularni va Yulduz turkumlarini o‘rganishda xalqimizning asrlar davomida ishlatilib kelgan va keng tarqalgan rivoyatlarining ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir.

Fasllar, yillar, oy va kun nomlari, tabiat hodisalari bilan bog‘liq tasavvurlar va xalq taqvimi bilan aloqador mifologik qarashlar “Kalendar miflar” deyiladi. Kalendar miflarda ajdodlarimizning fasllar almashinuvi, ob-havodagi o‘zgarishlar, chorvachilik va dehqonchilik ishlarini bajarish muddatlari to‘g‘risidagi iqtisodiy tushunchalari o‘z ifodasini topgan. Taqvim bilan bog‘liq afsona, rivoyat va naqllar esa xalqimizning vaqt hisobi bilan aloqador turli xil tasavvurlari haqidagi ma’lumot berish tinglovchiga taqvim to‘g‘risida biror xabar yetkazish vazifasini bajaradi.





Xalqimizning vaqt hisobini yuritish bilan bog‘liq taqvimiy qarashlari tizimida vaqtning ma’lum bir muddatlari haqidagi mifologik afsonalar ham mavjud.

Taqvim bilan bog‘liq o‘zbek xalq rivoyatlarida ham voqiylik ma’lum bir tarixiy shaxs yoki hodisa bilan bog‘liq hodisa hikoya qilinadi. Ana shunday rivoyatlardan birida muchal hisobining kelib chiqishi haqida ma’lumot berilgan.

“Turk hoqonlaridan biri o‘zidan bir necha yil oldin bo‘lib o‘tgan urushni o‘rganmoqchi bo‘lgan, shunda urush bo‘lib o‘tgan yilni aniqlashda anglashilgan. Bu masala yuzasidan Hoqon qavmi bilan kengashdi va aytdi “ …biz bu tarixni (aniqlashda) qanchalik yanglishgan bo‘lsak bundan keyin ham shunday yanglishadilar, shunday bo‘lgach, biz endi 12 oy va osmondagi 12 burjga asoslanib 12 yilga ot nom qo‘yishimiz kerak va shundan keyin yil hisobi shu yillarning aylanishiga qarab olinsin”.

Yana bir rivoyatda esa bir podsho ovga chiqadi va odamlariga hayvonlarni Nil daryosi tomon haydashni buyurdi. Bu katta suv edi, 12 ta hayvon suvdan o‘tdi. Shundan keyin 12 yilni 12 hayvon nomi bilan ataydigan bo‘lishibdi. Eng oldin suvdan o‘tgan hayvon sichqon bo‘ldi. Shuning uchun yil boshi uning nomi bilan ataladi, shu so‘zga yil qo‘shib sichqon yili deb atadilar. Undan keyin o‘tganlari quyidagi tartibda bo‘ldi va ularning har bir yil uchun nom bo‘lib qoldi. 1) Sichqon, 2) Sigir, 3) Bars, 4) Quyon, 5) Timsoh 6) Ilon, 7) Ot, 8) Qo‘y, 9) Maymun, 10) Tovuq, 11) It, 12) To‘ng‘iz.

G‘arb xalqlariga oid yulduz burjlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

№	Burji	Belgisi	Tasviri	№	Burji	Belgisi	Tasviri
1.	QO‘Y			7.	CHAYON		
2.	BUZOQ			8.	O‘Q OTAR		
3.	EGIZAKLAR			9.	TOG‘ ECHKISI		
4.	QISQICHBAQA			10	QOVG‘A		
5.	ARSLON			11	BALIQ		
6.	PARIZOD			12	TAROZI		

Vaqt hisobi bilan bog‘liq bunday taqvimiy afsonalar xalq nasrining qadimiy qatlamiga mansub bo‘lib, kalendar miflarning rivoji natijasida kelib chiqqan va ular an’anaviy xalq taqvimiga doir tushunchalar mohiyatini oydinlashtirib, o‘quv jarayoninida ilmiy va ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalashga, ta’limni yuksaltirish, milliy mafkurani yaratish va uni ro‘yobga

chiqarishda faol ishtirok eta oladigan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga yordam beradi.

Astronomiya fanini o‘rganishda va tahlil etishda milliy merosning boy namunalaridan foydalanish asosida mustaqil bilimlar olish, kuzatish va astronomik hodisalarni fizika qonunlari asosida tushuntirish astronomiya faniga muhabbat va hurmat o‘yg‘otish, o‘quvchilarning bilim va ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. B.Axmedov. «Tarixdan saboqlar». T., "O‘qituvchi", 1994.

1. Vapoyevna, N. U. (2022). METHODS OF DEVELOPMENT OF SPEECH COMPETENCES OF STUDENTS OF THE 8TH GRADE THROUGH TEXT TYPES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 1242-1425.

2. Vapoyevna, N. U. (2022, May). THE USE OF MODERN METHODS IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH COMPETENCES IN THE 8TH GRADE SYUENTS. In Conference Zone (pp. 278-279).

3. Akhmadalievich, T. K. (2021). Ivan Bunin's Orientalism. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(4), 1-10.

4. Топволдиев, К. А. (2021). ВОСТОЧНАЯ СТИЛИЗАЦИЯ. Составители, 66.

5. Двинятина, Т. М. (2021). СТИХОТВОРЕНИЯ ИА БУНИНА ИЗ КНИГИ «ХРАМ СОЛНЦА»(1917): КОНТЕКСТ И КОНСПЕКТ БЛИЖНЕВОСТОЧНОЙ ЛИРИКИ. In ИА БУНИН И ЕГО ВРЕМЯ: КОНТЕКСТЫ СУДЬБЫ-ИСТОРИЯ ТВОРЧЕСТВА (pp. 890-899).

6. XUSANOVA, M. R. A. (2021). THE USE OF EXPRESSIVE PHONETIC MEANS IN FARIDA AFROZS WORKS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 642-645.

7. Xusanova, M. R. A. (2016). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКИХ НЕОЛОГИЗМОВ-ПРИЗНАК СТИЛИСТИЧЕСКОГО СВОЕОБРАЗИЯ. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-1), 125-130.

8. Xusanova, M. R. A. (2021). THE USE OF ARCHAISM IN THE WORKS OF FARIDA AFROZ. Theoretical & Applied Science, (4), 252-254.

9. Hojaliyev, I., & Shodiyeva, A. EXTRALINGUISTIC SIGNS OF THE OFFICIAL STYLE.

10. Shodiyeva, A. (2022, November). RASMIY USLUBNING EKSTRALINGVISTIK BELGILARI. In E Conference Zone (pp. 65-68).

11. Jurayeva, E. E. (2023). ARCHITECTURE OF TASHKENT REGISTON SQUARE. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(1), 190-203.

12. Elmuradovna, J. E.. (2021). The Architecture of Karshi Castle, The Establishment, The Past and the Present. Middle European Scientific Bulletin, 18, 247-252. https://doi.org/10.47494/mesb.2021.18.878

13. Avramenko, I. A. Candidate of Philology, Associate Professor at the Department of Foreign Languag-es. Research interests: history of English literature, narratology, theory of novel. E-mail: iavramenko@ hse. ru. Новый филологический вестник, 105.

14. Uralov, A., & Jurayeva, E. (2018). ARCHITECTURE OF NAKIBBEK PUBLIC BATH OF 17th and 18th CENTURIES IN KATTAKURGAN CITY. ARCHITECTURE, 4, 21-2018.

15. Жураева, Э. Э. (2018). ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И СТРОИТЕЛЬСТВО НАРОДНОЙ БАНИ-" ХАММАМ" XVII В. Актуальные научные исследования в современном мире, (4-12), 80-83.

16. Elmuradovna, J. E. (2021). Bukhara Registan: Past And Present. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 25(1), 160-166.

17. Jurayeva Elvira Elmuradovna.Processes of Architectural Formation of Registan Square in Samarkand.

18. M.Mamadazimov. Astronomiya tarixi. T., “Meros”. 2000

ROVIYA ATADJANOVA XORAZM RAQSI MALIKASI

Saparbayev Atabek Sharipbayevich
O‘zDXA Urganch filiali katta o‘qituvchisi
Shahanov Bobur Choriyevich
O‘zDXA Urganch filiali “Lazgi” bo‘limi boshlig‘i
https://doi.org/10.5281/zenodo.7585886

Annotatsiya: maqolada Xorazm raqsi malikasi deb nom olgan iste’dodli raqqosa Roviya Atadjanovaning hayot yo‘li, oilasi va raqs san’atiga qo‘shgan hissasi haqida so‘z yuritiladi.
Kalit so‘zlar: raqs, ansambl, harakatlar, teatr, sahna, iste’dod.

РОВИЯ АТАДЖАНОВА КОРОЛЕВА ХОРЕЗМСКОГО ТАНЦА

Сапарбаев Атабек Шарипбаевич
Старший преподаватель Ургенчского филиала УзДХА
Шаханов Бобур Чориевич
Начальник отдела "Лазги" Ургенчского филиала УзДХА

Аннотация: В статье рассказывается о жизненном пути, семье и вкладе в искусство танца талантливой танцовщицы Ровии Атаджановой, которую называют королевой Хорезмского танца.
Ключевые слова: танец, ансамбль, движения, театр, сцена, талант.

ROVIYA ATAJANOVA IS THE QUEEN OF KHOREZM DANCE

Saparbayev Atabek Sharipbaevich
Senior lecturer of the Urgench branch of UzDXA
Shakhanov Bobur Chorievich
Head of the "Lazgi" department of the Urgench branch of UzDXA

Abstract: The article tells about the life path, family and contribution to the art of dance of the talented dancer Roviya Atajanova, who is called the queen of Khorezm dance.
Keywords: dance, ensemble, movements, theater, stage, talent.

Xorazm raqslarini yangi xoreografik yo‘nalishdagi talqinini yaratishda samarali mehnat qilgan buyuk istedod sohibasi, xorazm raqs maktabining asoschisi deb e’tirof etiladigan ustoz san’atkorlaridan biri Roviya Atadjanovadir.

Xorazm raqsi malikasi Roviya Atadjanova 1924-yil 12-yanvarda Xorazm viloyati Urganch shahrida usta-hunarmand Allabergan Atadjanov oilasida tavallud topgan. Roviya Atadjanovaning san’atga ko‘ngil qo‘yishida tug‘ilib o‘sgan oilasidagi muhit va otasining xalq qo‘shiqlarini sevib hirgoya qilishi sabab bo‘lgan.

Roviya Atadjanova yoshlik yillarini yodiga olib quydagicha xotiralagan edi: “Otam qo‘shiq aytib etik tikar, men esa otamga qo‘shilib kuylar edim”. Uning kuy va qo‘shiqlariga mahallasidagi tengdoshlari va sinfdosh dugonalari jo‘r bo‘lib kuylashar va raqsga tushishar edi. Shu tariqa qo‘shiq va raqs uning hayoti mazmuniga aylanib borgan.

Raviya Atadjanova 6-sinfda o‘qib yurgan kezlarida O‘zbekiston xalq artisti va baletmeysteri Gavhar Rahimova garmonchilar ansamblini tuzish maqsadida Xorazmga keladi va 15 kishini tanlab oldi. Shu vaqtda Anash Cho‘loq nomi bilan xalq orasida tanilgan Xorazmlik mashhur xalq artisti Anajon Sobirova, Rahima Karimova, Sora Allabergenova va bir guruh san`atkorlar qatorida Raviya Atadjanovani ham o‘zi bilan Toshkentga olib keladi. Ammo u to‘satdan kasal bo‘lib qoladi: ovozi chiqmasdan gapiraolmay qoladi, gaplashishni xohlamaydi. U bilan birga kelgan dugonalari Rahima Karimova, Sora Allabergenova, ularning ustozi Anajon Sobirova uzoqqa bir nuqtaga qarab qolgan Raviyani gapirtirishga harakat qilishadi ammo uddalay olmaydi. Shifokorlar uni davolash uchun astoydil harakat qilishadi, lekin natijasi bo‘lmaydi. Shu tufayli ham uni o‘z uyiga, Xorazmga jo‘natib yuborishga to‘g‘ri keldi. Tug‘ilib o‘sgan go‘shasida tezgina oyoqqa turib tuzalib ketadi. Nafaqat gapirib, balki qo‘shiq kuylab, raqsga tushadi va hatto 1940-yilda ishlash uchun Urganch teatriga (Hozirgi Ogahiy teatriga) ishga kiradi. “Ana shundan kiyin yurganimda ham, turganimda ham meni o‘yin qurshab oldi. Ishq-u muhabbatim o‘yin, ko‘zimga o‘yindan boshqa hech narsa ko‘rinmasdi. Bir kun bir harakatni topsam, ertasiga boshqa harakatni topardim, xullas R.Karimovaning “Raviya Atajanovaning Raqslari” nomli kitobiga jamlangan 30 tami, 40 ta raqs harakatlarini o‘zim topdim deb katta gapirmoqchi emasman, ammo hozirgi kunda raqsga tushib yurgan raqqosalar raqslarining yarmidan ko‘pidagi harakatlarni o‘zim topganman”[1] deb aytgan edi raqqosa.

Raqqosa teatrdagi faoliyat davomida o‘ziga yuklatilgan barcha konsertlarda vazifalarni sidqidildan bajargan, jumladan ko‘rsatishgan yoki o‘zi musiqa va qo‘shiqqa mos keladigan harakatlar jamlanmasini improvizasiya qilib, barcha raqslarni ijro etgan. Yilning har faslida bo‘ladigan xalq sayllarida ijro etilgan xalq

[1]Arxiv ma’lumotlar: R.Atadjanova haqidagi video lavhadan olindi.

raqslarini soatlab tomosha qilar va o‘z xotirasiga muhrlar ertasigayoq, shu yangi harakatlarni o‘z raqslarida qo‘llay olgan.

Raviya Atadjanova haqiqiy xalq artisti kabi umrini ijodga bag‘ishlagan Xorazm xalqining fidoyi raqqosasi bo‘lgan. Garchi teatr va xoreografiya san’ati bilim yurtini tamomlamagan bo‘lsa-da, o‘z ijodida xalqona Xorazm raqslarining yangi yo‘nalishdagi talqinini yaratishda samarali mehnat qilgan. Uning maktabi Xorazm xalq raqsining ijodidan olingan raqs uslubiyoti bo‘lgan.

Roviya Atadjanova yoshlik, o‘smirlik davri haqida shunday hikoya qiladi: “Toshkent shahriga meni olib kelishganda balet maktabiga o‘qishga kiraman deb, orzu qilgan edim, lekin balet maktabiga emas, ansamblga taklif qilishdi. Shuning uchun ham kasal bo‘lib qoldim”.[2] Raviya Atadjanova balet maktabini tugatmasa ham, “Xorazm xazinalari”ning nodir durdonalarini, Xorazm xalq xoreografiyasini ajablanarli yorqin tasvir etgan harakatlarini qo‘llay olgan. U teatrda drama artisti va musiqali spektakllarning yakkaxon qo‘shiqchisi, raqqosasi bo‘lib ishlagan va keyinchalik raqslar qo‘ya boshlagan.

Uning ustozlari rejissyorlar va tajribali artistlar bo‘lishgan. Raviyaga teatr san’ati eshigini ochgan inson Soliha Divanova bo‘lgan. U mohir san`atkor sifatida teatr tashkilotchisi va boshqaruvchisi bo‘lib faoliyat yuritgan.

Tajribali raqqosa Raviyaxonim 1946-yilda san’at va madaniyat xodimi Sulton Ataniyazovga turmushga chiqadi va ikki o‘g‘il, bir qizni voyaga yetkazadi. Iste’dodli raqqosa farzandlari yosh bo‘lishsa ham san’atni, raqsni tashlab qo‘ymagan. Hatto 1950-yilda ikkinchi o‘g‘li Baxtiyor Ataniyazovni dunyoga keltirgan bo‘lsa-da Ustoz san’atkor Komiljon Ataniyazovni aytgan qo‘shiqlariga raqsga tushgan.

Roviya Atadjanova teatrda 40 yildan ortiq faoliyati davomida 60 dan ziyod yirik rollar va o‘ndan ortiq epizodlar ijro etgan. Tomoshabinlar va matbuotchilar Raviya Atadjonova san’atida kamyob samimiyatni, ko‘z ilg‘amas harakatlarni, uning qahramonlaridagi hayotiy haqiqatni, har qanday sahna situatsiasiga kira bilishini e’tirof etishgan. Uning ijro etgan qahramonlari ham har xil toifadagi insonlar bo‘lishgan. Yosh va qari, jahldor va yaxshi, xushchaqchaq va ma’yus, ko‘p gapiradigan va g‘ururli, omadli va baxtsiz, ba’zilar kulgu keltirsa, boshqasi yig‘latadigan, ba’zilari hayratlanarli bo‘lishgan. Uning rollari qatorida Hamza Hakimzoda Niyoziyning romantik "Holisxon" dramasida ozod Zebo zamonaviy, hudbin, o‘zining farzandiga oshiq ona obrazini; “Xudolar” nomli maishiy pyesada ayyor, jaxldor, go‘zal Oq-qiz, millioner-ayol obrazlarini yaratgan. Qolaversa, “Jon qizlar” nomli komediyada, “Yaralangan yurak” pyesasida va boshqa spektakllarda brigadirlar va chayqovchilar, doktor va raykom kotibalari, afsonaviy qahramonlarga oshiq bo‘lganlar va turli davrlarda yashagan har xil bolalarning onalari, hattoki

[2] O‘.Muhamedova O'zbek raqsini sahnalashtirish amaliyoti T-2020.

Shekspir tragediyasidagi Gamletning onasi qirolicha Gertrudalar obrazlarini gavdalantirgan.

Bunday turli xil va keng xarakterdagi obrazlar yaratishda nafaqat tug‘ma iqtidor kerak, balki ustalik mahorati ham lozim bo‘lgan. Albatta, raqs plastikasiga yoshligidan ega bo‘lishi darkor. Lekin dramatik va hatto musiqali spektaklda his-tuyg‘uning, kechinmaning, ayniqsa fikrning ifodaviy plastikaning asl vositasi bo‘la olmaydi. Raviya Atadjanova tomonidan yaratilgan bir qancha obrazlarini O‘zbek teatr san’atining yutug‘i deb e’tirof etish mumkin.

Raviya Atadjanova spektakllardagi kichik obrazlarga, havaskorlik to‘garaklariga sekin-asta havaskor ustozlaridan olgan bilim va tajribalariga tayanib raqslar qo‘ya boshlaydi. Uning tug‘ma iqtidori Xorazm raqslari ijrosida, sahnalashtirgan raqslarida yaqqol ko‘zga tashlanardi.

Raviya Atadjanova o‘z raqslarida yashagan, ijod qilgan, hayotining mazmuniga aylanib qolgan raqs orqali ruhiy qalb iztiroblarini, aytolmagan dil kechinmalarini sahnada namoyon qila olgan. O‘z mehnati, iqtidori mahsuli professional darajadagi raqs ijrochilaridan ajralmasligi bilan Xorazm raqs maktabining namoyondalaridan biriga aylangan bo‘lsa ajab emas. Chunki uning barmoq harakatlari, raqsdagi plastik egilishlarining bajarilishini ko‘z ilg‘amas darajada mohirona va boshqalar o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan o‘ziga xos yo‘nalish hamda mahorat bilan ijro qilishi ustunlik qilgan. Xorazm raqs maktabining mahorati, jozibasi faqat engil va tez harakatlarda emas, balki mohirona, ko‘z ilg‘amas aniq harakatlarda bo‘lishini isbotlay olgan, sahna madaniyatini anglay bilgan raqqosalarning sarasi bo‘lganligi bilan Xorazm raqsi tarixida qolgan raqqosa Raviya Atadjanova 2005-yilning 25-dekabrida Urganch shahrida vafot etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova R. “Xorezmskiy tanets” - T. 1975
2. “O‘zbekiston milliy ensklopediyasi” - T. 2000
3. O‘.Muhamedova “O‘zbek raqsini sahnalashtirish amaliyoti” T-2020.
4. Tangurieva S. “Vsya jizn v tantse” – T. 2006.
5. E.Y. Saitova, N.E. Abrakulova “Xoreografiya va raqs san’ati asoslari” – T. 2015.128b

BOSHLANG`ICH TA’LIM SAMARADORLIINI OSHIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN DARS JARAYONI

Xudayqulova Guljahon Ochildiyevna
Avazova Nargiza Yusupjonovna
Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 81-maktabning
boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7585909

Annotatsiya: Mazkur maqola boshlang‘ich ta’lim o‘qish va odobnoma fanlari o`rtasidagi integratsiyaning muhim tamoyillarini haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bolalar she’rlari va ertaklaridagi jumboqlar, sonlar, matematik amallarning badiiy ifodasiga xos ta’lim-tarbiyaviy, estetik ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so`zlar: integratsiya, tafakkur, intellekt, innovatsiya, texnologiya, didaktika.

Jamiyat, ijtimoiy muhit insonni o`zgartirib, tafakkurini yangilab boraversada, tabiat qonuniyatlari singari bolalaik olamiga xos o`zgarishlar ham yangilanib boraveradi. Ammo har bir bolaning ong va tafakkuri nafaqat maktabda olgan bilimi, balki badiiy kitobxonlik, estetik zavq, hayotga munosabati bilan to`lishib boradi. Bunda ayniqsa, fanlarning bir-biri bilan uzviylik va uzluksizlik asosida integratsiyalashuvi muhim omil sanaladi. Ya’niki, fanlar va bilimlar yo`nalishi, badiiy ijod namunalar mantiqan bir-birini taqozo etsa, o`quvchilarda to`laqonli tafakkur shakllana borishiga poydevor yaratiladi. Boshlanng`ich sinflarda darslarni inntegratsiyalab o`tish, bunda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzal tomonlari juda ko‘p. Ta’kidlash joiz, avvalo, o`qituvchining o`zi har bir fanning alohida xususiuyatlari hamda boshqa fanlar bilan mushtarakligini anglab, so`ngra 1-sinfdanoq o`quvchilarda ham shu ko`nikmani shakllantira olmog`i zarur.

O`quvchilarning maktabdagi ilk faoliyatidanoq bu jihatga alohida e’tibor berish muhim. Xususan, har bir mashg`ulotda o`yin ular faoliyatining mazmundorligini belgilaydi. Endilikda buning yoniga innovatsion texnologiya ham jadal kirib kelmoqda. Natijada, fanlararo integratsiyadan foydalanish tabiiy ehtiyojga aylanayotir. Aytaylik, 3- sinf odobnoma darslarida ko`p mavzularni o`qish, mehnat, jismoniy tarbiya, musiqa darslari bilan bo`glab o`tish taqozo etiladi. Jumladan, “Xalq o`yinlari. O`yin odobi” mavzusini o`tishda o`qituvchi o`qish kitobidan tashqari xalq og`zaki ijodi fanidan xabardor bo`lishi lozim. Mavzuga doir ijodiy topshiriqlarni bajarish uchun ham keng bilim, hayotiy tajribaga ega bo`lishi, shuningdek, kompyuterlashtirilgan xalq o`yinlari orqali o`quvchilarda tasavvur hosil qilishga erishishi zarur.

Folklorshunos olim O.Safarov ta’kidlaganidek, bolalar o‘yinlarining xos xususiyati shundaki, ularda o‘yinchi ham, tomoshabin ham – bolalarning o`zlari, ularda o`yinchi va tomoshabin yagona bir siymoda birlashgan holda namoyon bo`ladi. Shu bois har bir o‘yin – o`ziga xos betakror dramatik asarday, hayotning qay bir parchasi, qay bir dardi, qay bir muammosini aks ettiruvchi sahna asariga aylanadi, uning muallifi ham, sahnalashtiruvchisi ham, ijrochisi ham, tomoshabini ham – tag‘in o‘sha bolalarning o`zlari, o`zlari, o`zlari…

Darhaqiqat, bolalar hayotni dastavval o`yinlarida kashf etadilar, kattalarga xos barcha kechinmalar – xursandlig-u xafachilik, ayyorlig-u g`irromlik, haqiqatgo`ylik yoxud kechirimlilik ham har xil o`yinlar ichida paydo bo`la boshlaydi. Shu ma’noda 3-sinf odobnoma kitobida berilgan xalq o`yinlariga oid mavzu mazkur hodisani nazariy va amaliy jihatdan asoslashga yordam beradi. Bu mavzuni boshlashdan ilgari o‘quvchilarga “Siz o`rtoqlaringiz bilan qanday o`yinlarni o`ynaysiz? “O`yin chog`ida g`irromlik qilgan, arazlagan bolalarga munosabatingiz qanday?” degan savol-topshiriqlar berilgan. Matn ichida ham bolalar o`yinlari, olamiga xos muammoli vaziyatlar berilgan. Shuningdek, berilayotgan nazariy ma’lumotlar qatorida “Chorlama”, “Guldur-gup”, “Aytishma”, “Sanama”, “Chandish” kabi o`yin turlari sanab ketiladiki, buni nazariy va amaliy jihatdan o`quvchilarga anglatishda aynan fanlararo integratsiyaga ehtiyoj seziladi. Binobarin o`qituvchi bu mavzuni o`tishda quyidagi metodik usulni tanlashi samarali natija beradi: Odobnoma fanidan mazkur darsni o`tishda ma’naviy o`yin namunalarini tushuntirish ham rejalashtirilgan. Ayniqsa, tez aytish, topishmoq, chandish, guldur-gup singari o`yin turlarini ham amaliy tarzda, ijodiy bajarish samarali natija beradi. Bunda ham didaktik o`yinlardan foydalanish, ayniqsa, musobaqa, bellashuv usullarini qo`llash maqsadga muvofiq. Ayniqsa, bugun anchayin kam qo`llanadigan “guldur-gup” va “chandish” nima ekanligini o`qituvchi o`zi tushuntirgach, so`ngra bolalar bilan birgalikda bu o`yin ham o`ynab ko`rilsa, quvnoq daqiqa tashkil etiladi. Jumladan O.Safarov bu terminlarni shunday izohlaydi: “Guldur-gup momaqaldiroq ovozi (guldur-gulduri)ning birdan tinishi (gup-so‘nish sadosi) ga , jildir-jip ariqda oqqan suv ovozi (jildir-jildiri)ning birdan tinishi (jip-suv harakati to‘xtashiga) ishora ma’nolariga ega bo‘lib, shovqin-suronning birdan tinishga undovchi mo‘jazgina qo‘shiqlar sil-silasidan iborat”.

Umuman, boshlang`ich sinflarda integrallashgan darslarda ikki yoki undan ortiq fan elementlari o`zaro bog‘lanishi uchun dars oldindan loyihalashtirilib olinadi. Bundan ko`zlangan maqsad o‘quvchilarda tabiat, jamiyat va hayotiy tajribalar, milliy qadriyatlar, an’analar haqidagi yaxlit tasavvurni hosil qilishdir. O`quvchilar ham boshlang`ich sinflardanoq integratsiyalashgan darslarga tayyor bo`lishi, o`zlari mustaqil izlanib, ijodiy mushohadalar bilan fanlararo bilimlarini yanada mustahkamlashga ko`nikma hosil qilib borishi joiz. Chunki, har bir o`quvchi

kelajakda barcha fanlardan mukammal bilimga ega bo`lishi, istagan soha bo`yicha kasb egallashi uchun bilimlarini amaliyotga tatbiq eta bilishga yo`llanishi kerak. Sinfdan tashqari o`qish darslarida ilmiy-ommabop maqolalarni o`rganishda ommaviy-axborot vositalaridan foydalanish ahamiyati tahlil etilgani bilan izohlanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan o‘qish, ona tili, tabiatshunoslik, tasviriy san’at, mehnat, musiqa, matematika kabi o‘quv fanlari o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi va axloqiy fazilatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Bir-birini to‘ldiruvchi ushbu o‘quv fanlari yordamida o‘quvchilar tabiat, jamiyatdagi hodisa va jarayonlar, san’at haqidagi umumiy tushunchalar, til xususiyatlari, og‘zaki va yozma nutq shakllanishini o‘rganadilar. Ijtimoiy-gumanitar turkumdagi o‘quv fanlarini o‘rganish jarayonida fanlararo integratsiya muhim rol o`ynaydi.

Integratsiyalashning didaktik asosiga ayrim mavzularini o`tish metodikasidagi bog`liqlik ham tushuniladi. Shu tariqa, bir fanni, yoxud mavzuni o`tishda o`zaro bog`liq mavzular yoki fanlar integratsiyasi chuqurlashib boraveradiki, bu boshlang`ich sinf o`quvchilarida yoshlikdan allomalarimiz haqidagi kitobchalarni ko‘proq o‘qib o‘rganishga da’vat etadi, ulardan ibrat olishga undaydi. Ulkan shahrlar tarixidan voqif bo`lish orqali yuqori sinflarda o`rganiladigan fanlar uchun mustahkam zamin hozirlaydi. Boshlang`ich sinflarda o`qitiladigan odobnoma – sog‘lom avlodni ma’naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashdagi asosiy fan hisoblanadi. Chindan ham inson odobi bilan go‘zaldir. O‘tmishda ham odob ilmi alohida fan sifatida maktab va madrasalarda o‘qitilgan. Mustaqillikka erishgach, yangi avlod darsliklari qatori odobnoma fani ham tamomila sharqona odob-axloq me’yorlari asosida yangidan yozilgani ijobiy samarasini bermoqda. Fanning qiziqarli tomoni shundaki, u kundalik hayotimiz, ma’naviy qadriyatlarimiz bilan chambarchas bog`liq. Ayniqsa, har bir mavzuning boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan asosda o`tish taqozosi o`qituvchidan yuksak malaka va mahoratni talab etadi. Odobnoma darslari ko‘proq noan’anaviy tarzda, turli shakllarda - o‘yin, bahs, ertalik, suhbat, uchrashuv, sahna ko‘rinishlari, qo‘g‘irchoq teatri tomoshalari ko‘rinishlarida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Bunda o‘quvchi quruq tinglovchi bo‘lib qolmay, balki u darsning faol ishtirokchisiga aylanadi. Masalan, 2- sinf ododbnoma darsligidagi “Mehmon kutish odobi” mavzusini o`qish kitobidagi Kaykovusning “Qobusnoma” asaridan olingan parcha bilan bog`lab o`tish mumkin. Shuningdek darsni mustahkamlash qismida “U kim ekan” didaktik o‘yini ma’naviy jhatdan o`uvchilar bilimini mustahkamlashga yordam beradi. Umuman, turli fanlarga oid darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, majmualar, lug‘atlar, ilm-fanning turli sohalariga oid “Qiziqarli botanika”, “Qiziqarli kimyo”, “Qiziqarli tilshunoslik”, “Mo‘jizalar kitobi” singari bolalarbop qomuslar, “Mashhur kishilar hayoti” rukniga kiruvchi badialar, tabiat va jamiyat hodisalariga, tarixga oid ilmiy-ma’rifiy asarlar, xilma-xil o‘quv adabiyotlari mumtoz

adabiyotimizdagi didaktik an’analar vorisi sifatida yashab kelmoqda. Endilikda boshlang`ich sinf o`qish, matematika, odobnoma, tabiatshunoslik darslarini integratsiyalash asosida shunday maqsadga to`liq erishilayotir. Bunday darslarni tashkil etishning didaktik asoslari esa o`quvchilarni yuqoridagi kabi qiziqargli bilimga ega bo`lishlarini ta’minlaydi.

Boshlang`ich sinf o`qituvchilarining o`zi ana shu fanlar o`rtasidagi boog`liq nuqtalarni zukkolik bilan ilg`ab, ularni o`tishda pedagogik mahoratlari – notiqlik, san’atkorlik, rejissor va savodxonlik qobiliyatlarini to`liq namoyon eta olsalar har bir darsdan ko`zlangan samarali natijaga albatta erishiladi. Bunda interaktiv metodlar ham albatta har bir o`quvchi shaxsi, kichik guruhlar, sinf qiziqishining yo`nalishiga, salohiyatiga ko`ra tashkil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matchonov S., Bakiyeva, G`ulomova X., Yo`ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlag`ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. –T., Ishonch hamkor. 2021.
2. Ne’matov H., G`ulomov A., Ziyodova T. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish. (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.) –T.: RTIMM, 1995. –76 b.
3. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo`ldosheva Sh. Ona tili. 3-sinf uchun darslik, – T.: O`qituvchi, 2019. –152 b.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QISH DARSLARIDA FASLLAR BILAN BOG‘LIQ MATNLAR USTIDA ISHLASH

Ismoilova Muhabbat Abrahmatovna
Rashidova Zarifa Abdiraimovna
Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 81-maktabning
boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7585933

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘qish darslarida vaqt, fasllar bilan bog‘liq mavzularni o‘qitishva ular ustida ishlashning ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, o‘qish darsi, taqvim, fasl, vaqt, "Yoz" she’ri.

Boshlang'ich ta’limning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. Shu maqsadda "O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi. O'qish ta'limi bo'yicha o'quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo'lmaydi. Negaki matn tagzaminidagi tarbiyaviy g'oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda, har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab etilganda o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

Asar tahlili jarayonida o'qituvchi savollariga o'quvchilarning o'z so'zlari bilan javob berishi ham matnda tasvirlangan voqea - hodisalar yuzasidan mantiqiy fikrlashga, qahramonlarning xatti-harakatlarini to'g'ri baholashga yaqindan yordam beradi. Savollar uzuq-yuluq va mantiqsiz bo'lmasdan, qat'iy maqsad asosida izchil berilishi o'quvchilarning o'qilgan matn mohiyatini chuqur anglab etishlariga imkon yaratadi. Negaki har qanday javob mustaqillikni taqozo etadi. Tabiatga oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Ular o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

Badiiy asarlar matni ustida ishlash jarayonida ularning janriy xususiyatlaridan tashqari, mavzusi ham nazarda tutiladi. Masalan, tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag'riga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o'rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi. 4-sinf O'qish kitobida "Yoz - o'tadi soz" bo'limini o'rganish uchun 8 soat vaqt ajratilgan. Bu bo'limda Shukur Sa'dullaning "Yoz", Qambar O'taevning "Non qaerdan keladi?" she'rlari, G'ayratiyning "Bobomning sovg'asi", Murod Xalilning "Oydin kecha" hikoyalari, Xudoyberdi To'xtaboevning "Nihollarning nolasi" hikoyasi, Zafar Diyorning "Suv bilan suhbat" she'ri hamda Rauf Tolibning "Quyosh sevgan yurt" ertagi keltirilgan. Lirik she'rni o'qish va tahlil qilish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko'p hollarda she'rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunday holda she'riy san'at hissiyot bilan bog'liq ekanligi unutiladi, she'r ma'nosining satrlar, so'zlar zaminida yashirin berilishi anglab yetilmaydi. Buning oqibatida o'quvchilar she'rdagi obrazlilikning mag'zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma'noni o'qish mehnattalab ishdir. Busiz hatto adabiy ta'limning maqsadi ham amalga oshmaydi. 4-sinfda Sh. Sa'dullaning "Yoz" she'rini o'rganishda albatta tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She'rni o'qishdan oldin unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa qilib aytib beradi.

Ma'lumki, yoz fasli go'zal ko'rinishi bilan odamda yoqimli tuyg'ular uyg'otadi. Yozda bolalar oromgohlarda dam olishi, tabiat manzaralc aridan bahramand bo'lishi, ariqlarda cho'milishi, do'stlari bilan o'ynashdan olam-olam zavq oladilar. Yozdagi issiq va toza havogina emas, mevalarga g'arq pishgan daraxtlar, dala-bog'lar kishida ajib bir kayfiyat uyg'otadi. "Yoz" (Shukur Sa'dulla) she'rini o'rganish jarayonida chiroyli manzara tasvirlangan rasmlardan foydalanish ham mumkin. Yoz fasli haqida gapirilar ekan, albatta, "issiq" degan sifati qo'shib aytiladi. Bu shu fasl hukmronligi davridagi manzaraga, suvning shildirab oqishiga, ko'zlarni qamashtirishiga ishoradir. Ushbu she'rni o'rganish darsi dastlab o'quvchilarning yoz fasli haqidagi tushunchalarini aniqlashdan boshlanadi. Yozning o'ziga xos belgilari, yozda o'ynaladigan o'yinlar, yoz manzarasi yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. O'quvchilarning yoz faslida issiq bo'lishi tufayli ayrim qushlarning o'lkamizga kelib bolalashi, yozda dam olish maskanlariga, oromgohlarga borib mazza qilib o'ynashlari haqidagi tushunchalari aniqlashtirilib, to'ldiriladi. Shundan so'ng o'qituvchi she'rni ifodali o'qiydi.

Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy shakli she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday

tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali o'qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. So'ngra she'rni mustaqil o'qish topshiriladi. O'qish oddiy bo'lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g'azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari kerak, bu jarayonda ularning she'r ritmini buzmasliklariga erishish kerak. "Suv bilan suhbat" (Zafar Diyor) she'rining hajmi unchalik katta emas. U yosh bolaning oqib turgan suv bilan suhbatini, savol - javobini, bu she'rni o'qishdan oldin ham o'quvchilar bilan savoljavoblar o'tkaziladi. O'quvchilar diqqati suvning qaerdan oqib bizlargacha kelishiga qaratiladi. Va ayni paytda suv qir-adirlar oralab shamol kabi kelishi, oppoq qorli tog'lardan shoshib oqib kelishini tushuntiradi. She'r matni bilan tanishishdan oldin doskaga "jiyron", "toycha", "bezak", "qirg'oq", "qir" "adir" so'zlari yozilib, ma'nosi izohlanadi. She'rni navbat bilan o'quvchilarga to'rt-besh marta o'qitilganidan keyin uning mazmuni yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. She'rning to'la mazmuni uch-to'rt o'quvchilarga gapirtiriladi, ularning fikr-mulohazalari to'ldiriladi. Mazkur mavzuni o'rganish jarayonida maktab atrofiga sayohat uyushtirish ham mumkin. Yozda go'zal manzarani, gulzorlarni, daraxtlarni, odamlarning va qushlarning yozdagi hayotini kuzatish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va nutqining ifodali, sermazmun bo'lishi uchun boy material beradi. She'r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo, she'r mazmuni haqida o'quvchilarga ko'p savol berish tavsiya etilmaydi.

O'quvchilar she'rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o'zi kifoya. Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o'ziga xos fikrlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek, zamonamiz qahramonlari, o'zbek xalqi, Vatan himoyasi, xalqimizning qahramonona ishlari haqidagi she'rlar mazmunini to'liqroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday she'rlarni o'qishga maxsus tayyorlaniladi: she'r mazmuniga asos bo'lgan tarixiy voqea haqida qisqacha so'zlab beriladi yoki suhbat o'tkaziladi. Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan ko'pgina she'rlarni tahlil qilib, ifodali o'qish mashq qilingach, ifodali, yoddan aytib berish vazifasi topshiriladi. She'riy nutq yengil yodlab olinadi, bolada estetik his-tuyg'u uyg'otadi. Kichik yoshdagi o'quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she'rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar. Xulosa qilib aytganda, O'qish darslari insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matchonov S., Bakiyeva, G`ulomova X., Yo`ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlag`ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. –T., Ishonch hamkor. 2021.

2. Ne’matov H., G`ulomov A., Ziyodova T. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish. (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.) –T.: RTIMM, 1995. –76 b.

3. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo`ldosheva Sh. Ona tili. 3-sinf uchun darslik, – T.: O`qituvchi, 2019. –152 b.

ИЗУЧЕНИЕ ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ СОВРЕМЕННОГО ЛЕЧЕНИЯ ГНОЙНО-НЕКРОТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ ПРИ САХАРНОМ ДИАБЕТЕ

QANDLI DIABETDA YIRINGLI-NEKROTIK JARAYONLARNI ZAMONAVIY DAVOSINING PATOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISH

THE STUDY OF PATHOMORPHOLOGICAL FEATURES OF MODERN TREATMENT OF PURULENT-NECROTIC PROCESSES IN DIABETES MELLITUS

Зохиров Адхамжон Рафикович
Ассистент кафедры Общей хирургии №2
Ташкентская медицинская академия
adhamjonzohirov@yandex.com
Набиева Азиза Шералиевна
Главный специалист Каршинского городского отдела
Агентства по делам молодежи
Azizakhon.nabieva563@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7585967

Аннотация. Изучение влияния нового препарата «Реоманнисола» на жизненно-важных органов с учетом патоморфологических аспектов в комплексном лечении экспериментального синдрома диабетической стопы.

Ключевые слова: экспериментальная модель диабетической стопы, экспериментальные животные, сахарный диабет, аллоксан, хирургическая обработка, реоманнисол.

Annotatsiya. Eksperimental diabetik oyoq sindromini yangi "Reomannisol" preparati bilan kompleks davolashdan keyin hayotiy organlarga ta'sirini o'rganish uchun patomorfologik tashxislashni olib borish.

Kalit so'zlar: diabetik oyoqning eksperimental modeli, tajriba hayvonlari, diabetes mellitus, alloksan, jarrohlik debridman, reomannisol.

Annotation. Study of the effect of the new drug "Rheomannisol" on vital organs, taking into account pathomorphological aspects in the complex treatment of experimental diabetic foot syndrome.

Key words: experimental model of diabetic foot, experimental animals, diabetes mellitus, alloxan, surgical debridement, reomannisol.

Введение. Сахарный диабет (СД) — хроническое заболевание, характеризирующееся относительной или абсолютной недостаточностью

инсулина, в результате которой происходят метаболические нарушения, являющиеся основной причиной поздних осложнений СД [1]. Ранняя инвалидиация и высокая смертность среди больных СД сделали лечение этого заболевания одним из приоритетов национальных систем здравоохранения [2]. В свете этого поиск новых методов лечения и изыскание препаратов, удобных в примененииии обладающих незначительными побочными действиями, на сегодняшний день остаётся актуальной проблемой медицинской науки [3]. Для проведения подобных исследований в области диабетологии используют различные модели СД, одной из которых является аллоксановая модель [4].

Морфологические аспекты заживления осложненных ран человека разработаны недостаточно, подходы к лечению ран неоднозначны, особенно в отношении раневого процесса на фоне сахарного диабета [1]. Заживление ран протекает по общим законам и стандартным принципам регенерации тканей. Темпы этого процесса, его исход зависят от степени и глубины раневого повреждения, структурных особенностей пораженного органа, общего состояния организма, применяемых методов лечения. Проблема стимуляции репаративных и регенеративных процессов и борьбы с патогенной микрофлорой в гнойной ране на фоне сахарного диабета остается крайне насущной [4]. Вместе с тем остается недостаточно изученным вопрос местного лечения раневого процесса на фоне сахарного диабета, несмотря на многообразие средств и методов, предложенных с этой целью [5].

Проблема нарушений нескольких видов обмена при введении аллоксана, превалирование проявлений оксидативного стресса как типового патологического процесса при поражении ключевого органа, участвующего во всех видах обменных процессов (печень) диктуют необходимость назначения патогенетических лекарственных средств из группы метаболических корректоров с гепатопротективной и антиоксидантной направленностью. Одним из перспективных новых препаратов в этой области является **Реоманнисол (СП ООО «REKA-MEDFARM» Республика Узбекистан)**– это комплексный препарат с антигипоксическим, антиоксидантным, реологическим, противошоковым, дезинтоксикационным, мочегонным действием. Основными фармакологически активными веществами являются сукцинат натрия и маннит.

Цель исследования. Изучение влияния нового препарата «Реоманнисола» на жизненно-важных органов с учетом патоморфологических аспектов в комплексном лечении экспериментального синдрома диабетической стопы.

Материалы и методы исследования. Работа выполнена на экспериментальном материале. Для проведения эксперимента отбирали здоровых крыс. Экспериментальные исследовании проведены на 110 белых беспородных крыс-самцах массой 220-250г., содержащихся на виварий ТМА.

Крыс содержали в оптимальных условиях, все крысы проживали в комнате с 12-часовым циклом свет-темнота и постоянной температурой 22-25 ° С, со свободным доступом к воде. Всем крысам давали в достаточном количестве нормальную диету для грызунов adlibitum (диета для грызунов, ГОСТ Р50258–92) и водопроводная вода ежедневно. Операции и все манипуляции с животными проводились с использованием общего обезболивания, с соблюдением принципов гуманности, изложенных в директивах Европейского сообщества (86/609/EEC) и Хельсинкской декларации, в соответствии с «Правилами проведения работ с использованием экспериментальных животных». Экспериментальные животные были разделены на 3 группы: 1-ая группа интактная; 2-ая группа контрольная – на фоне аллоксанового диабета создание экспериментальной модели диабетической стопы с применением традиционного комплексного лечения; 3-ая группа опытная – на экспериментальной модели диабетической стопы – традиционное лечение и реоманнисол.

После 24-часового голодания крыс взвешивали и раствор аллоксана 2%, разведенный в 0,9% физиологическом растворе, вводили животным внутрибрюшинно в виде однократной дозы, соответствующей в дозе 20, 15, 12 мг аллоксана на 100 г веса животного. Пищу и воду давали животным только через 30 минут после введения лекарств.На 3-и сутки оценивали уровень глюкозы в крови.

Определение концентрации глюкозы в периферической крови животных. Диабет был подтвержден через 3 дня, послеопределения концентрации глюкозы в крови. Концентрацию глюкозы в периферической крови измеряли глюкометром AccuChekActive (Акку Чек Актив) («RocheDiagnostics», Германия), линейный диапазон измерения составлял 0,6 – 33,3 ммоль/л. Забор крови для исследования уровня гликемии проводили из надреза кончика хвоста. Получена экспериментальная модель сахарного диабета (СД I типа) [5]. День верификации сахарного диабета считали нулевым днем его развития (СД).

Хирургическая процедура. В день верификации поверхность кожи правой подушечки ступни были выбриты и очищены салфеткой из 70% этанола. На коже подушечки стопы правой задней лапы каждой крысы с помощью скальпеля создавали прямоугольную рану полной толщины размером 2 мм × 5 мм [6]. Раны, созданные скальпелем и ножницами (день 0), были одинакового размера и формы с минимальным кровотечением или отсутствием кровотечения во всех группах. Ежедневно, раны были обработаны традиционным методом лечения (5% спиртовой раствор йода и мазь левомеколь) до конца эксперимента, также для опытной группы, помимо местного традиционного метода лечения применяли новый препарат

Реоманнисол (СП ООО «REKA-MEDFARM» Республика Узбекистан), который вводили внутрибрюшинно 1 раз в сутки на протяжении 5 дней, на разовые дозы терапевтического диапазона для человека с учетом различий в величинах относительной площади поверхности тела [7]. Во всех случаях средней дозой изучаемого диапазона являлась 1 мл Реоманнисола на 100 г от расчетного эквивалента средней терапевтической дозы (ЭСТД).

Развитие заболевания оценивали состоянием животных, фиксировали летальность в группах, регистрировали по клинической симптоматике (полиурия, полидипсия, полифагия, снижение веса, шерстяной покров) и уровню глюкозы в крови. Шерсть животных в норме имеет своеобразный блеск и обычно прилежит к кожному покрову.

Количество выпитой крысами воды определяли индивидуально, путем измерения ее объема с помощью мерного цилиндра до и после приема воды животными. Для оценки суточных величин диуреза проводили индивидуальный сбор мочи с использованием мочесборников.

Крыс выводили из эксперимента декапитацией на 1, 3, 7, 10, 14 – сутки.

Оценку эффективности препарата проводили на основании, также, визуального осмотра животных и их ран. Критериями эффективности препарата для раны служили: ориентируясь на степени выраженности и продолжительности воспалительных проявлений в области раны (отек, гиперемия, раневой экссудат), состояние дна раны; появление грануляционной ткани; уменьшение площади раневого дефекта; появление краевой эпителизации; ускорение сроков заживление ран,

Для определения площади раны использовали тест **Л.Н. Поповой** (1942). На рану помещается стерильная пластинка целлофана и на нее наносится контур раны. Рисунок переносится на миллиметровую бумагу и подсчитывается площадь раны.

$$\Delta S = \frac{(S - S_n) \cdot 100}{S \cdot t}$$

Где ΔS искомая величина в $см^2$;

S - величина площади раны при предшествующем измерении в $см^2$;

S_n - величина площади раны в настоящий момент в $см^2$;

t - число дней между измерениями.

Методика статистического анализа. Полученные данные статистически обработаны на персональном компьютере PentiumIV с использованием программы «Microsoft Excel». Кроме того, применяли методы традиционной вариационной параметрической и непараметрической статистики. Для

установления достоверности полученных результатов использовали коэффициент t – Стьюдента [8]. Достоверными считались различия при совпадении частоты по изучаемому признаку не более 5% (P<0,05).

Кусочки из диабетической стопы, поджелудочной железы и печени фиксировали в растворе Карнуа, (состав фиксатора – леденая уксусная ксислота – 10 частей, хлороформ – 30 частей, этиловый спирт – 60 частей). Фиксация кусочков в течение 2-4 часа, затем помещение кусочков в 96% спирт. Проведение проводка обычным способом и заливка в парафин. Изготовление гистологических срезов толщиной 5-6 мкм на санном микротоме, депарафинизация на термостате и окраска гематоксилином и эозином. Является самым распространенным методом окраски гистологических срезов. Парафиновые срезы депарафинируют в хлороформе и промывают в дистиллированной воде, затем на срезы наливают раствор гематоксилина на 3 мин [9]. Промывка в водопроводной воде в течение 10 мин и срезы докрашивается эозином от 0,2 до 3 мин в зависимости от толщины срезов. Обезвоживают в спиртах восходящей концентрации, начиная с 70º до 96º, просветляют в карбол-ксилоле, ксилоле и заключают в бальзам. Результат: ядра клеток окрашиваются в сине-фиолетовый цвет, цитоплазма – в розовый [10]. Метод люминесцентно-микроскопического исследования.

Статистическая обработка цифровых данных производилась с помощью прикладных программ SPSS 16.0 и Statistica 6.0 for Windows. Определялись средние значения и средние квадратичные отклонения, медианы и интерквантильные интервалы, а также непараметрические методы (критерии Манна-Уитни, Вилкоксона, Краскела-Уоллиса). Анализ вероятности наступления изучаемого исхода в определенный период времени (выживания) выполняли по методу E. Kaplan – P. Meier. Для выявления нескольких факторов риска для выживаемости использовали регрессионный пошаговый анализ Кокса. Анализ точности и практической ценности прогностических факторов и валидность моделей измеряли способом конкордантной (c-statistic) статистики (оценки площади под ROC-кривой).

Результаты исследования. Масса тела крыс до выполнения эксперимента варьировали от 220 до 250 г. 1 группа – интактные животные (по 10 крыс), служили контролем для 2 и 3 групп. Крысам было ведено внутрибрюшинной 2% аллоксан в дозе 12 мг на 100г, создана 2 – контрольная группа на 50 крысах и 3 опытная группа n=50 крыс. В обеих группах до конца эксперимента (17 суток) летального исхода не зафиксировано.

Визуальный осмотр. Первые признаки диабета проявлялись в виде резкого увеличения потребления воды 70-80 мл, полифагии, полиурии, гипергликемии. При аллоксан-индуцированном сахарном диабете у животных в ходе

эксперимента отмечались вялость, апатичность, малоактивные, потускнение и выпадение шерстяного покрова, потери в весе, помутнение зрачка и склеры, мелкоточечные эрозии в области хвостам и конечностей. Шерсть животных в норме имеет своеобразный блеск и обычно прилежит к кожному покрову. В динамическом наблюдении у крыс опытной группы, к седьмым суткам начало улучшаться состояние животных и аппетит, стали активными, мало агрессивными, увеличилась частота шерстяного покрова, язвы на поверхности кожи заживали, полиурия и полидипсия начало уменьшаться. У животных контрольной группы появилась редкий грумминг, но блеска шерсти не отмечались, оставались агрессивными, язвы на поверхности кожи не заживали. К 10 суткам у крыс из группы опытная, восстановилась опрятность шерсти, исчезли эрозии в теле. У контрольной группы до конца эксперимента сохранялись апатия, вялость, сидели больше в углу клетки, при взятии в руки у животных сохранялась агрессия, грумминг полностью не восстановилась.

Гистологические наблюдении. Контрольная группа. Поджелудочная железа. Результаты морфологического исследования поджелудочной железы после проведения традиционного лечения на 3 и 7 дни эксперимента отмечается сохранение выраженной атрофии эндокринных островков и разрастание соединительной ткани по ходу интерстиции железы. При этом эндокринные клетки мало числены, разбросаны, почти все клетки находятся в состоянии дистрофии и деструкции. Интерстициальная ткань поджелудочной ткани утолщена за счет отека и разрастания волокнистых структур и увеличения количества гистиоцитарных клеток. Экзокринные железы деструктивные и деформированы, местами сливаются друг с другом, ядра железистого эпителия в виде вакуолизации кариоплазмы.

На 10 день после лечения традиционным методом в ткани поджелудочной железы отмечается распространенное расположение эндокринных клеток по ходу интерстициальной соединительной ткани (рис 1). При этом, эти клетки сконцентрированы вокруг сосудов и характеризуется относительно широкой эозинофильной цитоплазмой и гиперхромными ядрами. В интерстиции железы также отмечается разрастание соединительной ткани в виде увеличения волокнистых структур и беспорядочного расположения гистиоцитарных клеток. Экзокринные железы в отличие от предыдущего срока исследования несколько разбросаны за счет утолщения интерстициальной ткани. Железистые ячейки разной формы и величины с набуханием экзокринных клеток, у которых ядра расположены на базальной части клетки. На 14 день лечения традиционным методом вышеописанные патоморфологические изменения сохраняются, из них интерстициальный склероз усиливается.




Рис 1. Морфологическая картина ПЖЖ, традиционное лечение, 10 день. Диффузное расположение эндокринных клеток в интерстиции железы. Окраска: Г-Э. Ув: 10х40.

Печень. Результаты микроскопического исследования ткани печени на 7 день после традиционного лечения аллоксанового диабета в печени несколько уменьшается степень вакуольной дистрофии гепатоцитов. Более выраженная вакуольная дистрофия при этом сохраняется во второй морфофункциональной зоне долек паренхимы печени. Где вакуольная дистрофия гепатоцитов иногда заканчивается некробиозом и некрозом печеночных клеток. В третьей и первой морфофункциональной зоне долек печени гидрооптическая дистрофия менее выражена, которая проявляется разрыхлением и неравномерным окрашиванием цитоплазмы гепатоцитов. Ядерные структур гепатоцитов разной формы и величины, большинство из них находятся в состоянии кариопикноза и кариолизиса. Перисинусоидальное пространство несколько расширено, в некоторых из них определяется наличие единичных лейкоцитов.На 10 день после традиционного лечения аллоксанового диабета в печени сравнительно уменьшается дистрофические изменения гепатоцитов. Как выше было указано, что во второй морфофункциональной зоне долек печени сохраняется мелкокапельная вакуолярная дистрофия (рис 2) цитоплазмы гепатоцитов. Центральная вена, синусоиды и пространство Диссе остается несколько расширенными и полнокровными.На 14 день исследования отмечается, что в ткани печени местами появление небольшого очага воспалительной инфильтрации лимфоидными клетками (рис 3). Со стороны паренхимы печени по сравнению с предыдущими сроками отмечается стабилизация дистрофических изменений гепатоцитов, лишь в некоторых гепатоцитах сохраняется мелкокапельная вакуольная дистрофия. При этом, ядерные структуры печеночных клеток несколько увеличены в размерах и гиперхромные.




Рис 2. Морфологическая картина печени, традиционное лечение, 10 день. Стаблизациядистрфических изменений гепатоцитов. Окраска: Г-Э. Ув: 10х40.




Рис 3. Морфологическая картина печени, традиционное лечение, 14 день. В ткани печени появление очагов воспалительной инфильтрации. Окраска: Г-Э. Ув: 10х40.

Опытная группа. Поджелудочная железа.

На 7 день после лечения аллоксанового диабета реоманнисолом в островках эндокринной части поджелудочной железы отмечается увеличение количество клеток за счет повышеня пролиферативной активности. При этом, среди эндокринных клеток определяется крупные и мелкие, преимущественно гиперхромные активизированные клетки (рис 4). Активность этих клеток определяется по состоянию цитоплазмы, которая также сильно окрашена эозином, что свидетельствует об увеличении в цитоплазме секреторного вещества. Экзокринные железы находятся в состоянии отека, дистрофии клеток, ядерные структуры которых сдвинуты к периферии клетки. К 10 дню после лечения аллоксанового диабета реоманнисолом отмечается усиленная гиперплазия клеток эндокринных островков, среди которых определяется наличие клеток разных по размеру, окрашиваемости и пролиферативной активности. Площадь островка Лангерганса выражена расширена, вся площадь заполнена клетками, большинство которых находятся в состоянии пролиферативной активности. Цитоплазма и межклеточное вещество заполнено интенсивно окрашенной эозином массой. Вышеописанные морфологические изменения, показывающие активацию эндокринной части железы,

продолжается и в 14 сутки эксперимента (рис 5). Экзокринные железы остается сдавленными за счет интерстициального отека.




Рис 4. Морфологическая картина ПЖЖ,лечение реоманнисолом, 7 день. Увеличение количества клеток островкого аппарата. Окраска: Г-Э. Ув: 10х40.




Рис 5. Морфологическая картина ПЖЖ, лечение реоманнисолом, 14 день. Гиперплазия клеток эндокринных островков. Окраска: Г-Э. Ув: 10х40.

Печень. На 3 день после лечения реоманнисолом аллоксанового диабета отмечается стабилизация и уменьшения выраженности дистрофических изменений в цитоплазме гепатоцитов, лишь в отдельных клетках определяется сохранение в незначительной степени мелкокапельной вакуольной дистрофии (рис 6). Из-за паренхиматозной дистрофии гепатоцитов отмечается дискомплексация и нарушение балочного строения, неравномерное сужение как синусоидов, так и пространства Диссе. В данный срок эксперимента со стороны строма-сосудистой системы отмечается некоторая гипертрофия купферовских клеток и повышение пролиферативной активности гистиоцитарных клеток.

В последующие сроки (7, 10 дни) исследования печени после лечения раоманнисолом отмечается полное исчезновение вакуолярной дистрофии цитоплазмы гепатоцитов (рис 7), лишь определяется пониженная эозинофильность некоторых гепатоцитов. Цитоплазма основных масс гепатоцитов окрашена эозином интенсивно, что свидетельствует о повышении метаболических процессов и накопления в цитоплазме гепатоцитов полезные белковые вещества. Также, отмечается повышение активности ядерных структур гепатоцитов в виде интенсивного окрашивания хроматина

гемотоксилином. Со стороны строма-сосудистой системы ткани печени сохраняется признаки пролиферативной активности как гистиоцитарных, так и купферовских клеток.

К 14-ому дню после лечения аллоксанового диабета реоманнисолом в ткани печени по сравнению с предыдущими сроками отмечается полное исчезновение дистрофических, деструктивных изменений гепатоцитов. Лишь, определяется небольшое расширение некоторых синусоидов и гипертрофия купферовских клеток. При этом, гепатоциты располагаются по балкам и сохраняют свою гистотопографию. Цитоплазма их гиперхромная за счет повышения эозинофильности и отмечается появление в цитоплазме интенсивно окрашенных белковых масс. Ядерные структуры гепатоцитов увеличены в размерах, гиперхромные и встречается двуядерные клетки.




Рис 6. Морфологическая картина печени, лечение реоманнисолом, 3 день. Уменьшение дистрофических изменений гепатоцитов. Окраска: Г-Э. Ув: 10х40.




Рис 7. Морфологическая картина печени, лечение реоманнисолом, 10 день. Исчезновение вакуольной дистрофии, повышение эозинофильности цитоплазмы гепатоцитов. Окраска: Г-Э. Ув: 10х40.

Заключение. 1. Применение препарата реоманнисола при экспериментальной модели диабетической стопы в поджелудочной железе отмечается стабилизация дистрофических, деструктивных изменений как

эндокринной, так и экзокринной части железы. Отмечается восстановление островкового аппарата в виде гиперплазии и гиперхромазии эндокринных клеток, которое является морфологическими критериями пролиферативной активности и повышения функционального состояния эндокринной части железы.

2. Морфологическая картина в печени отмечается с первых дней эксперимента стабилизация общепатологических процессов, исчезновение дистрофических и деструктивных изменений, восстановление гистотопографии паренхимы печени, балочного строения гепатоцитов. Цитоплазма гепатоцитов приобретает эозинофильную окрашиваемость за счет усиления метаболизма и восстановления функции паренхимы печени.

Вывод. Морфологического исследования поджелудочной железы и печени в динамике после проведения лечения препаратом реоманнисолом показали полное восстановление функциональной способностей органов в ранние сроки эксперимента.

Список использованных литератур:

1. Зохиров А.Р., Эрназаров Х.И. Патоморфологическая картина жизненно-важных органов при экспериментальной модели диабетической стопы. International scientific forum - 2022". June 2022. p132-136. https://t.me/ISF UZBEKISTAN

2. Bennett W.L., Maruthur N.M., Singh S. et al. Comparative effectiveness and safety of medications for type 2 diabetes: an update including new drugs and 2-drug combinations // Ann. Intern. Med. — 2011. — Vol. 155, N 1. — P. 67–68.

3. Eidi M., Eidi A., Saeidi A. et al. Effect of coriander seed (Coriandrum sativum L.) ethanol extract on insulin release from pancreatic beta cells in streptozotocin-induced diabetic rats // Phytother. Res. — 2009. — Vol. 23. — P. 404–406.

4. ErgashevU. Y., ErnazarovKh. I., ZohirovA. R., AlzabniI. D. 2022. Complex Treatment of Experimental Model of Diabetic Foot Syndrome. American Journal of Medicine and Medical Sciences 2022, 12(5): 471-480. DOI:10.5923/j.ajmms.20221205.05.

5. Ergashev U.Y., Mustafakulov G.I., Muminov A.T., Minavarkhujaev R.R., Yakubov D.R., ErnazarovKh.I., Zohirov A.R. 2021. THE ROLE OF MINIMALLY INVASIVE TECHNOLOGIES IN THE TREATMENT OF LIVER CAVITIES. FrontiersinBioscience-Landmark, 8, 82-89, DOI:10.52594/4945

6. Ernazarov Kh.I., Zohirov A.R., Ergashev U.Yu., Israilov R.I. PATHOLOGICAL PICTURE OF VITAL ORGANS IN AN EXPERIMENTAL

MODEL OF DIABETIC FOOT. Herald TMA № 1, 2022. 74-79. e-mail: rio-tma@mail.ru. rio@tma.uz

7. Guillemin, Y., Le Broc, D., Ségalen, C., Kurkdjian, E., and Gouze, J.N. 2016. Efficacy of a collagen-based dressing in an animal model of delayed wound healing. J. Wound Care 25: 406–413. [medline] [CrossRef]

8. Zohirov A.R., Ergashev U.Y., Ernazarov H.I. Qandli diabetda oyoqning yiringli-nekrotik shikastlanishlarining patomorfologik jihatlarini kompleks davolashni o'rganish. International scientific forum - 2022". June 2022. p146-153. https://t.me/ISF UZBEKISTAN

9. Zokhirov A.R., Ernazarov Kh.I. THE STUDY OF PATHOPHYSIOLOGICAL CHANGES IN PURULENT-NECROTIC PROCESSES OF THE DIABETIC FOOT SYNDROME. "International scientific forum - 2022". June 2022. p596-605. https://t.me/ISF UZBEKISTAN

10. Vergouwe Y., Soedamah-Muthu S., Zgibor J. et al. Progression to microalbuminuria in type 2 diabetes: development and validation of prediction rule // Diabetologia. — 2010. — Vol. 53. — P. 254–262.

ABU ALI IBN SINO VA UNING FALSAFIY QARASHLARI

Axmadov Furqat Karim o‘g‘li
TATU Samarqand filiali talabasi
Ortiqov Dostonbek Otabek o‘g‘li
TATU Samarqand filiali talabasi
Boymurodov G‘iyosiddin Sharofiddin o‘g‘li
TATU Samarqand filiali talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7585993

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot jarayonida Abu Ali ibn Sinoning hayoti va falsafiy qarashlari qisqacha yoritib berildi. X-XI asrlarda yashab ijod qilgan buyuk faylasuf va tabib Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida ruh, aql, ilohiy va lazzat tushunchalari tahlil qilindi. Ibn Sinoning falsafiy qarashlarining ahamiyati bugungi kunda beqiyos ahamiyatga egadir. Faylasuf o‘zining ko‘p tarmoqli mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o‘ynadi. Shu jumladan, bugungi kunda yurtimizda Ibn Sino ilmiy merosini o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Kalit so‘zlar: aql, axloq, baxt-saodat, lazzat, insoniylik, fazilat, nafs, sabr-toqat, saxiylik, g‘ayratlilik.

ABU ALI IBN SINA AND HIS PHILOSOPHICAL VIEWS

Abstract: This study briefly describes the life and philosophical views of Abu Ali ibn Sina. In the philosophical views of the great philosopher and physician Abu Ali Ibn Sina, who lived and worked in the X-XI centuries, the concepts of spirit, mind, divinity and taste are analyzed. The significance of the philosophical views of Ibn Sina today is incomparable. The philosopher, with his multifaceted work and rich heritage, played a big role in the development of world culture. In particular, today in our country much attention is paid to the study of the scientific heritage of Ibn Sina.

Keywords: intelligence, morality, happiness, pleasure, humanity, virtue, lust, patience, generosity, diligence.

O‘rta asrlarda Sharq olamida yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosini chuqur muhokama qilish va anglash, uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o‘rni va roliga baho berish bugungi kun falsafasining dolzarb masalalaridan biridir. Ana shu bebaho ilmiy merosni yanada teran tadqiq etish va ommalashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlarga yangi turtki berish, Sharqning ulug‘ allomalari tomonidan amalga oshirilgan kashfiyotlar

zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot uchun naqadar dolzarb va zarur ekanini ochib berishning ahamiyati ham shunchalik muhimdir.

Abu Ali ibn Sino O‘rta asrlar madaniyati daholari qatoriga kiradi, ularni o‘z ruhiyati, kuchi qomusiy aqli, ilmiy-falsafiy intilishlari va talablari bilan uyg‘onish davrining buyuk mutafakkirlari bilan qiyoslash mumkin. Ularning asarlarida ilmiy teranlik, tabiatni o‘rganishdagi tajribaga asoslangan ijodiy yechim, falsafiy tahlil kengligi, mehnatkash inson manfaati haqida qayg‘urish chuqur va uzviy bog‘liqligi ko‘zga tashlanadi. Ko‘p tomli qomusiy “Shifo” hamda mashhur 5 kitobdan iborat “Tib qonunlari” asarlari buning yaqqol isbotidir. O‘z asarlarida mantiqiy madaniyat yutuqlarini umumlashtirib hamda ularni o‘zining shaxsiy yangiliklari bilan to‘ldirilgan holda, Ibn Sino YUNESKO ning Bosh konferensiyasini XX sessiyasi qarorida ko‘rsatib o‘tilganidek, falsafa, mantiq, tibbiyot, tabiatshunoslik, sotsiologiya, adabiyotshunoslik, tilshunoslik she’riyati rivojlanishiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shib, dunyoning barcha mamlakatlarida ilm-fan taraqqiy etishiga katta ta’sir o‘tkazgan.

Ibn Sino davridan keyin 10 asr vaqt o‘tdi. Bu davr ichida falsafa va ilm-fan oldinga salmoqli qadam tashladi: falsafaning yuqori shakli-dialektik va tarixiy materialism vujudga keldi, fan atom sirini ocha oldi, hamda uning kuchini insonga xizmat qilishiga erisha oldi. Barcha tirik jonzotlarni maqsadli ravishda boshqarish imkonini beradigan irsiyat kodi topildi. Biologiya jonsizdan jonlini sintez qilish bo‘sag‘asida turibdi, tabobatda profilaktika va kasallikni davolashning o‘ta yangicha uslublari va nazariyasi ishlab chiqildi, kosmik parvozlar oddiy hodisaga aylandi va boshqa ko‘plam inson ongi shu tariqa rivojlandi. Bugungi kunda Ibn Sinoning qarashlaridagi ko‘plab narsalar zamonaviy tushunchalarga hamohangligi va dolzarbligi bilan ajralib turadi. Uning g‘oyalari zamonaviy ilmiy bilimlar xazinasiga ham kiritilmoqda. Uning olamning abadiyligi hamda materiya buzulmasligini ta’minlovchi atributlar haqidagi g‘oyalari, tabiiy qonuniyat, hodisalarining sababli bog‘liqligi va umumiy o‘zgaruvchanligi, olamni anglash va boshqa g‘oyalari bunga misoldir.

Mustaqilligimiz tufayli yurtimizda sharq allomalarining ilmiy merosini o‘rganishga e’tibor kuchaytirilgan. Jahonning turli kutubxonalarida Abu Ali ibn Sino asarlarining qo‘lyozmalari saqlanadi. Shu jumladan, yurtimizda O‘zbekiston FASHI da alloma qalamiga mansub 50 asarning 60 ta qo‘lyozmasi mavjud.

Ushbu maqola bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar jarayonida asosan arab tilida yozilgan adabiyotlardan foydalanildi. Jumladan, "Ko'rsatkichlar va ogohlantirishlar", 1332-yildagi “Al-Ishorat va at-tanbihot” asari va bu asar asosida yozilgan muhokamalar va Ibn Sinoning ilmiy asarlarini tarjima qilib, bugungi kunda ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo‘shayotgan buyuk tadqiqotchilarimizning ilmiy maqolalaridan keng foydalanildi.

Ibn Sinoning g‘oyalari rivojini va qarashlari evolyutsiyasini tushunish uchun uning 20 tomlik “Kitab al-Insaf” (“Adolatlilik kitobi”) ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ming afsuski, u yo‘qolib ketgan. O‘zining oxirgi asarlaridan bo‘lgan “Mubaxisat” (“Bahslar”) kitobining kirish qismida olim shunday yozadi: “Men “Insaf” (“Adolat”) nomli kitob yozdim. Bu kitob men olimlarni 2 guruhga bo‘ldim: sharqliklar va g‘arbliklar. Ular doimo bahs-munozara yuritishadi. Har bir bahsda men ularning qarama-qarshi fikrlarini ko‘rsataman va shundan so‘ng ushbu masalaning adolatli yechimi yo‘lini ko‘rsataman. Kitobda taxminan 28 mingta muammo ko‘rib chiqilgan”.

Mazkur maqolada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning nutqlari va asarlari tadqiqotning metodologik asosi sifatida olindi. Abu Ali ibn Sinoning “Al-Ishorat va at-tanbihot” asarini o‘rganishda tarixiylik metodi asosida tahlil qilindi. Maqolani yoritish jarayonida mantiqiylik, ob’yektivlik, tizimlilik metodlaridan foydalangan holda baxt-saodat masalasining qiyosiy tahlili ochib berildi.

Ibn Sinoning, ayniqsa insonparvarlik konsepsiyasi o‘ta dolzarb bo‘lib, uning asosiy mazmuni ruhiy va jismoniy sog‘liq haqida qayg‘urishga qaratilgan.

“O‘tmishga ehtirom bilan qarash, Engels ta’rifi bilan aytganda, chinakam ma’rifatparvarlik belgisidir”. Sharq meditsinasi IX – XI asrlarda o‘z taraqqiyotining yuqori bosqichiga ko‘tarilgan bir paytda Abu Ali ibn Sino tom ma’noda universal zakovati bilan ilm – fan rivojiga ulkan hissa qo‘shdi desak yanglishmagan bo‘lamiz. Olim o‘z davrida turli sohalarda erishgan ilmiy yutuqlarni falsafiy umumlashtirish, ularni izchil bayon etish va tartibga solish bilan birga, fanning turli masalalarida ajoyib yutuqlarni qo‘lga kirita oldi. Faylasuf o‘z davri uchun ilg‘or g‘oyalarni olg‘a surdi. Mutafakkirning serqirra ijodi, hayoti va ilmiy faoliyati keng o‘rganilgan, dunyoning turli tillarida qator asar va maqolalar nashr etilgan.

Abu Ali ibn Sinoning “Al-Ishorat va at-Tanbihot” asaridagi ilohiyotga doir qarashlari xususida:

Ibn Sino yashagan davrda islom dinining aqidalariga binoan tanosuh ta’limoti tanqid qilinib, tan olinmas edi. Islom dinida xuddi xristian dinidagidek, jonning tanadan tanaga o‘tish ta’limoti inkor etilib, jon tanaga faqat bir marta kiradi, deb hisoblangan. Ibn Sino “Nurlanish” (As’haviya) asarida qayta tirilish va jonni tanadan tanaga o‘tish masalasini ko‘taradi. Bu masalani tahlil qilish uchun Ibn Sino ma’ad tushunchasini kiritadi. Ibn Sino ma’ad tushunchasini quyidagicha ta’riflaydi: “Ma’ad – bu narsalar va holatlarning dastlabki joyi bo‘lib, narsalar va holatlar bu joydan ajralib keyin unga yana qaytib keladi” – deydi.

Ibn Sino ma’ad tushunchasining xilma – xil ta’riflarini ko‘rib chiqadi. Bu masala bo‘yicha O‘rta asr mualliflari o‘rtasida qarama – qarshi fikrlar paydo bo‘ladi. Bir qism mualliflarning fikricha, ma’ad makoniga faqat tana qaytar ekan, boshqa bir qism mualliflar fikriga binoan, ma’adga ham tana, ham jon qaytadi.

“Nurlanish” asarida Ibn Sino tanosuh ta’limotining asoslarini tahlil qilib, ularga mantiqiy yondashadi. Ibn Sinoning fikricha, jon mohiyati bilan bog‘liq bo‘lmaydi va jon tanadan tashqarida ham mavjud bo‘lishi mumkin. Demak, jon tana paydo bo‘lishidan ham oldin mavjud bo‘lgan 4 deb hisoblaydi. Ibn Sino deyarli barcha asarlarida jon, ruh, mumkin bo‘lgan vujud kabi masalalarga doir asarlar yozgan.

Jumladan, “Hayy ibn Yaqzon”, “Qush” risolasi, “ash – Shifo” ning “Ilohiyot” qismi, “Nurlanish” kabilardir.

Ibn Sino o‘zining “Ash – Shifo” asarining “Ilohiyot” (Maxluqotlar va yaratish to‘g‘risida. Beshinchi sharh) qismida keltirishicha: “Insonlar tasavvurida maxluqot, ya’ni yaratilgan narsalar yaratuvchi deb atalmish narsa bilan bog‘liqligi muhim ahamiyatga ega, chunki yaratuvchi maxluqotlarni yaratadi. Yaratuvchi yaratadi, bunyod etadi, ishlab chiqaradi, maxluqot (yaratilgan) esa yaratiladi, bunyod etiladi, ishlab chiqariladi. Bundan kelib chiqadiki, avval mavjud bo‘lmagan narsa mavjud bo‘lgan narsa tufayli shakllanadi. Ular aytadilar:

Maxluqot yaratilganidan so‘ng, yaratuvchisiga ehtiyoji qolmaydi, hatto yaratuvchi mahv etilsa ham maxluqot yashashda davom etadi, xuddi quruvchi yo‘qolsa ham bino saqlanib qolgandek. Aksariyat kishilar quyidagilarni ta’kidlaydilar:

Agar Yaratuvchi Zot yo‘qolib qolgan taqdirda ham dunyoning mavjudligiga zarar yetmaydi. Dunyo faqat shakllanish jarayonida, ya’ni y’oqlik borliqqa, reallikka aylanayotganligida Yaratuvchi Zotga ehtiyoj sezadi. Dunyo qachon Yaratuvchi Zotga ehtiyoj sezish uchun shakllanadi va yo‘qlikdan borliqqa, reallikka aylanadi?

Ibn Sino esa quyidagilarni bayon etadi:

“Ular aytadilar: deydi, o‘zining “Ishorat va Tanbihot” asarida – “Agar dunyo mavjudligi uchun yaratilgan zotga ehtiyoj sezsa, har bir mavjudot shu jumladan yaratuvchi zot ham boshqa bir yaratuvchiga ehtiyoj sezadi va bu hol cheksiz davom etadi. Biz ushbu muammoning mohiyatini tushuntiramiz va qanday xulosaga kelishni ko‘rsatamiz.

Nasihat. Biz “yaratdi”, “yasadi, qildi”, “bunyod etdi” kabi atamalarni sodda tarkibiy qismgacha tahlil qilishimiz kerak, bizning maqsadlarimizga mos kelmaganidan foydalanmasligimiz kerak. Agar biror bir narsa avval mavjud bo‘lmagan bo‘lsa, va boshqa bir narsa tufayli shakllangan bo‘lsa, biz uni yaratilgan ya’ni mahluqot deb ataymiz, uning boshqa yaratilganlar bilan tengligi yoki umumiyligi, boshqa alohida xususiyatga ega ekanligi biz uchun ahamiyatga ega emas.

Mavjud bo‘lmagan narsa o‘zi kelib chiqqan narsa tufayli xohish-istak yoki tabiat yoki tabiiy ko‘payish, yoki umuman bulardan boshqa bir vosita yordamida shakllanadi. Lekin hozir biz bunga to‘xtalmaymiz. Balki bular yaratilgan narsalar uchun ortiqchalik qilar. Yaratilganning teskari tushunchasi va uning mavjudligiga

sabab bo‘lgan narsani yoki birlikni yaratuvchi deb ataymiz. Bu muvozanatni isboti sifatida quyidagini keltirish mumkin. U (yaratuvchi) narsani biror bir vosita, harakat, xoxishistak yoki tabiat yordamida yaratgan. Ushbu to‘ldirishlarning keltirilishi harakat borlig‘iga zid kelmaydi yoki ushbu tushuncha (tarkibi) takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ziddiyatga keladigan bo‘lsak yaratmoq tushunchasi tabiatda bo‘lgan tushunchalarni istisno qiladi. Kimdir tabiatan yaratdi (tabiat vositasida yaratdi) deyish mumkin va bu holat oddiygina yaratdi lafzi bilan ham ifodalanishi mumkin. Yaratmoq tushunchasining tarkibida xohish-istak tushunchasi mavjud. Kimdir aytishi mumkin (xohish-istagiga ko‘ra yaratdi) ushbu holat “inson hayvondir” lafziga muvofiq kelishi mumkin.

“Nomavjudlikdan so‘ng shakllangan borliqdan avval hech narsa mavjud bo‘lmagan zamon bo‘lib o‘tgan. Lekin u o‘tib ketayotgan va ayni paytda keladigan zamondagi jismlarning bir vaqtda mavjud bo‘lishini ifodalovchi ikkilik birligining o‘tib ketganligi bilan muvofiq kelmaydi”, deya ta’kidlaydi Ibn Sino va “aksincha u “avval” ning “so‘ng, keyin” bilan bir vaqtda mavjud bo‘lmasligi va o‘tib ketishida mujassamdir. Ya’ni navbatdagi jism keyin shakllansa, undan avval o‘tgan birlik nihoyalanadi. Bu o‘tish noborliqning o‘zi emas, noborliq “so‘ng, keyin” xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin. Shuningdek, o‘tish (vaqtga nisbatan) yaratuvchi zotning mohiyatida ham yo‘q. Chunki yaratuvchining mohiyati “avval”, “endi” va “so‘ng, keyin” ham mavjud bo‘lishi mumkin. Noborliq to‘xtovsiz davom etadigan va yangilanib turadigan xususiyatga ega. Ma’lumki, ushbu davomiylik bo‘linmas mohiyatlardan shakllanadigan harakatlar soniga muvofiq keladi”.

Ibn Sino yuqoridagi fikrlariga shu asarida “Nasihat” va “Ko‘satma”larni berishi bilan ularni to‘ldirib borgan.

“Holatning o‘zgarishisiz yangilanish mumkin emas. Holatini o‘zgartirish kuchiga ega bo‘lgan narsalargina holatni o‘zgartirish mumkin. Men substraktni nazarda tutyapman. Ushbu aloqa harakat va harakat qiluvchiga ya’ni o‘zgarish va o‘zgaruvchiga, xususan, doimiy mavjud bo‘lgan birlikka bog‘liq bo‘ladi. Bu holat bir doira tarafida muntazam aylanib turish holatidir. Bu davomiylik miqdorga ega, aks holda “avval” yoki uzoq bo‘lardi yoki yaqin bo‘lardi. Bu ikkalasi o‘zgarishni aniqlab beruvchi miqdor hisoblanadi. Va bu harakat miqdori hisoblangan vaqtning o‘zidir. Ushbu harakat miqdori masofani emas, sabab-oqibatni o‘zida aks ettiradi.

Bir narsadan hech qanday qurol moddiyat va vaqt vositasisiz boshqa bir unga bog‘liq jismning mavjudligi kelib chiqsa, buni yaratish (ilohiyot) deb ataymiz. Muvaqqat noborliqdan avval o‘tgan narsa vositachiga ehtiyoj sezadi. Yaratish darajasi moddiylikdan va ma’lum vaqtda shakllanish darajalaridan yuqori turadi, deb e’tirof etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – T.: O‘zbekiston, 2016.
2. Abu Ali Ibn Sino. “Al-ishorat va at-tanbihot” (Nasriddin at-Tusiy sharhi) Qohira 1365. – B 338
3. Диноршоев М. Абу Али ивн Сина. Избранные произведения: – Душанбе, Ирфон, 1980
4. Jurayev, S.S. (2021). Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida borliq masalasi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 12-14.
5. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida axloq masalasi va uning bugungi kundagi ahamiyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 11-14.

References:

1. Mirziyoyev Sh.M. "We will build a free and prosperous, democratic country of Uzbekistan together. - T.: Uzbekistan, 2016.
2. Abu Ali Ibn Sina. "Al-isharat wa al-tanbihat" (commentary of Nasriddin al-Tusi) Cairo 1365. - B 338
3. Dinorshoev M. Abu Ali ibn Sina. Izbrannye proizvedeniya: – Dushanbe, Irfon, 1980
4. Jurayev, S.S. (2021). The question of existence in the philosophical views of Abu Ali Ibn Sina. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 12-14.
5. The issue of morality in the philosophical views of Abu Ali Ibn Sina and its importance today. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 11-14.

ECONOMIC RELATIONS OF THE LOWER VOLGA REGION AND EASTERN EUROPE WITH KHOREZM IN THE VIII-IX CENTURIES

Раҳимова Шаҳноза
Урганч Давлат университети, Тарих йўналиши магистранти
https://doi.org/10.5281/zenodo.7586017

Abstract: The economic relations of Khorezm with the regions of the Lower Volga region and Eastern Europe is one of the most poorly studied and topical issues. This article describes the foreign economic relations of Khorezm with the Lower Volga and Eastern Europe in the VIII-IX centuries through trade routes, trade routes and exported or imported products.

Key words: Ibn Fadlan, Ibn Rusta, Ibn Haukal, Istakhri, Makdisi, Itil, Khazaran, Volga Bulgaria, Urgench-Gurganj, Bulgar, Bilyar, Suvar, sable, fox, beaver fur.

ҚУЙИ ВОЛГА ВА ШАРҚИЙ ЕВРОПА ҲУДУДЛАРИНИНГ VIII – IX АСРЛАРДА ХОРАЗМ БИЛАН ИҚТИСОДИЙ АЛОҚАЛАРИ

Мақоланинг қисқача мазмуни: Хоразмнинг Қуйи Волга ва Шарқий Европа ҳудудлари билан иқтисодий алоқалари масаласи жуда кам ўрганилган ҳамда долзарб мавзулардан бири ҳисобланади. Мазкур мақолада VIII – IX асрларда Хоразмнинг Қуйи Волга ва Шарқий Европа ҳудудлари билан савдо йўллари орқали олиб борилган ташқи иқтисодий алоқалари, савдо йўллари йўналишлари ва олиб чиқилган ёки олиб келинган маҳсулотлар ҳақида маълумотлар ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Ибн Фадлан, Ибн Руста, Ибн Хавқал, Истахрий, Мақдисий, Итил, Хазорон, Волга Булғорияси, Урганч – Гурганж, Булғор, Биляр, Сувар, соболь, тулки, қундуз мўйнаси.

Хоразмнинг жуда қадимданоқ Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқ мамлакатларини Волгабўйи ва Шарқий Европа мамлакатлари билан боғловчи марказ эканлигини ёзма манбалар маълумотлари ва археологик тадқиқотлар натижалари тўла-тўкис тасдиқлайди. Бу алоқаларнинг тарихи Урал, Уралорти, Волгабўйи ва Хоразмнинг неолит, бронза ва илк темир даври археологик маданиятлари ривожига бориб тақалади. Айниқса милоддан аввалги 1 минг йилликда Евроосиё ҳудудида скиф-сармат доирасидаги эроний тилли этник маданиятлар шаклланиши, Марказий Осиёда эса илк давлат бирлашмаларининг вужудга келиши билан кўп томонлама алоқалар янада кучаяди. Шу билан бирга, 1937-1990 йиллар мобайнида ва мустақилликдан кейин олиб борилган

археологик тадқиқотлар натижасида, Хоразмнинг Волгабўйи, Шарқий Европа ва Сибирь халқлари билан олиб борган савдо алоқалари тўғрисида жуда катта миқдордаги далиллар, маълумотлар тўпланди. Бу ўз навбатида, савдо алоқаларининг баъзи йўналишларини ва умумий ҳолатдаги хусусиятларини тўлиқ аниқлаб олиш имконини беради.

V-VIII асрлар давомида инқирозий ҳолатни бошидан кечирган Хоразм, IX асрга келиб, яна иқтисодий тараққиёт босқичига қадам қўйди.

Савдо шаҳарларининг ўсиши мамлакат умумий иқтисодий тараққиётининг муҳим томонларидан бири бўлиб, янгича асосда юксала бошлаган Хоразм цивилизациясининг атрофдаги даштлар ва узоқроқдаги мамлакатлар билан савдо алоқалари мустаҳкамланаётганидан ва янада кенгаяётганлигидан далолат беради.

X асрга келиб эса Хоразмнинг иқтисодий жиҳатдан ниҳоятда фаол бўлганлиги араб манбаларида ёркин тасвирланган. Хоразмлик савдогарлар, худди қадимги замонлардагидек, биринчидан, ҳозирги Қозоғистон ўрнидаги даштлар, иккинчидан, Волгабўйи-Ҳазория ва Булғор билан, учинчидан, Шарқий Европанинг кенг славянлар олами билан савдо алоқаларида бўлдилар.

Истахрий X асрдаёқ савдо алоқаларининг, айниқса Шарқий Европа билан бўладиган алоқаларининг кенгайганлиги тўғрисида шундай деган: “Қўшни турк қуллари билан бир қаторда, славян ва хазор қулларининг катта қисми, дашт тулкиси, соболь, тулки, қундуз мўйнасининг катта қисми ҳам уларнинг (хоразмликларнинг) қўлига тушади”[2.180].

IX-X асрларда Хоразмнинг Шимолий тармоқ орқали олиб борган карвон савдосида Волга дарёсининг ўрта ва юқори оқимларида жойлашган Хазарлар ва Булғорлар билан бўлган мол айирбошлаши ниҳоятда катта аҳамиятга эга эди.

Айниқса, VIII асрда вужудга келиб Шимолий Кавказ, Волга ва Каспий бўйи ҳудудларини ўз ичига олган Хазар ҳоқонлиги билан савдо муносабатлари шу даражада ривожланган эдики, бу ҳол ҳатто иккала давлатнинг сиёсий ҳаётига ҳам кучли таъсир кўрсатган.

Бу алоқаларни ҳатто VIII асрнинг 60-70 йилларида Хазар ҳоқонлигида диний ниқоб остида кечган йирик сиёсий жараён ҳам тўхтата олмаган. Хоразм мусулмонлашиб бўлганидан кейин ҳам, савдо муносабатлари давом қилдирилиб, аввалгига қараганда янада ривожланган.

Хазар давлатининг пойтахти Итиль шаҳри шу даврда Шарқ ва Ғарбдан келган савдо йўллари туташган ерда жойлашганлигидан, ўша даврда дунёнинг йирик ва бой шаҳарларидан бирига айланган эди. Ибн Ҳавқалнинг маълумотига кўра, унинг узунлиги ва кенглиги 1-фарсахга (6-8) тенг бўлган [3.231]. У икки қисмдан иборат бўлиб, ғарбий қисми Итиль, Шарқий қисми эса Хазарон деб аталган савдо маркази ҳисобланган. Хазарон аҳолисининг кўпчилигини

хоразмликлар ташкил қилган. Улар орасида савдогарлар, ҳунармандлар ва бошқа табақа вакиллари бўлган.

Хоразмликларнинг Хазар ҳоқонлигидаги таъсири шу даражада кучли бўлганки, араб тарихчиси Масъудийнинг ёзишича, ҳоқон қўшинларининг асосини хоразмликлар ташкил қилган. Ибн Ҳавқалнинг маълумотига кўра, хоразмликлар қўшини 12 минг кишидан иборат бўлган. Бундан ташқари, Ибн Ҳавқал хоразмликлар Хазар ҳоқонлигида ҳукумат ишларига аралашиш ҳуқуқига, ўз вазирига эга бўлиш ҳуқуқига эга бўлганларини ёзган эди [3.231].

Иккинчи томондан, Хоразмда, Урганчда ҳам Хазар ҳоқонлигидан кўчиб келганлар – хазар, алан ва славянлардан иборат аҳоли манзилгоҳлари мавжуд эди. Бу манзилгоҳлар Беруний даврида, ҳатто мўғуллар босқинигача ҳам мавжуд бўлиб, у ҳақда итальян сайёҳи Плано Карпини эслатиб ўтган эди [5.91].

Хоразм – Хазар алоқалари, айниқса, X аср охирларида, ҳоқонликнинг ўғузлар ва Русь билан олиб борган кескин курашлари даврида жуда кучайиб, Хазар ҳоқонлиги билан савдодан жуда манфаатдор бўлган Хоразм, уни ҳар томонлама қўллаб қувватлаб турган.

965 йилда рус князи Святославнинг Белая Вежа (Саркел) шаҳри яқинида Хазарларнинг асосий қўшинини тор-мор этиб, бу давлатни тугатган даврда ҳам, Хоразм Хазар ҳоқонлигининг, эндиликда “меросхўри” сифатида иш юритиб, ўз курашини тўхтатмаган ва ҳеч бўлмаганда, Қуйи Волганинг энг муҳим савдо марказларини қўлга киритишга интилган. Урганч амирлари, ҳатто баъзида бунга муваффақ ҳам бўлганларки, Мақдисий бу ҳақда баъзан Хазариянинг шаҳарларини Журжония ҳокими эгаллаб олганлигини таъкидлайди [1.209,прим 2].

Хуллас, Хазар ҳоқонлиги ва унинг Итиль, Саркел (Белая Вежа) каби энг муҳим савдо марказлари билан бўлган савдо алоқалари жуда катта аҳамиятга эга бўлиб, Хоразм иқтисодий тараққиётининг асосини ташкил қилган. Кўпгина манбаларда эслатилган, Хоразмнинг бу йўналишда олиб борган ниҳоятда фаол сиёсати замирида шубҳасиз ўша манфаатдорлик ётади. Волгабўйи ва Шарқий Европа билан Хоразм савдосида булғорлар ҳам катта ўрин тутган. Мақдисийнинг Мовароуннаҳрнинг турли вилоятларидан чиқарилган моллар рўйхатида булғорлардан Хоразмга келтирилган молларни тўлиқ кўрсатиб ўтилган. “Хоразмдан – соболь, кулранг олмахон, оқсичқон, дашт тулкиси, сувсар, тулки, қундуз, бўялган қуён, эчки, мум, камон ўқи, оқ терак пўстлоғи, учлик қалпоқлар, балиқ елими ва балиқ тиши чиқарилади; қундуз териси, канакунжут мойи, анбар, кимухт (ошланган от териси), асал, ўрмон ёнғоғи, лочинлар, қилич, совутлар, қайин (халанж) дарахтининг илдизи, славян қуллари, қўй ва сигирлар – буларнинг ҳаммаси булғорлардан келади” [1.202]. X аср охирида булғорлардан келтирилган нарсаларнинг кўплиги ва хилма-

хиллиги кишини ҳайратда қолдиради. Бу ҳол хоразмликларнинг иқтисодий жиҳатдан фаоллигининг бу томони ҳам тез суръатлар билан ўсганлигидан далолат беради. Бундан ташқари, булғорлар сиёсий тарихини ўрганганимизда, бунинг шоҳиди бўламиз. Албатта, Хоразм, худди Хазор ҳоқонлиги билан бўлганлигидек, Волгабўйларидаги сиёсий вазиятнинг ўзгаришига бефарқ қарай олмаган.

Иқтисодий аҳволи кўп жиҳатдан Волгабўйи билан, айниқса, булғорлар билан бўладиган савдо алоқаларига боғлиқ бўлган Урганч амирлари ислом динини қабул қилганидан кейин Хоразм сиёсати измига тушиб қолган Булғориянинг тақдирига ҳам нисбатан беэътибор бўлолмасдилар.

Бу борада ҳам Хоразм фаол сиёсат юргизиб, Булғорияга 985 йилда ҳужум қилган Киев князи Владимирнинг юришига ҳар хил йўл билан тўсқинлик қилган ва юришнинг охир-оқибат муваффақиятсиз чиқишига сабабкор бўлган. Ибн Фадлоннинг бир жойда кўрсатишича, фақат Итилдагина эмас, балки Булғорда ҳам хоразмликлардан иборат каттагина жамоа бўлган. Ибн Ҳавқал хоразмликларнинг Булғор давлати чегараларига ҳужум қилиб, у ердан турли ўлжалар ва қуллар олиб қайтганликларини ёзган [7.258].

Волга Булғориясида ҳам жуда кўпгина йирик савдо марказлари мавжуд бўлган. Булар: давлат пойтахти – Булғор, Биляр, Сувар, Ошель, Жукотин, Тубулгатау, Керменчук, Казань ва Кашан. Бу савдо марказлари ичида Волгабўйи ва Шарқий Европанинг Марказий Осиё билан бўлган савдосида, айниқса, Булғорнинг аҳамияти жуда катта бўлган. Европанинг шимоли-шарқида у мўйна, мум, асал каби моллар, ҳамда қуллар тўпланадиган йирик марказ саналган. Булғор бозорларида, Марказий Осиёнинг турли ҳудудларидан келган мусулмон савдогарлари олиб келган, катта миқдордаги кумуш дирҳамлар муомалада бўлган.

Бундан кўриниб турибдики, IX-X асрлардан бошлаб, Волгабўйи ва Шарқий Европа билан бўлган савдода, товар айирбошлаш, асосан, пул билан амалга оширилган. X аср араб географи Ибн Рустанинг маълумотига кўра, оқ юмалоқ дирҳамлар уларга мусулмон мамлакатларидан, уларнинг товарларига алмаштириш йўли билан келтирилади [3.231]. Хуллас, Хазар давлати ва Булғориядан Хоразмга асосан, шу даврда бутун Шарқда ниҳоятда қадрланган турли хил мўйналар, катта миқдорда терилар, тери ошлашда ишлатиладиган пўстлоқ, қорамол, асал ва ниҳоят, славян ва турк қуллари келтирилган. Булғор ва Итиль ҳақиқий қул бозорлари ҳисобланган. Бу ерда славян ва турк қулларини сотиб олиш ёки алмаштириш мумкин эди. Берунийнинг сўзларига қараганда, булғорлар Хоразмга Шимолий денгиздан морж тишлари ҳам келтирганлар [4.45].

Хоразмдан Хазар давлати ва Волга Булғориясига эса асосан қандай моллар чиқарилган? Ибн Ҳавқалнинг сўзларига қараганда, уларнинг (хазарларнинг) овқати кўпроқ гуруч ва балиқдан иборат... бўлган [3.231]. Волгабўйида у даврларда шоли етиштирилмаганини ҳисобга оладиган бўлсак, шоли асосан, Хоразм ва Мовароуннаҳрдан келтирилган. Хоразмнинг Оролбўйи дельтасидаги Холижон деган жойдан четга жуда кўп миқдорда балиқ чиқарилганини ҳам юқорида айтиб ўтган эди (Волга дарёси ва Каспий денгизида ҳам овланган, албатта). Итил ва Булғорга кўп миқдорда қуруқ мевалар (ёнғоқ, майиз, ўрик ва ҳ.к.) ҳам чиқарилган. Канакунжут мойи, ширинликлар, бўза, мушк анбар, пахта, ип, шойи матолар, мовут, кимхоб, гилам ва чойшаблар, қулф, камон, қайиқ каби моллар ҳам бу савдода асосий ўрин эгаллаган. Бундан ташқари Хоразм Волгабўйи ва Шарқий Европа мамлакатлари билан Ҳиндистон, Хитой, Кичик Осиё Ироқ ва бошқа мамлакатлар ўртасидаги савдода транзит савдо маркази ролини ўйнагани учун, юқорида таъкидланган мамлакатлардан келтирилган моллар ҳам, Хазар ва Волга Булғориясига Хоразм орқали чиқарилган. Аммо, энг талабгор товар, кумуш дирҳамлар бўлиб, у ҳақда деярли барча манбаларда эслатилади.

Хазар давлати қулагач (X аср охирларида), Хоразм, энди унинг ҳудудларида кўчиб юрган печенег, қипчоқ қабилалари ҳамда Русь шаҳарлари билан (бу ҳақда қуйироқда батафсил тўхталиб ўтилади) савдо-сотиқ алоқаларини йўлга қўйган бўлса, Волга Булғорияси билан то XV асргача савдо алоқалари олиб борган.

Хазар ва Волга Булғорияси билан бўлган савдода Гурганж энг муҳим роль ўйнаган. Бу шаҳар Ироқ ва Эрондан Шарқий Европага борувчи энг яқин йўл устида жойлашган эди.

Шарқий Европа ҳамда Волгабўйи билан бўлган савдонинг Гурганж учун қандай аҳамиятга эга бўлганини, унинг Хазар ва Булғория давлатлари сиёсатига фаол аралашганидан кўришимиз мумкин. Гурганж шаҳридан ташқари, Кат, Шемахақалъа, Пулжой (Гит), Буғрохон (Мадминия), Миздаҳқон, Кардор каби шаҳарлар ҳам Волгабўйи ва Шарқий Европа билан бўладиган савдода катта роль ўйнаганлар. Буни уларнинг географик жойлашган ўрнига кўра ҳам, манбаларда эслатилиши бўйича ҳам, археологик маълумотлар орқали ҳам кўриш ва бу ҳақда хулоса чиқариш мумкин.

Хоразмнинг илк ўрта асрларда Қуйи Волга ва Шарқий Европа ҳудудлари билан қизғин савдо алоқаларида бўлганлигини ҳатто лингвистик тадқиқотлар ҳам тасдиқлайдики, бу айниқса, Хоразмдан шимолда жойлашган ҳудудларда яшаган халқлар тилларида кучлироқ намоён бўлади. Зеро, Хоразмнинг қадимданоқ ўзидан жанубдаги, жануби – ғарбдаги ёки шарқдаги ҳудудлар билан эмас, балки, шимолий ҳудудлар билан, аниқроғи, Волгабўйи, Жанубий

Урал, Кама дарёси бўйлари (ҳозирги Россия Федерациясининг Бошқирдистон, Татаристон, Удмуртия республикалари, Пермь, Коми – Пермь ўлкаларини ўз ичига олувчи ҳудудлар) минтақаси элат – қабилалари билан алоқаси, аниқроғи савдо алоқалари нисбатан яхши ривожланган эди. Шу жиҳатдан олганда, бу халқлар тилларига хоразмий тилининг таъсири табиий албатта [6.692-697]. Аммо, бу алоҳида мавзу бўлиб, мазкур мақолада Хоразмнинг Қуйи Волга ва Шарқий Европа ҳудудлари билан савдо алоқаларининг ривожланганлигини кўрсатувчи далил сифатида келтирилиб ўтилди холос.

Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар:

1. Извлечения из “Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим” ал-Макдиси. Перевод С. Волина. //МИТТ, т.1. -М. -Л., 1939. – С. 202-203, 206-209.
2. Извлечения из “Китаб месалик ал-мемалик” ал-Истахри. Перевод С. Волина. // Материалы по истории туркмен и Туркмении (МИТТ). Т.1. – М.–Л., Изд-Во АН СССР, 1939. – С.178-180.
3. История народов Узбекистана. Т.I. – Т.: Изд-Во АН УзССР, 1950. – 472 с.
4. Мамбетуллаев М.М. О торговых связях города Хорезма // Города и каравансараи на трассах Великого Шелкового пути //Тезисы докладов Международного семинара ЮНЕСКО. – Ургенч, 1991. – 98 с.
5. Очерки истории Каракалпакской АССР. т.1. – Т.: “Наука”, 1964. – 432 с.
6. Понарядов В. В. Хорезмийские заимствования в пермских языках// Индоевропейское языкознание и классическая филология – XXI // Материалы чтений, посвященных памяти профессора Иосифа Моисеевича Тронского. – СПб.: Издательство Институт лингвистических исследований РАН, 2017. С. 692-697.
7. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Т.: “Фан”, 1964. – 440 б.

ONA TILI DARSLARIDA SINOV-TEST TOPSHIRIQI ORQALI NUTQIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA

Kulmamatova Maksuda Ibrayimovna
Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 81-maktabning
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7586047

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili darslarida nutqiy ko‘nikmalarni o‘stirishda test-sinovlari, topshiriqlar va ta'limiy o‘yinlarning samarasi haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

Kalit so‘zlar: nutq, tafakkur, ravon, talaffuz, malaka, yozma nutq, og‘zaki nutq, matn, topshiriq.

Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o‘zgalar fikrini tinglashi, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon eta olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo‘la oladigan ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda ona tili ta'limiga o‘quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi. Nutq-kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar, o‘z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi.

Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Nutq o‘stirish nima? Agar o‘quvchi va uning tilidan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tomonlama faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi. Agar o‘qituvchi ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda, o‘quvchilarning tilning talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishi va bog‘lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo‘llash tushuniladi. Nutq o‘stirishda uch yo‘nalish aniq ajratiladi:

- ❖ so‘z ustida ishlash;
- ❖ so‘z birikmasi va gap ustida ishlash;
- ❖ bog‘lanishli nutq ustida ishlash.

Ko‘rsatilgan uch yo‘nalish parallel olib boriladi: lug‘at ishi gap uchun material beradi; so‘z, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash bog‘lanishli nutqqa tayyorlaydi. O‘z navbatida bog‘lanishli nutq hikoya va insho lug‘atini boyitish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Yozma nutqni rivojlantirish og‘zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u o‘quvchilardan grammatik va mazmun jihatidan to‘g‘ri jumla qurishni, har bir so‘zni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashni,fikrni ixcham, izchil,

ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar sosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog‘liq. So‘zni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o‘quvchidan katta mas'uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi.

Yozma nutqning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og‘zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O‘quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi. Ona tili darslarida o‘qituvchi shuni ham unutmaslik lozimki, ko‘pincha o‘quvchilar yozma ishlarda imlo va tinish belgilariga katta e'tibor berib, matnning mazmuni ustida yetarli ish olib bormaydilar. Matnlarda ko‘pincha mavzuga aloqasi bo‘lmagan fikrlar ustunlik qilib, asosiy fikr e'tibordan chetda qoladi. Shuning uchun ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilar diqqati faqat imlo va tinish belgilariga emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillarga ega bo‘lishi, materialning to‘g‘ri joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda to‘g‘ri bayon qilinishiga ham qaratilishi lozim.

Ona tili mashg‘ulotlarida shunday holatni vujudga keltirish lozimki, o‘quvchi yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni o‘z nutqini takomillashtirib borishga ilhomlantiradi. O‘quvchilar mustaqil ravishda ijodiy fikrlasalar fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalay olsalar, demak, ona tili mashg‘ulotlari samarali o‘tgan bo‘ladi. Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilar nutqining rivojlanishini qiyinlashtirayotgan omillardan yana biri o‘quvchilarning uyda, ko‘chada yoki sinfdan tashqari paytlarda tojik, turkman, qirg‘iz yoki boshqa (sheva) tilda so‘zlashib, maktabda o‘zbek tilida o‘qishidir. Etnografik ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, jumhuriyatimiz hududida juda ko‘p tojiklar, turkmanlar, qirg‘izlar, qozoqlar yashaydi. Ularning ko‘pchiligi uyda tojik, qirg‘iz va hokazo tilda so‘zlashib, maktabda o‘zbek tilida o‘qishdi. Bu hol, shubhasiz, o‘quvchilarda tilning boy imkoniyatlaridan foydalangan holda o‘z fikrini erkin bayon qilish imkoniyatini chegaralaydi.

Yuqorida sanab o‘tilgan salbiy omillardan tashqari ona tilimizdan sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlarning mundarija va mazmun jihatdan bo‘shligi, yagona nutq rejimiga hamisha ham rioya qilmaslik, ota-onalarning bola nutqi ustida yetarli ishlamasligi kabi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga salbiy ta'sir qiladi.

Tilni amalda o‘zlashtirish ona tilining barcha tovush birliklarini (tovush – bo‘g‘in – ibora - matn) tinglab ajratib olish va ularni to‘g‘ri talaffuz qilishni nazarda tutadi, shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolada tovushni talaffuz qilishni

shakllantirish borasidagi ishlar muntazam ravishda olib borilishi lozim. Ohang, tembr, pauza, urg‘ulashning turli xillari tovush ifodaliligining muhim vositalari hisoblanadi. O‘quvchiga intonatsiyadan to‘g‘ri foydalanishni, bildirilayotgan fikrning nafaqat mazmuniy ahamiyatini, balki emotsional xususiyatlarini ham bergan holda, uning intonatsion tasvirini qurishni o‘rgatish juda muhim. SHu bilan parallel ravishda, vaziyatdan kelib chiqqan holda, talaffuz tempi, past-balandligini to‘g‘ri qo‘llash, tovushlar, so‘zlar, iboralar, gaplarni aniq talaffuz qilish (diksiya) qobiliyatini shakllantirish ishlari ham olib borilishi lozim.

O‘quvchilarda nutqning intonatsion jihatiga diqqat-e’tibor qaratishni tarbiyalar ekan, katta yoshli odam (pedagog) uning nutqni tinglash qobiliyatini, tembr (har bir tovushning o‘ziga xos bo‘lgan sifati) va vaznni his qilish, tovush kuchini sezishni rivojlantiradi, bu esa kelgusida musiqa tinglash qobiliyatini rivojlantirishga ham ta’sir ko‘rsatadi. Nutq intonatsiyasi, tovushning ifodaliligi ustidagi ishlar bolalarning bildirilayotgan fikrga nisbatan, matndan kelib chiqqan holda, ovozini balandlatib yoki pasaytirib, talaffuz qilinayotgan matnga mantiqiy va emotsional urg‘u berish orqali o‘z munosabatini bildirishni o‘rganishlari uchun zarur. Buning uchun pedagog tegishli topshiriqlardan ko‘proq foydalanishi lozim. Aynan ushbu qobiliyatlar o‘quvchiga turlicha intonatsion ifodalashni talab qiluvchi turli xildagi ravon fikrlarni tuzish – hikoya qilish, tasvirlash, mulohaza yuritish uchun zarur bo‘ladi.

Tarbiyachi nutqning tovush jihatini rivojlantirar ekan, bolaga fikrlarning predmet, fikr bildirish mavzusi va tinglovchilardan kelib chiqqan holda kommunikatsiya maqsadlari va shartlariga mos kelishini hisobga olishni o‘rgatishi lozim. Nutqning past-balandligi o‘rinli bo‘lishi, tezligi esa atrofdagi muhitga va fikrning maqsadiga mos kelishi lozim. Yaxshi, to‘g‘ri nutqning muhim ko‘rsatkichi bo‘lib uning ravonligi hisoblanadi. Artikulyasion va intonatsion qobiliyatlarning uzviy bog‘liqligi keng ma’nodagi tinglash va artikulyasion-talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ish jarayonida o‘qituvchi bolalarga so‘zning tovush tarkibini, so‘zdagi urg‘u o‘rnini tinglab, aniqlay olishga, qofiya va vaznni his qilish tuyg‘usini rivojlantirishga, aniq talaffuzni, so‘zlar, iboralar, gaplarning turli intonatsion tavsiflarini bera olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradigan mashqlardan foydalanishi zarur. Bu murakkab nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish fonetik mashqlarni takrorlashni, ularni muntazam ravishda o‘tkazishni talab qiladi. Har bir nutqiy vazifa ustidagi ishlarning ustuvor yo‘nalishlarini ajratar ekanmiz, ularning barchasi o‘zaro bog‘liqlikda va yaqin o‘zaro hamkorlikda ishtirok etishini ta’kidlash lozim. Ravon nutqni o‘stirish va rivojlantirish asosida turli aloqa vositalaridan (so‘zlar, gaplar, matn qismlari o‘rtasida) foydalanish, turli toifadagi matnlar – tasvirlash, bayon qilish, mulohaza yuritish tuzilmasi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish qobiliyatini o‘rgatish yotadi.

Pedagog bolalarga gaplarni parallel ravishda bog‘lashni o‘rgatishi zarur, bunda gaplar bir-biriga ulanmaydi, balki taqqoslanadi yoki hatto qarama-qarshi qo‘yiladi (Kuchli shamol esardi. Quyon iniga yashirinib oldi). O‘quvchilarga ravon matnlar tuzishni o‘rgatishda ularda mavzuni va aytilgan so‘zning asosiy fikrini ochib berish, matnga sarlavha qo‘yish qobiliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Ravon fikrni tashkil etishda intonatsiya katta rol o‘ynaydi, shuning uchun ayrim gaplar intonatsiyasidan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish umuman matnning tarkibiy birligi va mazmunan tugallanganligini qayd etishga yordam beradi. O‘qituvchi bilan o‘quvchining birgalikdagi so‘z ijodkorligi monologik nutqni rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi. O‘qituvchi odam yo‘naltiruvchi va aniqlashtiruvchi savollarni berish, o‘yin vaziyatlarini yaratish orqali o‘quvchi tashabbusini qo‘llab-quvvatlashi darkor. Pedagogning sekingina hikoya mazmunini, rejasini, voqealarning ehtimoliy rivojini, so‘z shaklini aytib qo‘yishi birgalikdagi so‘z ijodkorligida muhim ahamiyatga egadir.

Har xil turdagi matnlar tuzishni o‘qitishni ishlarning suhbat, o‘zining va begonalarning matnini tahlil (baholash) qilish, reja tuzish va u bo‘yicha hikoya qilish, matn sxemasidan (modelidan), turli xil mashqlardan foydalanish kabi shakllarda amalga oshirish tavsiya etiladi. O‘quvchi nutqini rivojlantirish murakkab jarayon bo‘lib, unga monelik qilayotgan omillar ham faqat ta'lim mazmuni yoki o‘qituvchigagina bog‘liq emas. Barcha imkoniyatlar to‘laligicha ishga solinsagina fikrni og‘zaki va yozma ravishda to‘g‘ri, ravon ifodalashga o‘rgatish jarayoni oson kechadi. O‘quvchi nutqini rivojlantirishga keng yo‘l ochadi. Bizga ma'lumki, o‘quvchilar bir xillikdan zerikadi. Shuning uchun ularni nutqini o‘stirishda doimo har xil metod va o‘yinlardan, qiziqarli usullardan foydalanish lozim.

Ta’limning shunday muhitini yaratish kerakki,unda o‘quvchi o‘zini shaxs deb sezsin,unga bo‘lgan e’tiborini tuysin.Agar o‘qituvchi dars davomida”muvaffaqiyat muhitini”tashkil etib,o‘quvchida o‘qishda muvaffaqiyat qozonishiga yordam bersa,uning o‘z kuchi va iqtidoriga ishonchini orttirib borsa takomillashgan o‘quv jarayoni ham o‘z-ozidan yuzaga keladi. Oshkoralik,ishtirokchilarning o‘zaro hamkorligi,ular keltirgan dalillarning tengligi,hamkorlikdagi bilimlar banki,o‘zaro baholash va nazorat imkoniyati bilan belgilanadigan ta’limiy muloqot manbai yaratiladi. Demakki, o‘qituvchining o‘zi ham doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi, pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borishi, jahon va milliy pedagogik meros hamda ilm-fan yutuqlaridan ijodiy foydalangan holda ta’lim jarayonini takomillashtirib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbek tilining imlo lug‘ati”, Toshkent-1995-yil, “O‘qituvchi” nashriyoti.

2. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo‘raboyeva. “Ona tili”, 5-sinf darsligi. Toshkent-2012-yil, “Ma’naviyat” nashriyoti.

3. “O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim”. Umumta’lim maktablari o‘qituvchilari uchun o‘quv modullari, 1-modul, Toshkent-2013-yil.

4. Abdullayeva Q. Nutq o‘stirish. - T.:O‘qituvchi, 1980.66-bet

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TANQIDIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TA’LIMNING XUSUSIYATI

Roziqova Nilufar Abdulbokiyevna
Mansurova Dilorom Mamatqobilovna
Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 81-maktabning
boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7586064

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining kreativlik ko‘nikmalarini shakillantirishda raqamli texnologiyalarga asoslangan ta’limning ahamiyati haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, kreativlik, ta’lim tizimi, axborot texnologiyalari.

Hayotimizda raqamli texnologiyalarning shiddat bilan kirib kelishi insoniyatning yashash tarzi, sharoitini butunlay yangicha darajada o‘zgartirib yubormoqda. Ulardan ham kundalik ishlarida ham ishlab chiqarishda foydalanish insoniyatni to‘rtinchi sanoat inqilobiga olib keldi. Raqamli inqilobga asoslangan bu sanoat inqilobi aqlli tizimlar tomonidan boshqariluvchi avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishga butunlay o‘tish deganidir. Bunday sanoat inqilobi sharoitida endi nafaqat raqamli texnologiyalardan foydalanuvchi balki ularni ishlab chiqaruvchi yuqori malakali mutaxassislarni yetishtirish masalasi butun dunyo oldidagi muammolardan biridir. Albatta bunday jarayon bilan to‘qnash kelgan har qanday jamiyat uchun raqamli dunyoni boshqara oladigan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantira oladigan kelajak mutaxassislarini tayyorlash ustuvor masalalardan biridir. Yurtimizda ham raqamli bilimlarga, tafakkurga ega, strategik fikrlay oladigan, zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash ustuvor yo‘nalishlardan biridir. Bu masala ta’lim-tarbiya sohasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Yillar davomida kompyuter bilan ishlash usullari inson fikrlash jarayonlariga, ya’ni tafakkuriga ta’sir etayotganini XX asrning ikkinchi yarmida psixologlar tomonidan aniqlangan. Zamonaviy sharoitlarda, kompyuter texnologiyalari vositachiligida va ular tomonidan o‘zgartirilgan aqliy faoliyat psixologik tadqiqotlarning yangi muhim ob’yekti - jamiyat tafakkurini o‘rganishda sezilarli taraqqiyotni talab qiladi. Tafakkur psixologik jarayon sifatida muammoli vaziyat sharoitida boshlanadi.

Tanqidiy tafakkur bir nechta ma’nolarga ega. Ushbu tushunchalar fikrlashning rivojlanish bosqichlarini, tahlil qilish qobiliyatini, voqelikka munosabatini ifodalaydi. Bu o‘qituvchiga, o‘quvchilarning aqliy faoliyatini rag‘batlantirish uchun tanqidiy

tafakkurni rivojlantirish texnologiyasida foydalanadigan texnikasi va vositalariga bog‘liq. Tanqidiy tafakkur “baholash” va “o‘z-o‘zini baholash”, “tanqidiylik” va “o‘z-o‘zini tanqid qilish”, “isbotlash” va “rad etish”, “tanqidiy tahlil” kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Tanqidiy tafakkur madaniyati amalda qo‘llaniladigan ishonchli dalillarning usullari va usullarini o‘z ichiga oladi. Bularning barchasi shaxsni rivojlantirishga, o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi. Asosiy xatolar o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurga tayyor emasligidir. Sears va Parsons tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda shakllanadigan fazilatlarni aniqladilar, ya’ni rejalashtirishga tayyorlik, egiluvchanlik, qat’iyatlilik, xatolarini tuzatishga tayyorlik, o‘z fikrlash jarayoni va o‘zaro kelishuv yechimlarini izlashdan iborat. Rivojlangan tanqidiy tafakkur qobiliyatlari kerakli natijaga erishishga imkon beradi. Buning uchun har bir bosqichda tanqidiy tafakkurning ma’lum qobiliyatlari rivojlanib boradigan darsni semantik qismlarga ajratish zarurati tug‘iladi. Bu, o‘z navbatida, darsga foydali ta’sir ko‘rsatadi, chunki o‘qituvchi hozirgi paytda qanday ko‘nikmalar va texnikalar bilan shug‘ullanayotganini ko‘radi. Bu ulardan muntazam foydalanishni talab qiladi. Darsda olingan material, agar u darsda tushunilgan va ishlab chiqilgan bo‘lsa, yaxshiroq esda qoladi va o‘quvchilar uchun ham muhimdir.

Fikrlashdagi asosiy mashq nutqdir, nutq esa o‘z navbatida murakkab bilim faoliyatidir. Nutq paytida biz so‘zlarni tanlaymiz, ularni grammatik jihatdan to‘g‘ri talaffuz qilishga harakat qilamiz. Aksincha, tinglovchi sifatida, ma’ruzachi nutqidan tinglovchi tomonidan qabul qilinadigan so‘zlar ajratib olinadi va shu tariqa odam nima deb o‘ylayotganini biladi. Fikrlay oladigan odam qanday qilib savol berishni biladi va bu, o‘z navbatida, gapiruvchiga ham, tinglovchiga ham foydali ta’sir ko‘rsatadi. Palinsar va Braun o‘quvchilarga yetakchi savollar berilganda, ular yangi materiallarni yetakchi savollarsiz oddiy ma’ruzalardan ko‘ra yaxshiroq singdirishini aniqladilar. Suhbat davomida qanday qilib to‘g‘ri savollar berishni o‘rganish, o‘quvchilar tomonidan matnni tushunishni aniqlash kerak. Agar o‘quvchilar o‘zlari savollar berib, ularga o‘zlari javob berishsa, bu materialni o‘zlashtirish va yodlashga foydali ta’sir ko‘rsatadigan bo‘lsa, bu jarayon yanada samarali bo‘ladi. Jon Barelop quyidagi xususiyatlarni tavsiflaydi:

- muammolarni yechishga qodir;
- muammolarni hal qilishda talabchan;
- muammolarni boshqalar bilan hamkorlikda hal qilish;
- boshqalarni eshitishga qodir;
- yangi ma’lumotlarni qabul qilishga tayyor;
- har xil nuqtai nazardan ma’lumotni ko‘rish;
- hodisalar orasidagi aloqalarni ko‘rish;
- haqiqiy nuqtai nazardan farq qiladigan bo‘lsa ham, turli qarashlarni qabul qilish;

- muammolarni hal qilishning bir necha variantlarini ko‘rish;
- mantiqiy xulosalar chiqarish;
- o‘z harakatlari va hissiyotlarini baholay oladi;
- yakuniy natijani qanday ko‘rishni va keyingi maqsadlarni belgilashni biladi;
- olingan ko‘nikma va bilimlarni amalda qo‘llash.

Zamonaviy dunyoda yashash, axborot oqimida harakat qilish va muvaffaqiyatli bo‘lish ijtimoiy tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Ijtimoiy tanqidiy tafakkur - bu insonning jamiyat bilan o‘zaro ta’siri, ijtimoiy voqelik haqidagi qarash va jamiyat g‘oyasini qayta aniqlashga tayyorlikni o‘z ichiga olgan ijtimoiy voqelikning dizayni shuningdek, ijtimoiy-tanqidiy tafakkur - bu ijtimoiy haqiqatni anglash qobiliyati va mavjud vaziyatdan chiqish yo‘lini ko‘rish, muhim hayotiy masalalarda asosli qarorlar qabul qilish. Ijtimoiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga maktabdagi ijtimoiy fanlar darslari yordam beradi. Ular zamonaviy dunyoda talabalarning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday fikrlash bugungi ta’limning tamal toshiga aylanib bormoqda. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning erkin mushohada yuritishlari uchun, avvalambor motivatsiya bosqichining ahamiyati kattadir, unda yangi bilimlar, o‘zi mustaqil tanlagan maqsad uchun intilish anchagina kuchli bo‘ladi. Motivatsiya bosqichida faoliyatning bir nechta bilim beruvchi muhim turlari amalga oshiriladi. Birinchidan, kichik maktab yoshidagi o‘quvchi mazkur mavzu to‘g‘risida bilganlarini tiklashda faol ishtirok etadi. Bu esa uni o‘z bilimlarini tahlil qilishga va tez orada batafsil ko‘rib chiqiladigan mavzu haqida o‘ylashga majbur etadi.

Agar axborot o‘quvchiga oldingi bilimlar bilan bog‘lanmasdan taqdim etilsa, u tez xotiradan yo‘qoladi. Ta’lim jarayoni - yangi bilimlarni avvaldan ma’lum bo‘lgan axborot bilan bog‘lash jarayoni ekan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yangi tasavvurlari ilgarigi bilimlari va tasavvurlari asosida kengayadi. O‘quvchilarga ilgarigi bilim va tasavvurlarini sintez qilishga yordam berish didaktikada muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi axborotni ongli, puxta tushunishlari va yangi ma’lumotga tanqidiy yondashishlari uchun ta’lim jarayonida faol qatnashishlari kerak. O‘quvchi belgilangan maqsad asosida o‘ylab, fikrlarini o‘z so‘zlari bilan ifodalash orqali faollashadi. Bilimlarni namoyish qilish (o‘ziga va sherigiga) og‘zaki yoki yozma nutq yordamida, faol fikrlash orqali sodir bo‘ladi. Shunday qilib, o‘quvchilarga yangi axborotni avval bilganlari bilan samarali bog‘lashga imkoniyat yaratish, ularda tanqidiy fikrlashga o‘rgatishga zamin tayyorlaydi. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishi o‘quvchiga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- o‘quvchilarning fikrlash jarayoni jadallashadi;
- o‘quvchilar o‘z oldilariga aniq maqsadlar qo‘ya boshlaydilar hamda ushbu maqsadga erishish yo‘llarini izlaydilar;

- o‘quvchilar o‘zaro bir-birlari bilan faol muloqotga kirishish ko‘nikmasini egallay boshlaydilar;

- o‘quv-biluv jarayonida o‘quvchilarda faollik ta’minlanadi;

- o‘quvchilarda o‘z fikrlarini dadil bayon qilish ehtiyoji vujudga keladi;

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni “guruh-sinf-guruh” tizimida ishlashga o‘rgatish yaxshi natija beradi, chunki ularning fikrlash jarayoni rivojlanadi. Bunda o‘quvchilar faol o‘quv pozitsiyasini egallashadi. Bularning hammasi shaxs o‘zgarishiga olib keladi, bu esa mustahkam bilimga ega bo‘lishning sharti hisoblanadi. O‘quvchi muayyan ma’noda o‘qituvchi rolida bo‘lishi, o‘qituvchi faoliyatining ayrim qismlarini bajarishi, unda sherikchilik hissiyotini o‘stiradi. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini tarkib toptirish uchun ularda ijodiy fikrlash malakalarini o‘stirish zarur. Nemis olimi M. Mauyermanning ta’kidlashicha: «Tanqidiy fikrlash – bu inson uchun fikrlashning tayanch nuqtasi, g‘oyalar va axborotlar bilan o‘zaro munosabatga kirishishning tabiiy usulidir. U dars va darsdan tashqari jarayonlarda sodir bo‘ladigan faoliyat bo‘lib, o‘quvchiga axborotlarni qat’iy nazorat qilish imkonini beradi». Shunday qilib, o‘quvchi axborotni bo‘rttirib ko‘rsatishi, qayta ko‘rib chiqishi, uni o‘ziga moslashtirishi yoki umuman qabul qilmasligi mumkin. Qachonki o‘quvchilarda «Men bu bilimlardan qanday foydalanaman?», «Bu bilimlarni mening bilganlarim bilan orasidagi mutanosiblik qanday?», «Bu axborot foydalimi?», «Mening bu g‘oyalarga munosabatim qanday?», «Bu axborotlar men uchun zarurmi yoki ahamiyatlimi?», «Bu g‘oyalar ro‘yobga chiqarilganda men va boshqalar uchun oqibati qanday bo‘ladi?» kabi savollarga o‘quvchilar javob topgandagina ularda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari samarali shakllantiriladi.

Shunday qilib, tanqidiy fikrlash faollik bilan bog‘liq jarayon ekanligini inobatga olsak, dars mobaynida o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘ylashga, fikr va ideallari bilan o‘rtoqlashishga jalb qilishi, o‘quv materialini taqdim qilishda motivatsiya bosqichidan foydalanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matchonov S., Bakiyeva, G`ulomova X., Yo`ldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlag`ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. –T., Ishonch hamkor. 2021.

2. Ne’matov H., G`ulomov A., Ziyodova T. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish. (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.) –T.: RTIMM, 1995. –76 b.

3. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo`ldosheva Sh. Ona tili. 3-sinf uchun darslik, – T.: O`qituvchi, 2019. –152 b.

SORAXON XALFA-XORAZM MADANIY HAYOTINING YETUK NAMOYONDASI

Atabek Saparbayev Sharipbayevich
O‘zDXA Urganch filiali katta o‘qituvchisi
Yetmishboy Abdullayev Qurbonnazrovich
O‘zDXA Urganch filiali “Lazgi” bo‘limi
katta ilmiy xodimi, O‘zbekiston xalq baxshisi
To‘xtajon Xudayberganova
O‘zDXA Urganch filiali “Lazgi” bo‘limi kichik ilmiy xodimi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7586071

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm xalq folklor qo‘shiqlarining ajralmas qismi bo‘lgan xalfachilik san’ati tarixi, Xorazm madaniy hayotining yetuk namoyondalaridan biri Soraxon Ollaberganovaning hayot yo‘li, xalfachilik san’atiga qo‘shgan hissasi va bu inson haqidagi O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Rahimovaning bildirgan fikrlari haqida so‘z yuritiladi.
Kalit so‘zlar: folklor, xalfachilik, xalfa, qo‘shiq, raqs, raqqosa, madaniyat.

СОРАХАН ХАЛФА-ЯВЛЯЕТСЯ ПРЕКРАСНЫМ ПРИМЕРОМ КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ ХОРАЗМА

Аннотация: В данной статье история халфикного искусства, составляющего неотъемлемую часть хорезмских народных песен, жизненный путь Сорахан Оллабергановой, одной из зрелых представительниц культурной жизни Хорезма, Речь пойдет о его вкладе в искусство халфалика и отзывах народной артистки Узбекистана Гавхар Рахимовой об этом человеке.
Ключевые слова: фольклор, халфа, песня, танец, танцор, культура.

SORAKHAN KHALFA IS A GREAT EXAMPLE OF THE CULTURAL LIFE OF KHORASM

Abstract: In this article, the history of the art of khalfaliki, which is an integral part of Khorezm folk songs, the life path of Sorakhan Ollaberganova, one of the mature representatives of Khorezm cultural life, his contribution to the art of khalfalik, and about this person, the folk art of Uzbekistan the artist Gavhar Rahimova's opinions are discussed.
Key words: folklore, khalfa, khalfa, song, dance, dancer, culture.



Xorazm xalq folklor qo‘shiqlarining ajralmas qismi bo‘lgan xalfachilik san’ati qadim-qadimdan, ustoz-shogirdlik an’analariga amal qilgan holda, og‘izdan og‘izga o‘tib, sayqal topib kelgan. Xalfachilik san’ati asosan baxshichilik san’atidan ajralib chiqan bir janrdir. Respublikamizning hech bir viloyatida uchramaydigan bu san’at turini buzmasdan kelgusi avlodga bus-butun holda yetkazish bizning asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Xorazm vohasida savodxon, gapga chechan, ayni paytda xonandalik qobiliyatiga ega bo‘lgan zukko ayollarni “xalfa” deb yuritishadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ushbu atamaga quydagicha ta’rif beriladi. “Xalfa” arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, bir-birining ortidan borish, ergashish; o‘rin almashish; Shariat qoidalarini yaxshi biladigan o‘qimishli odam; O‘rta asrlarda hunar o‘rganuvchi shogird; Xorazm vohasida mahalliy og‘zaki ijod namunalarini ijro etuvchi ayol”[3] kabi ma’nolarda qo‘llanadi.

Xorazmda qadimda xalfachilikning ikki xil turi mavjud bo‘lgan, birinchisi maraka-majollarda ishtirok etadigan, ikkinchisi to‘y-marosimlarda ishtirok etadigan xalfalardir. To‘y-marosimlarda xalfalar asosan garmonda, akardionda hamda piolada qo‘shiqlar ijro qilishgan.

Xalfa qo‘shiqlari xalq ruhini, xalqning orzu-armonlarini yorqin aks ettirib, odamlar qalbiga, yuragiga ta’sir qilgan. Xususan ayollar tomonidan ijro etiladigan san’at turi bo‘lgan. Qadimda aynan xalfa qo‘shiqlari mehnatkash ommaning ozodlik va baxt uchun kurashida madadkor bo‘lgan. Xalqning dardi, boshidan kechirgan nohaqliklari, ayniqsa, ayollarning hayoti, manfaati kuylangan g‘oyalarni jonli gavdalantirib sodda, ravon til bilan kuylarga solib badiiy shaklda tarannum qilingan.

Har bir mahalliy uslub o‘z xususiyatlari va an’analariga ega. Faqat Xorazm mahalliy uslubiga xos bo‘lgan xalfachilik san’ati an’analari uzoq davrlar mobaynida shakllangan bo‘lib, ular xalqimizning turli sharoitlardagi turmushi, mehnat mashg‘ulotlari, marosim va urf-odatlar jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda yuzaga kelgan.

Xorazm xalfalar orasida birinchi bo‘lib “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist” unvonini olgan san’atkor Soraxon Ollaberganovadir.

Soraxon Ollaberganova 1911-yil 10-mayda Xorazm viloyatining Xiva shahrida dunyoga kelgan. Yoshligidan sho‘x, gapga chechan bo‘lib o‘sgan Soraxon xalfa yetti yillik maktabda o‘qib yurgan paytlaridanoq ashula va raqsga qiziqib, badiiy havaskorlik to‘garaklarida faol ishtirok etgan. “U 10 yoshida Xivalik Jonibika xalfaga shogird tushgan. Jonibika xalfa aytgan qo‘shiqlarga to‘y-marosimlarda raqqosalik

[3] . “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” Maskva 1981 y

qilgan. O‘zbekiston Xalq Dostonchisi Bola baxshi Qurbonnazar Abdullayevning yonida ham shogird, ham raqqosa sifatida faoliyat qilgan. Undan doston qo‘shiqlarining ijro qilish sirlarini o‘rgangan. “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon”, “Toxir va Zuxa”, “Bazirgon”, “Oshiq Mahmud” dostonlaridagi qo‘shiqlarni to‘y-marosimlarda maromiga yetkazib kuylagan. Shu tariqa Xiva xalfa qo‘shiqlarining mohir ijrochisi bo‘lib yetishgan. Xiva teatrida faoliyat yuritgan mashhur sozchi Madrahim Sheroziy Soraxon iste’dodini yanada rivojlantirish uchun Turkmanistonning Ashxobod shahridagi qisqa muddatli aktyorlar tahsilgohiga yo‘llanma beradi”[4]. O‘qishni tugallab kelgach Soraxon teatrda aktyorlik qilgan va qo‘shiqlar ijro qilib Xiva xalqiga tanilgan. Soraxon ustozlaridan mumtoz qo‘shiqlarni xususan, “Feruz”, “Munojot”, “Shitob aylab”, “Xorazm suvoralari”ni o‘rganib o‘zining ochilmagan yangi qirralarini namoyish qilib, ustozlari maqtoviga sazovor bo‘lgan. Ustozi Sheroziy Soraxon ijodiga, uning ovozi va san’atiga yuksak baho bergan. Keyinchalik, xalq orasida Anash cho‘loq nomi bilan tanilgan xivalik raqqosa va xalfa Anajon Sobirovaga shogird tushgan.

“1939-yilda Xorazm garmonchilar ansambli tashkil etiladi. Ushbu ansamblda Gavharxonim Rahimova, Xorazmlik san’atkorlardan Sheroziy-Madrahim Yokubov, taniqli sozanda Matyusuf Xarratov, raqqosa va garmon jo‘rligida qo‘shiq kuylaydigan Anajon Sobirova (Anash xalfa), doirachi Raima Bekjonova, Raqqosa Roviya Otajonova va boshqa talantlilar bor bo‘lgan. Bu guruh Respublikamizning barcha viloyatlarida konsertlar qo‘yib, xalq olqishiga sazovor bo‘ladi. Ansamblni tashkil etish va rahbarlik qilish mashhur san’atkor Gavhar Rahimova zimmasiga yuklatildi”.[5] Ansambl Toshkentda faoliyat ko‘rsatib, 1940-yilda safini yosh, istedodli san’atkorlar hisobiga to‘ldirish uchun Xorazmga keladi. Ana shu paytda ansamblga Soraxon Ollaberganova ham qabul qilinadi.

Soraxon Ollaberganova 1968-yil Xivada Zarif Latipov bilan “Garmonchi qizlar ansambli”ni tashkil qilib turli Respublikalarga gastrol safarlar uyushtiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida bo‘lib o‘tgan “Xorazm san’ati va madaniyati” kunlarida “Feruz” garmonchilar ansambli bilan faol qatnashib, maqtov yorliqlari bilan taqdirlanadi. 1973-yil Toshkentda “Marhabo yosh talantlar” telefestivalida ham “garmonchi qizlar” ansambli bilan qatnashib o‘z iste’dodini namoyon qiladi. O‘sha yillarda Xivada teatr faoliyat ko‘rsatib, unda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Sheroziy-Madrahim Yoqubov, Bola baxshi Kurbonnazar Abdullayev, Kurbon ota Ismoilov, Yusuf Jabborov, Rahim masxaraboz, Sultonposhsha Raximova kabi iste’dodli san’atkorlar faoliyat yuritishgan. Urush yillariga kelib esa bu teatr-truppaga Komiljon Otaniyozov ham qo‘shilgan. Soraxon Ollaberganova ham Xiva teatridagi

[4] R.Yusupov “Xiva xalfalari”-Xorazm nashr matbaa; Urganch 2020 y.
3 S. Sobirova, H.Solaev “Xiva bulbullari” Xiva 2000 y.

faoliyati davomida garmon chalib, ashula ayta boshlaydi va tezda xalq orasida Sori xalfa nomi bilan tanildi.

Gavhar Rahimova o‘zining “Qutlug‘ yo‘lda” nomli memuar kitobida shunday yozadi:

“Sherozіy Yoqubovning shogirdlaridan biri Soraxon Ollobergan ovadir. Soraxon ham ustozi singari garmonni yaxshi chalar edi. U o‘z ustozidan ko‘p narsa o‘rgangan. U bizning ansamblimizga kelib qo‘shilgan paytida tuppa-tuzuk artist edi. Soraxon Ollaberganova san’atning ko‘p sirlarini bilar edi. Ko‘pincha, men Soraxonning jonkuyarligiga, jasoratiga qoyil qolar edim”.[6]

Soraxon Ollaberganova uzoq yillar Xiva pedagogika bilim yurtidagi qizlar ansambliga boshchilik qildi, ko‘plab shogirdlar chiqardi. Uning repertuarida “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon”, “Toxir va Zuxa”, “Bazirgon”, “Oshiq Mahmud”, “Asil va Karam” dostonlari tarkibidagi qo‘shiqlar, shuningdek, u yaratgan “Yor keldi”, “O‘ynab chaling”, “Baxt oftobi”, “Kolxozchi qiz”, “Yur sevgilim”, “Dig‘ajon”, “Men bandang bo‘lay”, “Jangchi qahramonlar”, “Yor-yor” kabi terma qo‘shiqlari mavjud bo‘lib, ularni talantli xalfa ishtiyoq bilan kuylagan.

Soraxon Ollaberganova, o‘z navbatida, Ojiza-Onabibi Otajonova bilan ham yaqin ijodiy munosabatda bo‘lib, uning ko‘plab she’rlarini yoddan bilgan va sevib kuylagan. U yozma adabiyot vakillaridan Fuzuliy, Navoiy, Maxtumquli. Mashrab, Mullanafas kabi shoirlarning she’rlarini mutolaa qilib, o‘z repertuariga kiritgan. Bu qo‘shiqlarni konsertlarda, to‘y va sayillarda maroq bilan ijro etib olqishlarga sazovor bo‘lgan. Xorazm xalfachilik san’atining gultoji bo‘lgan qalbi daryo inson Soraxon Ollaberganova 1986-yilda iyul oyida og‘ir hastalikdan Xiva shahrida vafot etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” Maskva 1981 y
2. R.Yusupov “Xiva xalfalari”-Xorazm nashr matbaa; Urganch 2020y.
3. E.Y.Saitova, N.E.Abraykulova “Xoreografiya va raqs san’ati asoslari” Toshkent 2015 y.
4. G. Rahimova “Qutlug‘ yo‘lda” Toshkent 1973 y.
5. S. Sobirova, H.Solaev “Xiva bulbullari” Xiva 2000 y.

[6] G. Rahimova “Qutlug‘ yo‘lda” Toshkent 1973 y.

ADABIYOT FANINI HOZIRGI KUNDAGI AHAMYATI

Amonova Shaxnoza Abdialimovna
Chirchiq Davlat Pedagogika universiteti gumanitar fanlar kafedrasi
o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7586087

Annotatsiya: Maqolada adabiyot darslarida o`quvchilarga hayot va haqiqatni badiiy singdirish, ijtimoiy masalalarni o`rgatishda adabiy boyliklarni qo`llash masalalari muhokama etiladi. Undan tashqari yosh avlodlarimizga berilgan to‘g‘ri tarbiya yuksak milliy axloq va e’tiqod kelajagimizni xayrli bo‘lishini, millatimiz obro‘sini va nufuzini saqlab qolishimizni va uni yanada yuqori cho‘qqilarga ko‘tarishimiz kerakligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar:adabiyot, hayot, axloq, e`tiqod, haqiqat tarbiya.

KIRISH

Adabiyot insonyat dahosi yaratgan sirli va sehirli mo`jiza bo`lib insonlar kamolotiga va ma`navyatining shakllanishida muhim o`rin tutadi.

Mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoevning 2017-yilning 19-sentyabrida BMT minbariga chiqib so‘zlagan nutqida ham aynan yoshlar masalasi,yosh avlod tarbiyasi eng dolzarb muammolardan ekanligi aytib o‘tilgan edi….,odamlar birinchi navbatda, yoshlarning ong-u tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish vatarbiyalash eng muhim vazifadir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash,ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim,deb hisoblayman deganedilar.

Millat tarbiyasi hamma zamonlarda ham eng dolzarb masala bo‘lib kelgan.Sharq mutafakkirlari farzand tarbiyasiga alohida e’tibor berib kelganlar. “Kalila va Dimna” nomi bilan mashhur bo‘lgan hindlarning “Panchatatra” (Besh hikmat),“To‘tinoma” shuhrat qozongan “Shukasaptati” (To‘tining yetmish hikoyasi), Yusuf Xos Xojibning “Qutatg‘u bilig” (Baxt saodatga yo‘llovchi bilim), Muslihiddin Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Nosiriddin Rag‘buziyning “Qissasi Rag‘buziy”, Alisher Navoiyning “Maxbub ul-qulub’’ (Ko‘ngillarning sevgani),“Hayratul-abror”(Yaxshi kishilarning hayratlanishi),Gulxaniyning “Zarbulmasal” kabi o‘nlab durdona asarlari ko‘pasrlar davomida farzandlar tarbiyasida dasturul amal vazifani o‘tabk elmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VAEMPIRIK TAHLIL

Bizga ma’lumki, sharq xalqlarida milliy an’ana, urf-odat, udum va hatto turmush tarzlarida bir-biriga yaqinlik,o‘xshashlik,qadriyat sirli umumiylik mavjud. Mana shu jihatlar G‘arb xalqlaridan farqli, o‘laroq Sharq xalqlarida o‘ziga xos

fazilatlar paydo qilganki, bunda biz yuqorida nomlarini qayd etgan tarbiyaviy asarlarning alohida o‘rni bor deb o‘ylaymiz.

Ma’lumki, Sharq xalqlari hayotida ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi nmunosabatlar, mehmonnavozlik, sahovatpeshalik kabi fazilatlar g‘arb xalqlaridan tubdan farq qiladi. Bu borada o‘zbek xalqi ham boshqalarga ibrat bo‘larli fazilatlarga ega. Masalan er-xotin o‘rtasidagi nikohni har ikkala jins vakili tomonidan muqaddas deb bilishi va uni umr bo‘yi saqlab qolishga bo‘lgan intilishi,shuningdek ota-onalar tomonidan farzandlarga ko‘rsatilayotgan mehr, ularni ulg‘aytirib jamiyatga foydali shaxs etib, tarbiyalashga bo‘lgan intilish,farzandlarning ota-onalarga bo‘lgan g‘amxo‘rligi, ularning keksaygan, kuchdan qolgan yoki kasalmand bo‘lganlarida parvarishlashga bo‘lgan intilishlari mana shu sharqona tarbiya mahsuli bo‘lib, uni har bir ota-ona yoki farzand maxsus buyruq yoki ko‘rsatma orqali emas,balki o‘z xohishi bilan vijdonan bajarishi umumsharqona tarbiya mahsulidir.

Bu borada diniy ta’lim-tarbiyaning ham munosib o‘rni bo‘lib, “Qur’oni Karim” va “Hadisi Sharif”larda bayon qilingan ibratli kalimalar va ularning ma’nosini to‘g‘ri talqin etishning muhim ahamiyati bor.

J. To‘lanov o‘zining “Qadiryatlar falsafasi” kitobida “Jamiyat taraqqiyoti quyi bosqichlardan yuqori bosqichga,o‘tmishdan kelajakka tomon rivojlanib borgan sari ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy taraqqiyotga xalq ommasining roli, g‘ayrati, uyushqoqligi ortib va chuqurlashib,inson amaliy faoliyati jadallashib boradi. Bu umuminsoniyatga xos qonuniyatdir. Jamiyatimiz tarixiy maqsadlarining ko‘lami keng. Inson shaxsi barkamol bo‘lsa, faol mexnat qilsa, ijtimoiy-siyosiy ishlarda faol ishtirok etsa, mamlakatimiz shuqadar tez rivojlanadi va mustahkamlanadi. Insonning ijodi, tashabbusi jamiyatimizning kuchi va hayotiyligining eng muhim manbaidir” deb ta’rif bergan.

Darhaqiqat, oldimizga rivojlangan demokratik huquqiy jamiyat qurishni maqsad qilgan ekanmiz eng avval ushbu jamiyatni quruvchi fuqaroni ya’ni har tomonlama yetuk komilinsonni tarbiyalab yetishtirishimiz zarur.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq bu ishga jadal kirishildi. Ayniqsa ta’lmni isloh qilish 1997-yil avgust oyida qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlar hamda ularning bajarilishini muvoffaqiyat bilan olib borish jamiyatiznng shu 24-yil davomida jadal rivojlanishini ta’minladi.Yurtboshimiz I.A.Karimov “Men Abdullo Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yohalokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan fikrini ko‘p mushohada qilaman.Buyuk ma’rifatparvarning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarbdir. Chunki ta’lim-tarbiya ong mahsuli, lekinayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin,ta’lim-tarbiya tizimini

o‘zgartirmasdan turib ongni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ongni tafakkurni o‘zgartirmasdan turib esa biz ko‘zlagan oiliy maqsad-ozod va obod jamiyatni barpo etib bo‘lmaydi”degan edilar.

Milliy qadriyatlarimiz bo‘lmish tarixiy shaxslar, buyuk allomalarimizning qadriyatlari tiklanishini mustaqilligimizning dastlabki yillarida ro‘ybergan iqtisodiy va siyosiy bo‘xtonlar sharoitida amalga oshirganimiz chinakam qahramonlik bo‘lib, buning uchun xalqimiz yurtboshimizdan minnatdordir.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilibaytadigan bo‘lsak agarda biz yoshlarni ma’naviy dunyosini boyitmoqchi bo‘lsak, ularning tarbiyasida yuksak natijalarga erishmoqchi bo‘lsak yuqorida aytilgan fikrlarga befarq bo‘lmasligimiz kerak va bu sohada keskin o‘zgarishlar qilishimiz zarur.

Shundan kelib chiqadiki, yosh avlod bizning kelajagimiz, ularga berilgan to‘g‘ri tarbiya yuksak milliy axloq va e’tiqod kelajagimiz xayrli bo‘lishini, millatimiz obro‘sini va nufuzini saqlab qolishimizni va uni yanada yuqori cho‘qqilarga ko‘tarishimizni ta’minlaydi. Bu ishda bizga eng yaxshi qo‘llanmaqanday janr va yo‘nalishda bo‘lmasin o‘zida axloqiy g‘oyalar, ibratli jumlalarni aks ettirgan adabiyotlar bo‘lib qoladi. Radio va televideniya, teatr, kino san’ati, musiqa va tasviriy san’at bu ishda bizga ko‘mak beradi.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. S.Dolimov“Qobusnoma”Tosh.O‘qituvchi nash,2006-yil.
2. J.To‘lanov“Qadryatlar falsafasi” Tosh. O‘zbekiston nash.1998-yil.
3. Hasanova, N. K. (2021). Possibilities of musiceducation and upbringing in theformation of personal maturity. ISJ Theoretical &Applied Science, 08 (100),http://s-o-i.org/1.1/TAS-08-100-79
4. Raxmatulloh Nosir“Olam yizin obod qil’’Tosh.Yangi asr avlodi nash.2004-yil

ISSUES OF POLITICAL RELATIONS BETWEEN JALAL AD-DIN MENKBURNI AND THE BAGDAD CALIPHATE

Нуруллаева Қувонч Худойбердиевна
Урганч Давлат университети Тарих йўналиши магистранти
УрДУ Тарих кафедраси доценти, т.ф.д. **Машарипов Қ.Ю.** тақризи асосида
https://doi.org/10.5281/zenodo.7586103

Abstract: Although most of today's research on Jalal al-Din Menkburni admits that he was a talented military leader, he was an incompetent diplomat in terms of his political relations with neighboring countries. In particular, the issue of the relationship between Jalal ad-din Menkburni and the Arab caliphate is one of the most problematic topics. In this regard, this article is devoted to the problem of political relations between Jalal ad-din Menkburni and the Caliphs of Baghdad, and the article attempts to analyze the problem based on new views and approaches.

Key words: Jalal ad-din Menkburni, khorezmshahs-anushteginids, Nesevi, Z. Buniyadov, Ibn al-Athir, Juweini, Rashid ad-din, Juzjani, Sibt ibn al-Javzi, Caliphs of Baghdad, An-Nasir.

ЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИНИНГ БАҒДОД ХАЛИФАЛИГИ БИЛАН СИЁСИЙ МУНОСАБАТЛАРИ МАСАЛАСИ

Мақоланинг қисқача мазмуни: Ҳозирги кунда Жалолиддин Мангуберди ҳақидаги тадқиқотларнинг аксариятида унинг иқтидорли лашкарбоши бўлганлиги тан олинсада, аммо унинг қўшни давлатлар билан сиёсий муносабатлари масаласида ношуд сиёсатчи бўлганлиги таъкидланади. Айниқса, Жалолиддин Мангубердининг араб халифалари билан муносабатлари масаласи жуда муаммоли мавзулардан ҳисобланади. Шу жиҳатдан олганда мазкур мақола Жалолиддин Мангубердининг Бағдод халифалари билан сиёсий муносабатлари муаммосига бағишланган ва мақолада муаммо янгича қарашлар ва ёндашувлар асосида таҳлил қилишга ҳаракат қилинган.

Калит сўзлар: Жалолиддин Мангуберди, хоразмшоҳ-ануштегинийлар, Насавий, З.М. Буниёдов, Ибн ал-Асир, Жувайний, Рашидиддин, Жузжоний, Сибт ибн ал – Жавзий, Бағдод халифалари, Ан-Носир.

ВОПРОСЫ ПОЛИТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ ДЖАЛАЛ АД-ДИНА МЕНКБУРНИ С БАГДАДСКИМ ХАЛИФАТОМ

Аннотация: Хотя в большинстве сегодняшних исследований о Джалал ад-дина Менкбурни признается, что он был талантливым военачальником, но был некомпетентным дипломатом с точки зрения своих политических отношений с соседними странами. В частности, вопрос взаимоотношений Джалал ад-дина Менкбурни с арабским халифатом является одной из самых проблемных тем. В связи с этим данная статья посвящена проблеме политических отношений Джалал ад-дина Менкбурни с багдадскими халифами, и в статье делается попытка проанализировать проблему на основе новых взглядов и подходов.

Ключевые слова: Джалал ад-дин Менкбурни, хорезмшахи-ануштегиниды, Несеви, З. Буниядов, Ибн аль-Асир, Джувейни, Рашид ад-дин, Джузджани, Сибт ибн аль-Джавзи, Багдадские халифи, Ан-Насир.

Жалолиддин Мангуберди ҳаёти ва сиёсий-ҳарбий фаолиятининг энг муаммоли саҳифалари бу шубҳасиз унинг қўшни давлатлар билан муносабатлари масаласидир. Жалолиддин Мангуберди ҳақидаги энг асосий ёзма манбаларнинг бу борадаги маълумотлари ҳам турлича бўлиб, чуқур қиёсий таҳлилни талаб қилади. Жумладан, буюк саркарданинг Аббосийлар араб халифалиги билан муносабатлари ҳақида маълумотлар берувчи ёзма манбаларни, унда келтирилган маълумотларга қараб уч гуруҳга бўлиш мумкин: биринчи гуруҳ манбалари Жалолиддин Мангубердининг халифалар билан муносабатларида асосан унинг тўғри йўналишда олиб борганлигини таъкидласалар (ан-Насавий, Жувайний ва Рашидиддин), иккинчи гуруҳ манбалари эса бу борада мутлақо акси ёндашув асосида баҳо берилган (Ибн ал-Асир ва унинг асаридан фойдаланиб ўз асарларини ёзган тарихчилар). Учинчи гуруҳ манбалари муаллифлари Жалолиддин Мангубердининг халифалик билан муносабатлари масаласидаги маълумотларни келтириб ўтсаларда, тарихчи сифатида унга ўз муносабатини билдирмаганлар (Жузжоний, Сибр ибн ал-Жавзий).

Биринчи гуруҳ манбалар ичида энг асосий манба бу Жалолиддин Мангубердининг шахсий котиби, саркарданинг умри охиригача кечган жараёнларда ва сиёсий-ҳарбий воқеаларда бирга бўлган, бу воқеа-жараёнларнинг бевосита шоҳиди бўлган Шаҳобиддин ан-Насавийнинг “Сийратус-султон Жалолиддин Мангуберди”, яъни “Султон Жалолиддин Мангубердининг ҳаёт тафсилоти” асаридир. Бу асарда халифалик билан Жалолиддин Мангубердининг муносабатларига батафсил тўхталиб ўтилган бўлиб, муаллиф шу давр вазиятидан келиб чиқиб ҳамда Бағдод халифаларининг илгаридан хоразмшоҳларга нисбатан душман сиёсат юритиб келганликларини яхши билган ҳолда бу муносабатларга баҳо берган, албатта.

Жалолиддин Мангубердининг Бағдод халифаси билан энг дастлабки норасмий муносабати унинг Ҳиндистондан Кирмон ва Форс вилоятларига кириб келган пайтдаёқ бошланган бўлиб, халифалик хоразмшоҳлар давлатининг емирилишидан фойдаланиб, бу ҳудудларда ўзларининг тўлиқ ҳукмронлигини ўрнатишга киришиб кетган эдилар. Аммо, 1224 йилда бу ҳудудларга Жалолиддиннинг кириб келиши уларнинг режаларини бузиб юборди. Шунинг учун Жалолиддиннинг Бағдод халифалигига юришидан ҳам кўзланган мақсад халифаликни босиб олиш ёки тугатиш бўлмасдан, бу ҳудудларда халфаликнинг айнан шу таъсирига ва ўз ҳукмронликларини ўрнатиш борасидаги ҳаракатларига чек қўйиш эди. Жалолиддиннинг бу мақсадини ан-Насавий аниқ очиб бера олган[7].

Хуллас, Жалолиддиннинг Ҳиндистондан аввал Ироққа, сўнг Озарбайжонга қайтиши ҳамда унинг куч-қудрати ва обрў-эътиборининг ошиб бориши халифа ан-Носирни безовта қила бошлайди ва у қандай бўлмасин Султонни йўқ қилиш ниятида бўлади[8]. Бу воқеалар хоразмшоҳларга ғаразгўйлик руҳида қараган Ибн ал – Асирда бошқача руҳда акс этган. Жумладан, Жувайний ва Рашидиддин асарларида ўз аксини топган Жалолиддиннинг дастлаб халифадан ёрдам олиш учун ва биргаликда мўғулларга қарши курашиш нияти билан келганлиги масаласи Ибн ал – Асирнинг асарида ўз аксини топмаган[9].

Мусулмон дунёсининг ҳомийлари ҳисобланган халифалар, айниқса, халифа ан-Носир бутун мусулмон оламини мўғулларга қарши бирлаштириш ўрнига, ўз манфаатларини юқори қўйган ҳолда ҳамда ўз шахсий ҳоҳишини юқори қўйиб, Жалолиддинни йўқ қилишга ва бошқа мусулмон ҳукмдорларни ҳам унга қарши қўйишга ҳаракат қилади. У шу мақсадда Озарбайжон ҳукмдори, ўз укаси Пиршоҳнинг тоғаси Иғон Тоисийни ва Пиршоҳнинг ўзини Жалолиддинга қарши чиқишга кўндиради. Натижада, Иғон Тоисий 50 минглик қўшин билан Жалолиддинга қарши юриш қилади. Аммо, Ҳамадон ёнидаги жангда Жалолиддиндан мағлубиятга учрайди[10].

Шундан сўнггина Жалолиддин энди халифаликнинг пойтахти Бағдодга юриш қилишга қарор қилади ва бу ҳақда халифани огоҳлантирди. Лекин, Жалолиддин бу юришдан олдин, яна бир бор халифа ан – Носир билан

[7] Машарипов Қ. Жалолиддин Мангубердининг жаҳон сиёсий ва ҳарбий тарихидаги ўрни. – Т.: Yoshlar media print, 2021. – Б.112-122.

[8] Жувайний Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонкушо.(Жаҳон фотиҳи тарихи)./ Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Болтабоев, М. Маҳмудов. – Тошкент: MUMTOZ SO’Z, 2015. – Б.382-383; Рашид ад-Дин. Сборник летописей: в 3 томах. Том 1. Кн.2./ Пер.: О.И. Смирновой. М. – Л.: Изд – во АН СССР, 1952. – С.241.

[9] Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та’рих. Полный свод истории / Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова [дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина]. – Ташкент; Цюрих: Изд-во АН РУз, 2005. – С.370-372.

[10] Шиҳобиддин Муҳаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. / Камол Матёқубов таржимаси./ – Т.:: O’zbekiston, 2006. – Б.133, 135; Буниёдов З. Ануштегин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). – Тошкент: Мумтоз сўз, 2012. – Б.205-206.

келишишни ва умумий душман мўғулларга қарши биргаликда ҳаракат қилишни таклиф қилган. Аммо, халифа бу илтимосни нафақат жавобсиз қолдиради, балким, Жалолиддинга қарши 20 минг кишилик қўшин жўнатади. Чорасиз қолган Жалолиддин Ғут деган жойда халифанинг Қўштемур бошчилигидаги қўшинини тор-мор келтиради[11].

Араб тарихчиси Сибр ибн ал-Жавзийнинг маълумотига асосланиладиган бўлса, у Жалолиддиннинг халифаликка қарши юришига халифанинг Чингизхонга яширинча мактублар юбориб, уларда мўғул ҳукмдорини Хоразм давлати устига юриш қилишга даъват этганлигини сабаб қилиб келтиради[12]. Аммо, Жалолиддиннинг ҳатти-ҳаракатларидан, ҳақиқатдан ҳам унинг асосий мақсади халифа ёрдамида мусулмон олами ҳукмдорларини бирлаштириб, мўғул балосини даф этиш ва хоразмшоҳлар давлатини қайтадан тиклаш бўлганлиги кўзга ташланади. Шунинг учун ҳам халифа қўшинларини енггандан сўнг, Жалолиддин Бағдод атрофларини қамал қилгани билан аскарларига бу шаҳарга юриш қилмасликларини буюради. У Боғдод яқинига келиб, 12 кун туриб, яна Озарбайжон томонга қайтиб кетади. Аммо, халифа Ирбил ҳукмдори Музаффариддин Кўк Бўри бошчилигидаги яна бир қўшин юборади. 1225 йилнинг апрел – май ойларида бўлган жангда Жалолиддин халифаликнинг бу қўшинини ҳам енгади[13].

З. Буниёдов китобида ана шу воқеалардан сўнг Жалолиддин Мангубердининг Дамашқ ҳукмдори ал – Малик ал – Муаззам Исога (1218 – 1237 йиллар) ёзган мактубин келтирилган. Бу мактубда Жалолиддин халифага қарши юриш бошлашга даъват этганлиги, бунинг асосий сабаби эса кофирларнинг ислом мамлакатларига бостириб киришига халифа сабабчилиги, буни халифанинг уларга ёзган мактуби исбот бўлиб, бу мактуб унинг қўлида эканлиги ҳамда бу мактубда у уларни ислом мамлакатларига ҳужум қилишга даъват этганлигини таъкидлаб ўтган”[14].

Тадқиқотчи Қ. Машарипов фикрига кўра, Жалолиддин халифанинг мўғулларга хоразмшоҳларга қарши юриш уюштиришга даъват этганлигини билсада, халифа билан яна бир бор келишишга ҳаракат қилиб кўрган. Негаки, халифанинг обрў – эътибори ҳукмдорлар олдида тушиб кетган бўлсада, унинг мусулмон дунёсидаги обрўйи барибир улкан эди. Шу жиҳатдан олганда, Жалолиддин халифадан мўғулларга қарши кураш йўлида мусулмон дунёсини бирлаштиришини умид қилган холос. Аммо, у мақсадига эриша олмагач, юқоридаги мактуб билан ҳукмдорларга мурожаат қилган бўлиши мумкин. Шу

[11] Жувайний. Тарихи жаҳонгушо. (Жаҳон фотиҳи тарихи). Б.382-383; Рашидаддин. Сборник летописей. С.241; Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-та’рих. (Полный свод истории).С.370-371.
[12] Ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. Б.338-339. Буниёдов З. Ануштагин – Хоразмшоҳлар давлати. – Б.205-206.
[13] Жувайний. Тарихи жаҳонгушо. (Жаҳон фотиҳи тарихи). Б.382-383; Рашидаддин. Сборник летописей. С.241.
[14] Буниёдов З. Ануштагин – Хоразмшоҳлар давлати. – Б.207.

билан бирга, Жалолиддин барча мусулмон ҳукмдорлари қатори ислом дини ва унинг ақидаларини ҳурмат қилганлиги туфайли мусулмонларнинг ғоявий маркази – Бағдодга ҳужум қилиб, бу муқаддас шаҳарни вайрон қилишни истамаган[15]. Аммо, халифалар ҳам Жалолиддин куч-қувватидан қўрқиб ҳамда ўз манфаатларидан келиб чиқиб ҳеч қачон уни қўллаб-қувватламадилар. Ҳатто халифалар Жалолиддин Мангубердига аждодлари эришган султон унвонини бермадилар. Уларнинг юритган бундай калтабин сиёсати натижасида Жалолиддин Мангуберди ҳам уларга умуман ишонмай қўйди ва бу муносабат Жалолиддиннинг мўғулларни енга олмаганлигининг ҳамда хоразмшоҳлар давлатини қайта тиклай олмаганлигининг энг асосий сабабларидан бири бўлиб қолди.

Қолаверса, у кейинчалик ўз давлатини тузган Эрон, Озарбайжон ва Ироқ ҳудудларида ҳам ниҳоятда оғир сиёсий вазият ҳукмрон эдики, халифалар бу эски адоватларни унутиш ўрнига унга қарши турли ҳокимларни гиж – гижлаб, Жалолиддиннинг кучли давлат тузишига ҳалақит қилдилар. Айнан шу сабабга кўра, Жалолиддиннинг энг асосий душмани бўлган мўғуллар билан кураши тарихида уч йил: 1227–1230 йиллар ораси нисбатан осойишта кечсада, бу вазиятдан фойдаланиб, у мўғулларга қарши кучли иттифоқ тузиб, охир - оқибат уларни ўз юрти Мовароуннаҳрдан ҳам қувиб чиқариш каби мақсадига эриша олмади. Чунки, шу йиллар ичида мусулмон дунёси мамлакатларида ўзаро низо, нифоқ ва адоватнинг ниҳоятда кучайиб кетганлигига айнан халифалар энг асосий сабабчи бўлган эдилар[16].

Аммо, юқорида таъкидланган иккинчи гуруҳ манбаларида аббосийлар билан муносабатларнинг бузилишига Жалолиддин сабабчи қилиб кўрсатилганлигини тушуниш мумкин. Чунки, улар ўз ҳукмдорларининг манфаатлари доирасидагина фикр юритганлар холос. Ибн ал – Асир эса мўғуллар ҳужуми натижасида ислом оламининг жуда катта зарар кўришидан шу даражада таъсирланганки, бу воқеалар сабабларини таҳлил қилмасдан, фақат уларнинг сабабчисини излайди ва ислом олами учун бу улкан мусибат сабабчилари деб эса у хоразмшоҳларни айблашдан нарига ўта олмаган[17].

Жалолиддин Хоразмшоҳ мўғулларга қарши озодлик курашда шубҳасиз яловбардори бўлди. Тўхтовсиз ўтган кураш йилларида у уддабурон ташкилотчи ва улкан давлат арбоби сифатида ўзини кўрсатди. У қисқа вақт ичида Хоразмшоҳлар империясининг жануби ғарбида, Эрон, Хуросон, Озарбайжон, Ироқ ҳудудида давлатни тиклади, қўшин бошини бирлаштирди, бутун билими, кучини ватан мудофаасига қаратди ва бу йўлда катта муваффақиятларга

[15] Машарипов Қ. Жалолиддин Мангубердининг жаҳон сиёсий ва ҳарбий тарихидаги ўрни. – Б.119.
[16] Машарипов Қ. Жалолиддин Мангубердининг жаҳон сиёсий ва ҳарбий тарихидаги ўрни. – Б.212.
[17] Машарипов Қ. Жалолиддин Мангубердининг жаҳон сиёсий ва ҳарбий тарихидаги ўрни. – Б.213-214.

эришди ҳам. Бироқ пировардида, ислом давлатлари ҳукмдорларининг калтабинлиги, ички зиддиятлар, амалдорларининг сотқинлиги оқибатида Жалолиддин мўғулларга дош бера олмади ва 1231 йил августда шаҳид кетди.

Демак, Жалолиддин Мангубердининг мўғулларни бутунлай енгиб, хоразмшоҳлар давлатини тиклай билмаганлигини, фақат унинг ношуд сиёсатчи бўлганлиги билан боғлайвермасдан, унинг яшаган даври, шу даврдаги сиёсий ва ижтимоий вазиятни илмий жиҳатдан кенг ва чуқур таҳлил қилиш орқали, холисона хулоса чиқариш асосидагина баҳо бериш лозим. Бу борада айниқса унинг Бағдод халифалари билан муносабатлари масаласини жуда чуқур таҳлил қилиш асосидагина хулоса чиқариш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар:

1. Буниёдов З. Ануштегин Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231). – Тошкент: Мумтоз сўз, 2012. – 256 б.

2. Жувайний Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонкушо.(Жаҳон фотиҳи тарихи)./ Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Болтабоев, М. Маҳмудов. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. – 504 б.

3. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та’рих. Полный свод истории / Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова [дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина]. – Ташкент; Цюрих: Изд-во АН РУз, 2005. – 595 с.

4. Машарипов Қ. Жалолиддин Мангубердининг жаҳон сиёсий ва ҳарбий тарихидаги ўрни. – Т.: Yoshlar media print, 2021. – Б.112-122 – 256 б.

5. Рашид ад-Дин. Сборник летописей: в 3 томах. Том 1. Кн.2./ Пер.: О.И. Смирновой. М. – Л.: Изд – во АН СССР, 1952. – 317 с.

6. Шиҳобиддин Муҳаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. / Камол Матёқубов таржимаси./ – Т.:: O‘zbekiston, 2006. – 384 б.

MODULNI O‘QITISHDA INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Po‘latova Ra’no To‘xtayevna
Toshkent davlat transport universiteti
akademik litseyi o‘qituvchisi
ranopolatova1970@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7586130

Annotatsiya: Maqolada amaliy mashg‘ulotlarda, ma’ruza darslarida modulni o‘qitish jarayonida foydalaniladigan interfaol metodlar va ularning qo‘llanilishi, zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalar, amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, “Xulosalash», “Keys-stadi”, «FSMU», Blits-so‘rovlar, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llanilishi haqida bayon qilingan.
Kalit so‘zlar: “Xulosalash», “Keys-stadi”, «FSMU», blits-so‘rovlar, nashr holidagi lug‘atlar, elekron lug‘atlar, kompyuter lug‘atlari.

INTERACTIVE EDUCATIONAL METHODS IN TEACHING THE MODULE

Annotation: In the article, interactive methods and their application used in practical training, lecture classes, presentation and electronic didactic technologies using modern computer technologies, technical tools in practical training, "Summary", "Case" -stadi", "FSMU", Blitz-surveys, group thinking, working with small groups and other interactive educational methods are described.
Key words: "Summary", "Case-study", "FSMU", blitz-surveys, printed dictionaries, electronic dictionaries, computer dictionaries.

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o‘sib bormoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o‘zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnlogiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta’limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.Yurtimizda ayniqsa, fanlarni o‘qitilishi jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda.Tillarni o‘rganishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir.Ta’limni jadallashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.Zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta’lmmuassasalarida amalda qo‘llash o‘quv jarayonida zamonaviy o‘qitish metodlarini qo‘llashda hamda o‘qituvchi pedagogik mahoratini namoyish etishda

keng imkoniyatlar yaratadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanishda samaradorlikka erishishni ta’minlashdagi vazifalardan biri – pedagogik texnologiyalarga metodik ishlov berishdan iborat.

Ha, haqiqatan ham hozirgi kunda modulda ta’lim berish jarayonida ta’lim beruvchilar tomonidan interfaol metodlarni qo‘llab darslar olib borilmoqda. Bu esa modul sistemasida ta’lim beruvchilarga kata ma’sulyat yuklaydi.Ya’ni ta’lim jarayonida qo‘llanadigan metodlarga modulda ishlov beriladi.Odatda dars jarayoni ikki yoki undan ortiq asosiy metodlardan tashkil topadi va bu metodlar dars mavzusiga to‘la muvofiq bo‘lib, bilim oluvchilarning bilim va tajribasi qay bosqichda ekanligiga qarab qo‘llaniladi.

Quyida darslarda qo‘llaniladigan ana shunday metodlarni ko‘rib chiqamiz.

“Xulosalash» metodi murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakterdagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlilil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin. Metodnig amalga oshirilish tartibi quyidagicha: Trener – o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 tadan iborat bo‘lgan kichik guruhlarga ajratiladi, treningning maqsadi shartlari va tartibi bilan ishtirokchilar tanishtiriladi. Har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallar tarqatiladi. Har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi. Keyingi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar, keyin trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi va zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi hamda mavzu yakunlanadi. Masalan bu bo‘yicha quyidagicha namunaga asoslanish mumkin:

Kompyuter lug‘atlarining ma’lumotlar bazasi sifatidagi ahamiyati:

1) Nashr holidagi lug‘atlar: eafzalligi, kamchiligi

2) Elekron lug‘atlar: t afzalligi, kamchiligi odn

3) Kompyuter lug‘atlari: i afzalligi, kamchiligi

4) Xulosa.

“Keys-stadi” metodi - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab

1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshiruvchi ish bosqichlari:

1-bosqich: Avtomatik tarjimaning ishlash jarayoni bilan tanishtirish. Faoliyat shakli va mazmunida yakka tartibdagi audio-vizual ish; keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); axborotni umumlashtirish axborot tahlili; muammolarni aniqlash ishlari bajariladi.

2-bosqich: Avtomatik tarjima bo‘yicha muammoni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash.

Faoliyat shakli va mazmunida individual va guruhda ishlash, muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash, asosiy muammoli vaziyatni belgilash kabi ishlar bajariladi.

3-bosqich: Avtomatik tarjimani tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining echimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish.

Faoliyat shakli va mazmuni individual va guruhda ishlash, muqobil echim yo‘llarini ishlab chiqish, har bir echimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish, muqobil echimlarni tanlash.

4-bosqich: Avtomatik tarjima uchun keys echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.

Faoliyat shakli va mazmunida yakka va guruhda ishlash, muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash, ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash, yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish kabi ishlar bajariladi.

Keys.Avtomatik tarjima tizimida ko‘p ma’noli, omonim so‘zlar tarjimasiga doir muammolarning mavjudligi. Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar: keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilash (individual va kichik guruhda). Avtomatik tarjimani amalga oshirish uchun bajariladagina ishlar ketma-ketligini belgilash (juftliklardagi ish).

«FSMU» metodining maqsadi talabalardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;

- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi: F- fikringizni bayon eting. S- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating. M- ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring. U- fikringizni umumlashtiring. Ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.Bu metoddan namuna: Demak, fikr: “Avtomatik tahrir dasturining amalga oshirilishi imlo nuqsonlarining bartaraf etilishini ta’minlaydi.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Blits-o‘yin” metodining asosiy maqsadi o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu metoddan talabalarni baholash va mavzuni mustahkamlashda qo‘llansak samarali natijalarni beradi.Metod quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. SHundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so‘raladi. SHundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiy yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiy yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiy yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, talabalarga tillarni o‘rgatishda kompyuterdan unumli foydalanish ya’ni modulda lingvistikaga doir masalalar (tillarni o‘qitish,

bilimlarni baholash, matnlarni tahrir qilish, bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish kabilar)ni, zamonaviy interfaol ta’lim metodlarini kompyuter vositasida hal qilish yo‘llari, kompyuter savodxonligi darajasini oshirish, mantiqiy to‘g‘ri, izchil fikrlashga o‘rgatish, ularda nazariy bilimlarni shakllantirish va o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha amalda qo‘llashga oid ko‘nikmalarni hosil qilish kelajakda yurtimiz dovrug‘ini ko‘kka ko‘taradigan yoshlar bo‘lib etishishida bir omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanildan adabiyotlar:

1. Daniel Jurafskiy, James H. Martin. Speech and Language Processing: An introduction to natural language processing, computational linguistics and speech recognition (2007).

2. Manfred R. Computer Speech Schroeder, second edition in 2004.

3. Li Deng and Doug O'Shaughnessey"Speech Processing: A Dynamic and Optimization-Oriented Approach" published in 2003.

4. Baltayeva A. T. Shaping the critical thinking of pupils at literature lessons. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 7 No. 10, 2019. Progressive Academic Publishing, UK. R.6–8.

5. Kharatova Sh. Kh., Tulaboeva G. T. innovative technologies in teaching english at transport university Eastern European Scientific Journal. UK. R.38–39.

6. Baltayeva A.T. Designing lessons aimed at teaching students to critically evaluate the personality of the heroes of the work of fiction. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. P.947-952.

THE ROLE OF WOMEN IN MODERN SOCIETY

Khudoykulova Madina
student of Navoi State Pedagogical Institute
Islomova Dilnoza
student of Navoi State Pedagogical Institute
Mukammadieva Risola Kyrgyzboy kyzi
a scientific adviser, a teacher of Navoi State Pedagogical Institute, Uzbekistan
https://doi.org/10.5281/zenodo.7586146

Abstract: The article faces reflection on identity of women as well as philosophical principle. Moreover, it depict the role of the woman in modern society conserning in the vigorous growth of education system.

Keywords: women's education, female, time, modern society, women involvement

Future revolution that will happen in some decades is profoundly depends on education of younger generation. Nowadays in the century of technology, progress, discoveries, emancipation and feminism, this issue is most acute. For many centuries, a woman has been the keeper of the hearth, while everything that had to do with the outside world was taken over by a man. People are used to treat men only as a genius one however it is time to draw an attention to role of women in development of science. A woman in modern society has a completely different status and vocation, she has other values and needs that make us reconsider our views on the female role in today’s world. One of the crucial reasons for the change in the female involvement in modern society is the change in attitudes towards women's education and the subsequent increase in the number of educated women. For example, now the education of women in institutes, universities and academies has become commonplace, however, for this, women's education had to overcome a huge path full of various problems and difficulties.

On the territory of Uzbekistan, from 1920 to 1925, the state set its task: to organize and strengthen a new school, to involve as many children of working people as possible in it, to introduce new ideological content everywhere in the school, to train new cadres of teachers. These are the main milestones in the development of women's education, which led to the strengthening of the role of women in society, the growth of their independence and influence. Abdukodir Shakuri was one of the first to advocate the introduction of equal education for girls, and for the first time carried out joint education of boys and girls in his school. With the establishment of Independence, the education system was reformed. All types of education have

become available to women. Equality has been established between women and men. Currently, many girls are studying in higher educational institutions, and it is absolutely normal for them to receive specialties that were previously considered male. Time has proved that a woman can do great things with men on equal terms, and sometimes even better than them.Over the years of independent development, our country has achieved great success in protecting the rights and legitimate interests of women. No less significant are the achievements in ensuring their active participation in the socio-political and socio-economic life of the public addition, Uzbekistan was one of the first in Central Asia to ratify the International Labour Organization conventions, such as "On the Elimination of all forms of discrimination against women", "On Maternity Protection", "On discrimination in employment and occupation" and other documents.As an example, we can cite the establishment of a public organization – the Women's Committee of Uzbekistan, which has become a productive mechanism for supporting this part of the population, protecting their rights and legitimate interests.Women's participation in public administration is becoming increasingly active. In particular, today they make up 17% of the members of the Senate of the Oliy Majlis and 16% of the deputies of the Legislative Chamber. At the same time, in recent years, the representation of women in executive bodies has increased almost 5 times – from 3.4% to 16%.The number of representatives of the fair sex in the country's political parties has increased by creating a women's wing. Currently, according to the Women's Committee of Uzbekistan, the proportion of women in the Liberal Democratic Party of Uzbekistan has increased from 35% to 38%, the Democratic Party "Milliy Tiklanish" - from 40% to 46%, the People's Democratic Party – from 41% to 56%, the Social Democratic Party "Adolat" – from 38% to 49%. Women's participation in local self-government bodies and mahalla structures has also been expanded. So, over the last period, their share of the total number of chairmen of mahalla committees has increased from 9.6% to 25.6%. At the same time, the role of women in the socio-economic life of the country is also expanding. For example, in recent years, the share of the beautiful half of our society in the employment structure has increased from 44 to 45.7%. The number of women entrepreneurs who open their own business and achieve significant success is growing. According to the latest data, the heads of 40.4% of small enterprises and 13.7% of microenterprises are representatives of the fair sex.

It is difficult to imagine the science of Uzbekistan without women today. About ten thousand women scientists are developing new methods of diagnosis and treatment, pedagogical approaches to the upbringing of the younger generation. The number of women scientists working in the field of physics, chemistry and even mechanical engineering is growing from year to year. Non-profit non-governmental and public organizations implementing educational programs play an important role

in improving the qualifications of women. For example, various clubs, associations and centers are successfully working in this direction under the Women's Committee. In particular, the club of women managers promotes the fullest disclosure of leadership qualities and practical capabilities of women, increasing their experience of working with personnel. The Club of Gifted Girls, which unites 700 talented girls, annually holds republican forums where participants demonstrate and discuss their achievements. Centers for social adaptation of women provide psychological, legal support, training. The Program of pedagogical grants established by the Forum of Culture and Art of Uzbekistan Foundation and the Women's Assembly Association plays an important role in the public life of the country. The competition of the Program, held since 2006, promotes the identification of initiative and dedicated teachers, popularization of their working methods and further improvement of professional skills. Teachers working in all levels of the education system can participate in the competition with their projects on new pedagogical technologies and other areas.

Guided by the words of Saida Mirziyoyeva"We are here to learn from each other, to empower and inspire each other, to learn to strengthen the role of women in our societies so that they can make their contribution to the development of human civilization. I believe that Uzbek women have something to say to the world, they will be able to make a significant contribution to the economic and cultural development of the human race".

References:

1.Джавакова К. Роль женщины во властных структурах: реальность и перспективы // Общественное мнение. Права человека. 2006. № 4. С. 127–135.

2.https://yuz.uz/ru/news/rol-jenin-v-razvitii-nauki-i-texniki-v-novom-uzbekistane

3.http://vek-noviy.ru/istoriya-uzbekistana-1917-1991-g/provedenie-kulturno-prosvetitelskoy-politiki-v-uzbekistane.html

4.https://studbooks.net/1939321/pedagogika/kultura_prosveschenie_obrazovanie_uzbekistane_1917_1990nbspgg

5. World economic forum Global Gender Gap Index 2015.

http://reports.weforum.org/global-gender-gap-report-2015/rankings/ (18.11.2015)

6.http://a-z-gender.net/ua/wp-content/uploads/2018/05/Gender-stereotype.pdf

7.https://uzreport.news/politics/saida-mirziyoyeva-through-strengthening-women-we-strengthen-the-nation-we-strengthen-the-w

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA ASTRONOMIYA FANIDAN UYUSHTIRILADIGAN DARSDAN TASHQARI ISHLAR

O‘rinova Oysha Dilmurod qizi, Hamidova Sarvinoz Ochil qizi
Fizika va astronomiya ta’lim yo‘nalishi talabalari
Navoiy davlat pedagogika instituti
Ilmiy rahbar: t.f.d. (DSc), prof.v.b. **D.I.Kamalova**
https://doi.org/10.5281/zenodo.7586173

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim-tarbiya jarayonida Astronomiya fanidan uyushtiriladigan darsdan tashqari ishlar va ularni o‘qitish metodikasi bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: astronomiya, dars jarayoni, mashg‘ulot, didaktika, pedagogika, darsdan tashqari ishlar.

EXTRA CURRICULUM ACTIVITIES IN THE SCIENCE OF ASTRONOMY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Hamidova Sarvinoz Ochil kizi, Urinova Oysha Dilmurod kizi
Students of the department of the “Physics and astronomy”
Navoi state pedagogical institute
Research advisor: DSc, prof. **D.I. Kamalova**

Annotation. This article describes extracurricular activities in the field of Astronomy during the educational process and their teaching methodology.
Keywords: astronomy, teaching process, training, didactics, pedagogy, extracurricular activities.

O‘quvchi (talaba) larga ta’lim va tarbiya berishda hamda ularning ma’nan sog‘lom rivojlanishida Astronomiya fanidan tashkil etiladigan o‘quv jarayonidan tashqari ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Astronomiya fanidan darsdan tashqari ishlar deganimizda, darsdan xoli vaqtlarda, Astronomiya fani o‘qituvchisining bevosita rahbarligida, oldindan belgilangan reja asosida ma’lum ilmiy va bilish maqsadlarini ko‘zlagan holda, o‘quvchilarning xohish-istaklarini inobatga olgan holda uyushtiriladigan dars mashg‘uloti nazarda tutiladi.

Dars mashg‘ulotlaridan tashqari ishlarni fan o‘qituvchisi tomonidan uyushtirishda o‘quvchilarning shaffof va mustaqil ta’lim olishi, tarbiyalanishi va ma’naviy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratish zarur bo‘ladi. Bu ishlarni tashkil etish

bir necha tashkiliy elementlar (maqsadi, vazifasi, mazmuni, shakli, xili, tashkil etish metodi) ni o‘z ichiga olgan bo‘ladi.

Quyida keltirilgan tamoyillar dars mashg‘ulotidan tashqari ishlarni tashkil qilishda inobatga olinishi kerak: (1-sxema)

1. Xohishiylik, ya’ni ixtiyoriylik;
2. O‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish;
3. O‘quvchilarning ijodiy rivojlanishlarini ta’minlash;
4. Bajariladigan ishlarning ijtimoiy foydali yo‘naltirilganligi;
5. Bajariladigan ishlarning keng ommaviylashganligi;
6. Belgilangan ishlar va topshiriqlarning majburiy bajarilishi;
7. O‘quv mashg‘ulotlaridan tashqari ishlar o‘quv ishlari bilan hamohang bo‘lishi ta’minlanishi kerak.

Astronomiya fanidan dars (sinf) dan tashqari ishlarni tashkil etishning asosiy maqsadini belgilashda quyidagilarni inobatga olish zarur bo‘ladi:

1. o‘quvchi (talaba) larning egallagan bilim darajasini;
2. o‘quvchi (talaba) larning bilim olishga qiziqishini;
3. o‘quvchi (talaba) larning o‘quv mehnat faoliyatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini;
4. o‘quvchi (talaba) larning aqliy taraqqiyot darajasini;
5. o‘quvchi (talaba) larning shaxs sifatidagi shakllanish darajasini;
6. o‘quvchi (talaba) larni kasbga yo‘naltirish.

Oldimizga qo‘yilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda vazifalar belgilanib olinishi kerak. Belgilangan vazifalar dars (sinf) dan tashqari tashkil etilgan ishlarning mazmuniga qarab quyidagilardan iborat bo‘ladi:

1) o‘quvchi (talaba) larning ilmiy tafakkurini rivojlantirishi;
2) o‘quvchi (talaba) larning umumiy holda dastur asosida ta’lim olishi yo‘nalishini rivojlantirishi;
3) o‘quvchi (talaba) larning umumkasbiy va umumtexnikaviy rivojlanishini ta’minlashi;
4) o‘quvchi (talaba) larning shaxsiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi;
5) o‘quvchi (talaba) larda amaliy kasbiy ko‘nikma va malakalarini shakllantirishi;
6) o‘quvchi (talaba) larni kasbga yo‘naltirish vazifasi.

Ana shunday aniq vazifalar asosida dars (sinf) dan tashqari ishlarni olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Albatta, dars (sinf) dan tashqari ishlarni olib borishda uning mazmunini tanlash ham o‘quvchi (talaba) larga muhim hisoblanadi.

O‘quvchi (talaba) larni mehnatga ongli munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalash ta’lim-tarbiya jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu masalani hal

etishda dars (sinf) dan tashqari ishlarning ahamiyati muhimdir. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar davomida uyushtiriladigan tajriba va kuzatishlar umumiy mehnat va amaliy ko‘nikmalar hosil qilinishida katta imkoniyatga ega.

Darsdan tashqari uyushtiriladigan ishlarning qaysi turi bo‘lishidan qat’iy nazar o‘quvchilarda estetik didni rivojlantirish borasida ham o‘qituvchi ish olib borishi zarur. Shuningdek, mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchi-talabalarni tabiatga, tabiat go‘zalligiga muhabbat hissini uyg‘otishni ham o‘qituvchi yodidan chiqarmasligi kerak.

O‘quvchi (talaba) larni vatanparvarlik va baynalminallik ruhida tarbiyalash borasida ham astronomiyadan uyushtirilgan sinfdan tashqari ishlar katta imkoniyatga ega. Buyuk mutafakkirlarimizdan Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek va boshqalarning qilgan ishlarini, ularning hayotlaridan lavhalarni yoki bo‘lmasa XX-XXI asrlarda Astronomiya sohasida M.Mamadazimov, I.Sattorov, B.Axmedov va boshqa vatanimiz olimlari qilgan ishlarni sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarda ko‘rsatish, devoriy gazetalarda ma’lumotlar berish yaxshi samara beradi. Shuningdek, keyingi paytlarda vatanimiz astronomik olimlari boshqa mamlakatlar olimlari bilan hamkorlikda ishlab erishayotgan yutuqlari haqida, bu yutuqlar turli millat vakillarining hamkorlikdagi ishining natijalari ekanligini o‘tkaziladigan tadbirlar orqali o‘quvchi-talabalar ongiga yetkaza olsak maqsadga erishgan bo‘lamiz.

Dars (sinf) dan tashqari tashkil etiladigan ishlar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning umumiy o‘rta ta’lim va politexnik ta’lim saviyasini oshirishga, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, ularning ijodiy tashabbuskorligini oshirishda katta imkoniyat eshiklarini ochib beradi. Shuningdek, o‘quvchilarning Astronomiya darsiga bo‘lgan qiziqishini orttiradi. Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil qilinadi. Astronomiyadan tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlardan biri to‘garaklardir. Astronomiyadan to‘garaklarni nafaqat maktabda, shuningdek akademik litsey, kasb-hunar kollejlarida ham tashkil etilsa, nur ustiga a’lo nur bo‘ladi.

Astronomiyadan o‘tkaziladigan to‘garak ishining eng qimmatlisi shuki, bunda o‘quvchi-talabalar o‘z bilimlarini amalda qo‘llashni o‘rganadilar, hayotga ishlab chiqarish mehnatida ishtirok etishga tayyorlanadilar.

Astronomiya to‘garagining mazmuni masalasi eng muhim hisoblanadi. Ko‘pincha o‘qituvchi to‘garak uchun qandaydir qisqa, texnik sohalarni – aviamodel, radiotexnika, kinotexnika va hokazolarni tanlaydi. Astronomiya o‘qituvchisi rahbarlik qiladigan to‘garak ishi o‘quvchi-talabalarning to‘garakdagi ishini Astronomiyani o‘qitish bilan to‘laroq bog‘lash imkoniyati bo‘lishi uchun ko‘proq Astronomiya va texnika tematikasi bo‘yicha olib boriladi. Astronomiya fanidan STEM-astronomiya to‘garagini tashkil etish bilan o‘qituvchi o‘quvchi (talaba) larning shaxsiy qiziqishlarini hisobga olishi, rejalashtirayotgan to‘garak faoliyatini

ular bilan birga tashkillashtirishi, mavzularning zamonaviyligi katta ahamiyat kasb etishi bilan birga darslarning quvnoq tarzda bo‘lishini ham ta’minlaydi. Ma’lumki, o‘quvchi (talaba) larni elektronika, avtomatika, radiotexnika, mikro- va nanoelektronika, yarim o‘tkazgichlar, raketa-texnikasi, kosmonavtika, axborot texnologiyalari kabi masalalar qiziqtiradi. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan to‘garak ishlari o‘quvchi (talaba) larni ayniqsa, qiziqtiradi.

To‘garak – bu sinfdan tashqari ishning muntazam shaklidir. Unda avvaldan tayyorlangan dastur asosida o‘quvchi (talaba) lar qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plamini oladilar, mavjud bilim, malaka va ko‘nikmalarini chuqurlashtiradilar hamda mustahkamlaydilar. Astronomiya to‘garaklari tartibli ravishda o‘tkaziladigan mashg‘ulot hisoblanadi.

To‘garak a’zolari o‘zgarmas bo‘lib, to‘garak a’zolarining umumiy majlislarida qabul qilingan dastur va jadval bo‘yicha ishlaydi.

O‘qituvchiga darsga nisbatan sinfdan tashqari mashg‘ulotni o‘tkazish qiyinroq, chunki sinfdan tashqari ish o‘qituvchidan katta ijodiy tashabbuskorlikni va amaliy tayyorgarlikni talab qiladi.

Astronomiya o‘qitishdagi ilg‘or metodlar, yangiliklar sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda paydo bo‘lgani tasodifiy emas.

Frontal laboratoriya ishlari, astronomiyadan praktikum ishlari, eksperimental masalalar, o‘quv filmlaridan foydalanish sinfdan tashqari mashg‘ulotlar orqali kiritilgan, ya’ni Astronomiya xonasini elektr simlarini o‘tkazib jihozlash, qo‘ng‘iroqlarni avtomatik chalish, magnitofonni o‘chirish, ulashni avtomatik boshqarish, ta’lim muassasasini radiolashtirish, radiouzel orqali chiqib o‘quvchi (talabalar) ga murojaat qilish va h.k.

Ta’lim muassasalarida tashkil etilgan Astronomiya to‘garaklarining bosh mavzusi kelajagi bor, uzoqroq muddatga (bir necha yillarga) mo‘ljallangan bo‘lishi kerak, shunda o‘quvchi (talaba) lar to‘garakning ish rejasi va faoliyati bilan mukammal tanishib, o‘rganib oladilar.

Astronomiyadan fan to‘garaklari ta’lim muassasasi rahbarining buyrug‘iga binoan tashkil etiladi.

O‘quv yili boshida Astronomiya o‘qituvchisi ta’lim muassasasida Astronomiyadan to‘garak tashkil etilayotganligini, to‘garakning bir necha tematikasi, o‘tkazilish kuni, o‘tkazilish vaqti, xonasi haqida bir necha kun avval e’lon yozib qo‘yadi. To‘garak a’zolari 10÷15 kishidan iborat bo‘lishi kerak. O‘qituvchi o‘quvchi-talabalar qiziqishini hisobga olib, mavjud bo‘lgan to‘garak dasturlaridan o‘quvchi-talabalar xohishi bilan birini tanlaydi.

O‘qituvchi o‘quvchi (talaba) lar bilan to‘garakni qaysi kuni qanday vaqt oralig‘ida o‘tkazilish kerakligini kelishib olishadi. To‘garak texnikaning so‘nggi yutuqlari asosida tashkil etilishi, shunga asosan Astronomiya va texnika to‘garagi

nomi berilishi ham mumkin. Bu holda to‘garak dasturi Astronomiya, kosmonavtika, informatika, radiotexnika, elektrotexnikaning so‘nggi yutuqlari asosida tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

Astronomiya kechalari – bu ta’lim muassasasida sinfdan tashqari ishni avj oldirib borish uchun ko‘p mehnat talab qiladigan samarali tadbirlardan biridir. Ular Astronomiyaning ko‘p sohalari bo‘yicha o‘quvchi (talaba) lar bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirishga xizmat qiladi. Ko‘pchilik o‘quvchi (talaba) larni ishtirok etishi talab qilinadi. Ayrim o‘quvchi (talaba) lar ma’ruzalar, boshqalari tajribalar tayyorlaydilar, uchinchilari devoriy gazeta chiqaradilar, to‘rtinchilari kecha o‘tkaziladigan zalni bezash bilan shug‘ullanadilar, beshinchilari mehmonlarni kutish bilan va hokazolar bilan shug‘ullanadilar. Kechani o‘tkazishga o‘quvchi (talaba) larning ko‘p tayyorgarlik ko‘rishi ularning jamoa bo‘lib birlashishlariga yordam beradi. Bu jamoa sinfdan tashqari ishlarning yuqori shakli – astronomiya to‘garaklarining yadrosi bo‘lib qoladi.

Hamma ommaviy tadbirlar singari Astronomiya kechalari yaxshi o‘ylab ko‘rishni, aniq tashkil etishni talab qiladi. Kechaning mavzusi, uning ayrim bosqichlarining ketma-ketligi, davomiyligi, zalni bezatish, dokladlarning mazmuni, demonstratsion tajribalar, asboblar, modellar tanlash, devoriy gazetalar chiqarish – bularning hammasi aniq ishlangan va tayyorlangan bo‘lishi kerak.

Astronomik fan kechalari fanning qandaydir bo‘limiga yoki mavzusiga, fan va texnika sohasida erishilgan katta yutuqlarga, bayram sanalariga (radio kuni, kosmonavtika kuni), vatanimizdagi va chet eldagi ulug‘ astronom-olimlarning hayoti va ilmiy faoliyatiga, to‘garak ishlarining natijalariga, shuningdek, tajribalarga, paradokslarga, qiziqarli astronomiyaga bag‘ishlangan bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kamalova Dilnavoz, Omonboyeva Meruyert, Abdisalomova Sanobar. Uzluksiz ta’lim tizimida astronomiya ta’lim standartining tutgan o‘rni. “Science and innovation” International scientific journal. Volume 1. Issue 8. December. 2022. 1982-1985 бет.

2. Kamalova Dilnavoz, Omonboeva Meruert, Kamolov Ikhtiyor. Methodology of application of innovative educational technologies to the process of physics and astronomy education. “International Journal of Early Childhood Special Education”. (INT-JECSE). DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.267 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022. pp. 2144-2146.

3. Kmalova D.I. va b. “Fizika va astronomiya fanlarini o‘qitishda fanlararo integratsiya” electron o‘quv qo‘llanmasi. №DGU 19188. 10.11.2022.

TA’LIM MUASSASALARIDA ASTRONOMIK KUZATUVLARNING AHAMIYATI VA O‘TKAZISH METODIKASI

Hamidova Sarvinoz Ochil qizi, O‘rinova Oysha Dilmurod qizi
Fizika va astronomiya ta’lim yo‘nalishi talabalari
Navoiy davlat pedagogika instituti
Ilmiy rahbar: t.f.d. (DSc), prof.v.b. **D.I.Kamalova**
https://doi.org/10.5281/zenodo.7586209

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida astronomik kuzatuvlarning ahamiyati va o‘tkazish metodikasi bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: astronomiya, astronomik kuzatuvlar, dars jarayoni, mashg‘ulot, didaktika, pedagogika.

SIGNIFICANCE OF ASTRONOMICAL OBSERVATIONS IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND METHODOLOGY OF CONDUCT

Hamidova Sarvinoz Ochil kizi, Urinova Oysha Dilmurod kizi
Students of the department of the “Physics and astronomy”
Navoi state pedagogical institute
Research advisor: DSc, prof. **D.I. Kamalova**

Annotation. This article describes the importance of astronomical observations in educational institutions and the method of conducting them.
Keywords: astronomy, astronomical observations, teaching process, training, didactics, pedagogy.

Ta’lim muassasalarida o‘quv kuzatishlarni tashkil etishning asosiy maqsadi – o‘quvchi (talaba) larga nazariy tomondan yoritilib berilgan astronomik hodisalar va jarayonlarni amaliy, ya’ni demonstratsion tanishtirish va jarayonlami tabiiy ravishda tushuntirishdan iborat. Amaliy kuzatuvlarsiz olib borilgan dars jarayonlari faqatgina astronomik hodisalarni nazariy jihatdan tushuntirish, astronomik ta’lim jarayonini shunchaki olib borish bilan bog‘liq bo‘ladi, xolos.

Astronomik kuzatishlar paytida o‘quvchi-talabalar osmon sferasidagi yoritgichlariga qarab yo‘nalish olish hamda astronomik o‘lchashlar olib borishning ko‘nikma va malakasiga ega bo‘lishlari shart. Hosil qilingan ko‘nikmalar asosida o‘quvchi (talaba) lar astronomiya kursining amaliy astronomiya qismini yorug‘ yulduzlarning joyini, yulduz turkumlarining joylashuvini, gorizont tomonlarini aniqlashni hamda ularning amaliy tushuntirib berishlari kerak. Shu bilan birga

astronomik kuzatishlar, o‘quvchi (talaba) larda kuzatishlar olib borish ko‘nikmasini, kuzatishlar natijasida individual xulosalar chiqarish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi, malakalari ortadi.

Astronomik kuzatishlar – bu astronomiyada olib borilgan amaliy ishlar sifatida ham qabul qilinadi. Amaliy ishlar pirovardida o‘quvchi (talaba) larda astronomik bilimlarini yanada mustahkamlashda ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Astronomik kuzatish ishlarini ikki qismga bo‘lib o‘tkazish mumkin:

1) kirish kuzatishlari – bunda o‘quvchi (talaba) larga Koinotda sodir bo‘ladigan asosiy astronomik hodisalar bo‘yicha kengaytirilgan ma’lumotlar beriladi. Bunday ma’lumotlar asosida o‘quvchi (talaba) lar nazariy tomondan olgan bilimlari bo‘yicha yakuniy xulosalar qilishadi va umumnazariy ma’lumotlarning oshish va rivojlanishida ko‘mak beradi.

2) ko‘rgazmali (illyustrativ) astronomik kuzatishlar – bunda kuzatilayotgan samoviy obyekt to‘g‘risida yangi va to‘liq ma’lumotlar olish imkoniyati paydo bo‘ladi. Astronomiyada kirish kuzatishlari m’lum bir bo‘limni o‘tishdan oldin o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Ko‘rgazmali kuzatishlar esa odatda, ma’lum bir bo‘lim tugallanganidan keyin olib borilsa, nazariy tomondan olingan bilimlarni yanada mustahkamlash, ularni umumlashtirish, shu bilan birga xulosalar chiqarish uchun asos bo‘ladi va dars mashg‘uloti o‘zining maqsadiga erishgan bo‘ladi. Maqsadiga erishgan har qanday dars mashg‘uloti o‘zining ijobiy natijasini berishiga hech qanday shubha bo‘lmaydi.

Astronomik kuzatishlar paytida aynan bitta samoviy obyektning o‘zi kirish kuzatishlarini va ko‘rgazmali kuzatishlarni olib borish davrida o‘rganilishi mumkin.

Astronomiya fanidan ayniqsa, sferik astronomiya bo‘limini o‘quvchi (talaba) lar samarali o‘zlashtirishlarida astronomik kuzatishlarni olib borish muhim o‘rinni egallaydi.

Astronomik kuzatishlarning kirish kuzatishlarida quyida keltirilgan amaliy mazmunda qo‘yilgan masalalami ko‘rish hamda mustaqil ravishda tahlil qilib borish tavsiya etiladi: 1) osmon sferasi bilan frontal ravishda tanishtirish – osmon sferasi guruhlari, ya’ni yulduz turkumlari va yoritgich (yulduz) larning sutkaviy siljishi (paralaksi) ni o‘rganish; 2) kunduziy yulduz (Quyosh) ning ko‘rinma harakatini o‘rganish; 3) Yoritgichlarning ko‘rinma harakatini o‘rganish; 4) Hilol (Qamar, Oy) ning ko‘rinma harakatini o‘rganish; 5) Yupiter sayyorasining 4 ta yo‘ldoshlari (Galiley yo‘ldoshlari) va ulaming harakati o‘rganish; 6) kunduziy yulduz (Quyosh) gardishinmg aylanishini hamda fotosferada kuzatiladigan dog‘laming siljishi kuzatish; 7) yoritgichlarning rangini kuzatish va uning spektrlarini o‘rganish; 8) fizik qo‘shaloq bo‘lgan yulduzlarni kuzatish; 9) fizik o‘zgaruvchan bo‘lgan yulduzlarning yorqinliklari o‘zgarishini kuzatish; 10) Galaktikalar (yulduz to‘dalari) va tumanliklarni kuzatish; 11) Bizning galaktika (Somon yo‘li) ni va undagi

yoritgichlarni kuzatish. Albatta, yuqorida keltirilgan kuzatishlarning hammasini aynan bir kunda olib imkoniyati bo‘lmaydi.

Astronomik kuzatishlarning yana bir afzalligi shundaki, bunday kuzatishlar asosida olingan ma’lumotlarni mulohoza qilish barobarida, o‘quvchilarda samoviy jismlarning haqiqiy harakatlarini aniqlab olishlari muqarrarligiga yana bir marta ishonch hosil qilishadi, o‘quvchilar Koinotning haqiqiy tuzilishi va uning rivojlanishini bilib olishiga katta ishtiyoq paydo bo‘ladi. Binobarin, bizning Yer sayyoramiz ellipsoid (shar shakliga yaqin) shaklida ekanligi, Yer o‘zining aylanish o‘qi atrofida harakatlanishi bilan birga Quyosh atrofidagi harakatlanishi (265,2424 sutkalik davr bilan) o‘tkazilgan astronomik kuzatishlar asosida tushuntiriladi.

Astronomik kuzatishlar uchun maktab dasturida 4 soat vaqt ajratilgan bo‘lib, shundan 3 soati kechqurungi, 1 soati esa kunduzgi Quyoshni kuzatishga bag‘ishlanadi. Astronomik kuzatishlarni rejalashtirishda, kuzatish lozim bo‘lgan ob’ektlarning hammasini ma’lum bir vaqtda osmonda kechasi ko‘rishning iloji bo‘lmasligini unutmaslik kerak. Ma’lum bir joyda astronomik kuzatishlar uchun sharoitni e’tiborga olib, kuzatishlar rejasi o‘quv yili uchun mo‘ljallangan “Maktab astronomik kalendari” (Школьный астрономический календарь) dan hamda Астрономический календарь, переменная часть (yilnoma) dan foydalangan holda tuzilishi kerak bo‘ladi.

Astronomik kuzatishlarni, odatda 60÷90 kunlik oraliqdagi tanaffus bilan olib borish orqali o‘quvchilarga yulduzlar osmonining yilning turli fasllarida turlicha bo‘lishi tushuntiriladi, bunday o‘zgarishlar bizning Yer sayyoramiz Quyosh atrofidagi harakatining dalillaridan biri bo‘lgan Quyosh o‘zining ekliptika deb atalmish katta aylanasi bo‘ylab ko‘rinma harakatlanishi sababli ekanligi ularga tushuntirishni yanada osonlashtiradi.

Astronomiya fani boshlang‘ich darsining bir qismini, ya’ni osmon sferasining asosiy nuqtalari, chiziq va aylanalarini tushuntirishda, shuningdek asosiy yulduz turkumlarini o‘rganishda astronomik asboblar juda zarur bo‘lmaydi, qolgan astronomik kuzatishlar, maktablar uchun mo‘ljallangan refraktor teleskopi yoki Maksutovning meniskli reflektor teleskopi yordamida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Agar maktab Astronomiya kabinetlari har ikkala tur teleskopga ham ega bo‘lmasa, u holda astrnomik kuzatishlarni durbinda olib borish, maktabda astronomik kuzatishlarga qo‘yilgan talablarni ma’lum darajada qondira olish imkonini beradi. Kechki astronomik kuzatishlarni A.A. Mixaylovning “Звёздный атлас” idan va A.D.Marlenskiyning “O‘quv yulduzlari atlasi” dan foydalangan holda olib borish, xohlagan yulduz turkumlarini osmon sferasida topishni va ular orqali astronomik kuzatish uchun mo‘ljallangan samoviy jism (sayyora, fizik o‘zgaruvchan yulduz yoki tumanliklar) holatini aniqlashimizni osonlashtiradi.

Metodik adabiyotlarda kechqurungi kuzatishlarni quyidagicha rejalashtirishni tavsiya qiladi:

Birinchi (kechki) kuzatish darsi:

1. O‘quvchilarni osmon sferasining asosiy nuqtasi, chiziq va aylanalari bilan tanishtirish, Kichik ayiq yulduz turkumi α sini (Qutb yulduzi) topish va gorizontning tomonlarini aniqlash. Osmonning surilma xaritasidan foydalangan holda yorug‘ yulduzlarga ega bo‘lgan yulduz turkumlarini topish;
2. Yulduzlarning sutkalik ko‘rinma harakatlarini kuzatish, kulminatsiyalarini aniqlash;
3. Qutb yulduzini topish, joyning geografik kengligini aniqlash;
4. Asosiy yulduz turkumlarining konturlari (chegaralari) va ularni gorizontga nisbatan joylashishlarini kuzatish payti uchun aniqlash;
5. 2÷3 yulduz ravshanligini baholash;
6. Somon Yo‘lini hamda undagi yulduzlarni va kuzatish paytida osmonda ko‘rinishi mumkin bo‘lgan sayyoralarni kuzatish.

Ikkinchi kechki kuzatish darsi:

1. Surilma xaritadan foydalanib, osmonda oriyentasiya (yo‘naltirish) qilishni o‘rganish. Yulduzlarning vaziyatlariga nisbatan Oyning o‘rnini aniqlash va uni teleskopda kuzatish;
2. Asosiy yulduz turkumlarining kontur (chegara) larini o‘rganish (1-kechki kuzatish qo‘shimcha);
3. Yoritgichlarning rangi va yorqinligini vizual baholash;
4. Teleskoplarda Quyosh tizimi sayyoralarini kuzatish osmon sferasidagi o‘rinlarini aniqlash. Teleskop yordamida Yupiterning 4 ta tabiiy yo‘ldoshlarini kuzatish (Galiley yo‘ldoshlari).

Uchinchi (kunduzgi) kuzatish darsi:

Bu dars Quyoshni kuzatishga bag‘ishlangan bo‘lib, bunday kuzatish dasturini quyidagicha rejalashtirish mumkin:

1. Quyosh diskini chetga tomon qorayishini kuzatish;
2. Fotosfera mashallarini kuzatish;
3. Dog‘larni kuzatish

To‘rtinchi (kechki) kuzatish darsi:

1. Surilma xaritadan foydalanib, yulduzlarga qarab oriyentasiyalanishini va asosiy yulduz turkumlarini konturlarini o‘rganish (1- va 2-kechki kuzatishlarga qo‘shimcha);
2. Sayyoralarning yulduzlarga nisbatan vaziyatlarini aniqlash hamda Oy va sayyoralarni teleskopda kuzatish yo‘li bilan ulardagi ayrim detallarning konturlarini chizmada aks ettirish;

3. Teleskop yordamida ayrim qo‘shaloq yulduzlarni, ravshan yulduzlar to‘dalarini va tumanliklarni kuzatish.

Kechki astronomik kuzatishlarning birinchi qismini umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun mo‘ljallangan Astronomiya darsligining “Kirish” qismini yakunlagandan so‘ng, “Osmon sferasining asosiy elementlari” va “Quyosh tizimi sayyoralarining astronomik tabiati” mavzulari o‘tilgandan so‘ng ikkinchi astronomik kuzatishlarni, oxirgi uchinchi kunduzgi astronomik kuzatishni esa “Quyosh va yulduzlar” qismidan “Quyosh” mavzusini o‘tib bo‘lingach va nihoyat, to‘rtinchi kechki kuzatishni “Koinotning tuzilishi” mavzusidan so‘ng uyushtirish, nazariy bilimlarni mustahkamlashda yetarlicha katta samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kamolov I., Omonboyeva M., Mansurova Sh. Exploring the scientifik legacy of great scientists in mathematics and astronomy. “Academia science” ilmiy-tadqiqotlar markazi. UzAcademia ilmiy-uslubiy jurnali. Toshkent. 361-364 b. 2020.

2. Kamalova Dilnavoz, Ravshanova Saodat. Problems of teaching astronomy at school. «Analytical journal of education and development». Volume 01. Issue 01. July 15. 2021. pp. 36-40.

3. Kamalova Dilnavoz, Omonboyeva Meruyert, Abdisalomova Sanobar. Uzluksiz ta’lim tizimida astronomiya ta’lim standartining tutgan o‘rni. “Science and innovation” International scientific journal. Volume 1. Issue 8. December. 2022. 1982-1985 бет.

4. Kamalova Dilnavoz, Omonboeva Meruert, Kamolov Ikhtiyor. Methodology of application of innovative educational technologies to the process of physics and astronomy education. “International Journal of Early Childhood Special Education”. (INT-JECSE). DOI:10.9756/INTJECSE/V14I6.267 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 06 2022. pp. 2144-2146.

O‘SMIRLIK DAVRIDA XULQ-ATVOR MOTIVATSIYASINING O‘ZIGA XOSLIGI VA MOTIVATSIYA

Zokirjonova Shahlo
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti
Pedagogika va psixologiya fakulteti 201-guruh magistri
https://doi.org/10.5281/zenodo.7586221

Annotatsiya: Maqola mazmuni umumiy psixologiya fanining dolzarb muammolaridan biri o‘smirlik davrining xulq-atvor motivatsiyasiga bag‘ishlangan. Maqolada o‘smirlik davrining xulq-atvor motivatsiyasini o‘rganishning nazariy va amaliy masalalari yoritilgan. Muallif o‘smirlik davrining xulq-atvor motivatsiyasining nazariy masalalarini bayon etgan. Buning uchun o‘smirlikning xulq-atvor motivatsiyasilari masalasini psixologlar tomonidan o‘rganilganligiga e’tibor qaratgan.

Tayanch iboralar: motivatsiya, xulq-atvor, motiv, rag‘batlantirish, motivatsion soha, shaxsiy yondashuv, o‘zaro munosabatlar

Аннотация: Содержание статьи посвящено поведенческой мотивации подросткового возраста, одной из актуальнейших проблем общей психологии. В статье рассматриваются теоретические и практические вопросы изучения поведенческой мотивации подросткового возраста. Автор описывает теоретические вопросы поведенческой мотивации в подростковом возрасте. Для этого он отметил, что вопрос поведенческой мотивации в подростковом возрасте изучается психологами.

Ключевые слова: мотивация, поведение, мотив, мотивация, мотивационное поле, личностный подход, взаимодействие.

Annotation: The content of the article is devoted to the behavioral motivation of adolescence, one of the most pressing problems of general psychology. The article deals with theoretical and practical issues of studying the behavioral motivation of adolescence. The author describes the theoretical issues of behavioral motivation in adolescence. To do this, he noted that the issue of behavioral motivation in adolescence has been studied by psychologists.

Keywords: motivation, behavior, motive, motivation, motivational field, personal approach, interaction.

Motivatsiya psixologiyasi mehnatning asosiy obyekti inson (shifokorlar, o‘qituvchilar, menejerlar, rahbarlar va boshqalar) bo‘lgan ijtimoiy tipdagi kasblar vakillari uchun alohida ahamiyatga ega. Mohiyatan, inson bilan - shu jumladan, bola, o‘smir, yigit bilan ijtimoiy-pedagogik o‘zaro munosabatlar uning motivatsiyasining

o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan turib, samarali ijtimoiy o‘zaro munosabatni amalga oshirish mumkin emas. Obyektiv ravishda mutlaqo bir xil harakatlar, shaxsning harakatlari orqasida butunlay boshqa sabablar bo‘lishi mumkin, ya’ni. bu harakatlarning rag‘batlantirish manbalari, ularning motivatsiyasi butunlay boshqacha bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy o‘smir shaxsining motivatsion sohasini shakllantirish muammosi hozirgi ijtimoiy rivojlanish sharoitida psixologiya fanida ayniqsa dolzarb bo‘lib qolmoqda. Psixologik-pedagogika fanida shaxsiy yondashuvning o‘sishi shaxsning motivatsion sohasiga, kasbiy rivojlanishda uni shakllantirish omillari, sharoitlari va vositalariga chuqur qiziqish uyg‘otdi. O‘smir shaxsining motivatsion sohasini o‘rganish muammosi eng ko‘p talab qilinadi, chunki. ko‘pgina qadriyat yo‘nalishlarining ahamiyatini qayta baholash, jamiyatdagi o‘z o‘rnini qayta ko‘rib chiqish, hayot natijalari uchun mas'uliyatni o‘z zimmasiga olish shaxs motivlarida yashiringan bo‘lib, nafaqat bilimni, balki ularni shakllantirishni boshqarishni ham talab qiladi.

Shaxsning motivatsion sohasini o‘rganishning o‘ziga xosligi shundan iboratki, so‘nggi paytlarda psixologlar K.A.Abulxanova-Slavskaya, E.P.Ilyin, V.G.Leontiev, A.K.Markova VD Shadrikov va boshqalar o‘rtasida xatti-harakatlar va shaxsiyat faoliyati motivatsiyasiga qiziqish ortib borayotganiga qaramay. hozirgi kunga qadar ushbu hodisaning psixologik tabiati masalasi munozarali masalalardan biri bo‘lib qolmoqda va chuqur nazariy va uslubiy o‘rganishni talab qiladi. Shaxsning ehtiyoj-motivatsion sohasi qadimgi yunon falsafasi davridan boshlab, zamonaviylik bilan yakunlangan faylasuflarning diqqat-e’tiborida bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi Aristotel, I. Kant, N. A. Berdyaev, R. Dekart, M. Monten, Platon. , G. Riker izlanishlarida empirik psixologiya va motivatsiya xususida fikrlar bayon etilgan. K. Buhler, E. Thorndike, E. Spranger, Z. Freyd, K. Levin tadqiqotlarida, shuningdek, rus psixologiyasi tarixi -P.K. Anoxin, P.P. Blonsky, L.I. Bojovich, L.S. Vygotskiy , KN Kornilov, PF Kapterev, VV Merlin, II Pirogov, IA Sikorsky, AA Ukhtomsky ijodlarida o‘smir psixologik motivatsiyasiga e’tibor berilgan. Xorijiy psixologiya vakillari - A. Maslow, G. Allport, K. Rogers izlanishlarida va mahalliy psixologiyada "shaxsning motivatsion sohasi" toifasi ko‘pchilikda shaxs kontekstida ko‘rib chiqiladi.

Motivatsiya va shaxsning motivatsion sohasini nazariy tahlil qilish va o‘rganish tushunchalar va metodologik asoslardan foydalanishni talab qildi. Muammoning nazariy tahlili shaxsning motivatsion sohasi umuman shaxsiy rivojlanish jarayonini belgilaydigan tarkibiy va yaxlit shakllanish ekanligi haqidagi tadqiqot gipotezasini shakllantirishga imkon berdi.

Motivatsiya tushunchasi

Psixologiya uchun boshqa fanlar - falsafa, fiziologiya, kibernetikaga qaraganda ko‘proq tabiiy til tushunchalarini izohlash zarurati mavjud. Ehtimol, bu motiv,

motivatsiya tushunchasida eng aniq namoyon bo‘ladi. "Umumiy psixologiya" lug‘atida motivatsiya organizm faoliyatini qo‘zg‘atuvchi va uning yo‘nalishini belgilovchi impulslar deb ta’riflanadi. Motivatsiya shaxs faoliyatini, uning xulq-atvori va faoliyatini tartibga solishning etakchi omili sifatida barcha odamlar uchun alohida qiziqish uyg‘otadi.

Motivatsiya - odamni harakatlarni bajarishga undaydigan rag‘batlantirish tizimi.

Baxt - bu har doim xohlagan narsani qilish emas, balki doim qilayotganingni xohlashdir (Lev Tolstoy).

Motivatsiya - bu fiziologik xarakterdagi dinamik jarayon bo‘lib, u individual ruhiyat tomonidan boshqariladi va hissiy va xulq -atvor darajasida namoyon bo‘ladi.

Birinchi marta "motivatsiya" tushunchasi A. Shopengauer ijodida ishlatilgan. Motivatsiya tushunchalari Motivatsiyani o‘rganish psixologlar, sotsiologlar, o‘qituvchilarni o‘rganishning dolzarb masalalaridan biri bo‘lishiga qaramay, hozirgi kunga qadar bu hodisaning yagona ta’rifi yo‘q. Motivatsiya hodisasini tushuntirishga, savollarga javob berishga ilmiy asosda harakat qiladigan, bir -biriga zid bo‘lgan juda ko‘p farazlar mavjud. nima uchun va nima uchun odam harakat qiladi; shaxsning faoliyati nimaga qaratilgan? nima uchun va qanday qilib odam muayyan harakat strategiyasini tanlaydi; shaxs qanday natijalarni kutadi, ularning inson uchun sub'ektiv ahamiyati; nima uchun boshqalarga qaraganda ko‘proq g‘ayratli odamlar, xuddi shunday qobiliyatga ega bo‘lgan va bir xil imkoniyatlarga ega bo‘lgan sohalarda muvaffaqiyat qozonishadi. Bir guruh psixologlar ichki motivatsiyaning asosiy roli haqidagi nazariyani - insonning xatti - harakatlarini boshqaruvchi tug‘ma, orttirilgan mexanizmlarni himoya qiladi. Boshqa olimlarning fikricha, motivatsiyaning asosiy sababi odamga tashqi muhitdan ta’sir etuvchi muhim tashqi omillardir. Uchinchi guruhning diqqat - e’tibori asosiy sabablarni o‘rganishga va ularni tug‘ma va orttirilgan omillarga tizimlashtirishga qaratilgan. Tadqiqotning to‘rtinchi yo‘nalishi - motivatsiyaning mohiyati haqidagi savolni o‘rganish: ma’lum bir maqsadga erishish uchun odamning xatti -harakatlariga yo‘naltirishning asosiy sababi yoki boshqa omillar tomonidan boshqariladigan faoliyat uchun energiya manbai sifatida. Ko‘pgina olimlar motivatsiya tushunchasini insonning xulq -atvorini belgilaydigan ichki omillar va tashqi stimullarning birligiga asoslangan tizim sifatida ta’riflaydilar: harakat yo‘nalishi vektori; xotirjamlik, maqsadga muvofiqlik, izchillik, harakatlar; faollik va qat’iyatlilik; tanlangan maqsadlarning barqarorligi. Ehtiyoj, maqsad, maqsad Motiv atamasi psixologiyaning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, olimlar tomonidan turli nazariyalar doirasida har xil tushuniladi. Motiv (harakat) - bu moddiy xususiyatga ega bo‘lmagan shartli ideal obyekt, unga erishish uchun shaxsning faoliyati yo‘naltirilgan.

Motivni shaxs o‘ziga xos tajriba sifatida qabul qiladi, uni ehtiyojlar maqsadiga erishishni kutishdan ijobiy hislar sifatida tavsiflash mumkin. salbiy his -tuyg‘ular

hozirgi vaziyatdan norozilik yoki to‘liq qoniqmaslik fonida paydo bo‘lgan. Muayyan motivni ajratish va amalga oshirish uchun odam ichki maqsadli ishni bajarishi kerak. Motivning eng oddiy ta’rifi A. N. Leontiev va S. L. Rubinshteyn tomonidan faoliyat nazariyasida keltirilgan. Etakchi olimlarning xulosasiga ko‘ra: motiv - bu sub'ektning aqliy, "obyektiv" ehtiyoji. Motiv mohiyatiga ko‘ra ehtiyoj va maqsad tushunchalaridan farqli hodisa.

Ehtiyoj - bu odamning mavjud noqulaylikdan xalos bo‘lishga bo‘lgan ongsiz istagi. Maqsad - bu ongli maqsadli harakatlarning kerakli natijasidir. Masalan: ochlik - bu tabiiy ehtiyoj, ovqatlanish istagi - motiv, ishtahani ochuvchi shnitsel - maqsad. Motivatsiya turlari - Zamonaviy psixologiyada ular qo‘llaniladi har xil yo‘llar motivatsiyaning tasnifi. Ekstremal va ichki Haddan tashqari motivatsiya (tashqi) - harakatga bog‘liq bo‘lgan motivlar guruhi tashqi omillar obyektga: muayyan faoliyat mazmuni bilan bog‘liq bo‘lmagan holatlar, shartlar, rag‘batlantirish. Ichki motivatsiya(ichki) bor ichki sabablar shaxsning hayotiy pozitsiyasi bilan bog‘liq: ehtiyojlar, istaklar, intilishlar, intilishlar, qiziqishlar, munosabatlar. Ichki motivatsiya bilan, odam tashqi sharoitlarni hisobga olmagan holda "ixtiyoriy" tarzda harakat qiladi va harakat qiladi. Motivatsiyaning bunday bo‘linishi maqsadga muvofiqligi haqidagi munozara mavzusi X. Xekxauzen ijodida muqaddas qilingan, garchi zamonaviy psixologiya nuqtai nazaridan bunday munozaralar asossiz va murosasizdir. Inson jamiyatning faol a’zosi bo‘lib, qarorlar va harakatlarni tanlashda atrofdagi jamiyat ta’siridan to‘liq mustaqil bo‘la olmaydi. Ijobiy va salbiy Ijobiy va salbiy motivatsiyani ajrating. Birinchi tur ijobiy rag‘bat va umidlarga asoslangan, ikkinchisi - salbiy. Ijobiy motivatsiyaga misollar konstruktsiyalardir: "agar men biror harakat qilsam, qandaydir mukofot olaman", "agar men bu harakatlarni bajarmasam, mukofot olaman". Salbiy motivatsiyaga misollar jumlalarni o‘z ichiga oladi; "Agar men buni qilsam, men jazolanmayman", "agar men bunday qilmasam, jazolanmayman". Boshqacha qilib aytganda, asosiy farq - bu birinchi holatlarda ijobiy kuchlanishni kutish, ikkinchisida esa salbiy. Barqaror va beqaror Barqaror motivatsiyaning asoslari - bu shaxsning ehtiyojlari va talablari bo‘lib, uni qondirish uchun shaxs qo‘shimcha kuchaytirishga hojat qoldirmasdan ongli harakatlarni amalga oshiradi. Masalan: ochlikni qondirish, gipotermiyadan keyin iliqlikni saqlash. Turg‘un motivatsiya bilan odam doimiy qo‘llab -quvvatlashga, tashqi stimullarga muhtoj. Masalan: zerikarli kilogrammni yo‘qoting, chekishni tashlang. Psixologlar, shuningdek, "tayoqdan sabzigacha" deb nomlangan turg‘un va turg‘un motivatsiyaning ikkita kichik turini ajratib ko‘rsatishadi, ularning farqlari misol bilan tasvirlangan: Men ortiqcha vazndan qutulishga va jozibali shakllarga erishishga intilaman.

Qo‘shimcha tasnif Motivatsiyaning kichik turlarga bo‘linishi mavjud: individual, guruhli, kognitiv. Shaxsiy motivatsiya inson tanasining hayotiy faoliyatini

ta’minlash va gomeostazni saqlashga qaratilgan ehtiyojlar, rag‘bat va maqsadlarni birlashtiradi. Misollar: ochlik, chanqoqlik, og‘riqdan saqlanish istagi, optimal haroratni ta’minlash. Hodisalarga guruh motivatsiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: bolalarga ota -ona g‘amxo‘rligi, jamiyat tomonidan tan olinishi uchun faoliyat turini tanlash, davlat tuzilishini saqlash. Misollar kognitiv motivatsiya harakat: tadqiqot faoliyati, bolaning o‘yin jarayoni orqali bilim olishi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlik davri bola shaxsini shakllanishida asosiy bosqichlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shunday ekan ota-onalardan, pedagoglardan, atrofdagilardan o‘smirlarga e’tiborli bo‘lish talab etiladi. O‘smirlik yoshining o‘ziga xosxususiyatlari kattalardan ularga nisbatan jiddiy munosabatda bo‘lish lozimligini taqozo qiladi. Kattalar ular faoliyatini nazorat qilishlari, faoliyat motivlarini doimo e’tibordan chiqarib qo‘ymasliklari lozim, aks holda o‘smir hayotida noxush xususiyatlarning paydo bo‘lishi ham mumkin. Shuning uchun o‘smirlik yoshi bola taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, o‘smirlik yoshida bolada kattalik hissini tarkib topishida o‘z-o‘zini anglashning ahamiyati va roli kuchaya boradi. Demak, mana shu davrda bola muhit o‘rtasidagi munosabatning yangi tipini belgilovchi taraqqiyotning ichki faktorlari borgan sari ko‘proq ahamiyat qozona boshlaydi. O‘smiro‘z-o‘zinitarbiyalash va o‘z-o‘zini o‘stirish orqali mustaqil o‘sish qobilyatiga ega bo‘lib qoladi.

O‘smirning shaxs sifatida taraqqiyotida ikki xil holat kuzatiladi: bir tomondan, boshqalar, tengqurlar bilan yaqinrok aloqada bo‘lishga intilish, guruh normalariga bo‘ysunish, ikkinchi tomondan, mustaqillikning oshishi hisobiga bola ichki ruhiy olamida ayrim qiyinchiliklar kuzatiladi. O‘zgalarni anglash bilan o‘z- o‘zini anglash o‘rtasida ham qarama-qarshiliklar paydo bo‘ladi. Ko‘pincha o‘smir o‘z imkoniyatlarini yuqori baholaydi, boshqalar esa uning kuchi, irodasi va salohiyatiga ishonchsizlik bilan qaraydi. Lekin shunday bo‘lsa-da, o‘zini nima qilib bo‘lsa ham hech bo‘lmaganda tengqurlar jamiyati tomonidan tan olinishiga erishishga intiladi va ular bilan muloqot hayotining ma’nosiga aylanib qoladi. Agar mabodo o‘smir shu davrda biror sabab bilan tengqurlari jamiyati tomonidan inkor qilinsa, u bunga juda katta mudxish voqeaday qaraydi, maktabga bormay qo‘yishi, hattoki, suitsidal harakatlar (o‘z joniga qasd qilish) ni ham sodir etishi mumkin.

O‘smirlik davridagi qiyinchiliklarning oldini olishning eng ishnochli va foydali yo‘li – bu uning biror narsaga turg‘un qiziqishiga erishish, faoliyat motivlarini mazmunliroq qilishdir. Masalan, shu davrda texnikaga qiziqib qolgan bola qiziqishini qondirish shart-sharoitining yaratilishi, bekor qolmasligiga erishish, har bir harakatini rag‘batlantirish, unga bir ish qo‘lidan keladigan odamday munosabatda bo‘lish katta pedagogik ahamiyatga ega. Uning qiziqishlarini bila turib, oldiga yangidan yangi

maqsadlar qo‘yish- bola shaxsining rivojiga asosdir. Shundagina uning o‘z «Men»i to‘g‘risidagi tasavvurlari ijobiy, o‘z-o‘ziga bahosi obyektiv va adolatli bo‘ladi, o‘zining nimalarga qodirligi va kim ekanligi haqida yaxshi fikrlar paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – Toshkent.: O‘zbekiston, 1997. T.5. -384 b.
2. Sh.M.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. 1 tom. – T.:O‘zbekiston, 2017.505 bet.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. -T.: O‘zbekiston, 2-jild, 2018. 251-bet.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T., 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining Murojaatnomasi. -T., 2020.
6. M.X.Toshbekova. Factors for Overcoming Ideological Threats in Globalization. 2020
7. Xaydarov F.I., Xalilova N. “Umumiy psixologiya”. T.: “Fan va texnologiyalar” markazining bosmaxonasi : 2009.
8. G‘oziev E.G‘. “Ontogenez psixologiyasi”.-T.: Nashr. 2010.
9. Dusmuhamedova Sh.A.,Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh. K., Alimbaeva Sh.T.“Yosh va pedagogik psixologiya” T. TDPU, 2013.
10. NishonovaZ.T., AlimbaevaSh.T., SulaymonovM. “Psixologikxizmat”.T. “Fan va texnologiyalar” nashriyoti 2014 y.
11. Nemov R.S. Psixologiya.M.: Vlados, 2003. 1-2-t.
12. N.S.Safaev, N.A.Mirashirova, N.G.Odilova “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti”: o‘quvqo‘llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
13. www. Tdpu.uz.
14. www. pedagog. uz
15. www. ziyonet. uz
16. www.lex.uz;
17. https://dialogue-irk.ru/uz/osnovnye-sredstva/kak-vyrazhaetsya-motiv-motiv vidy-i-funkcii-motivov-polozhitelnaya-i-otricatelnaya/

ОБРАЗ КАМАЛИДДИНА БЕХЗАДА В ПРОИЗВЕДЕНИЕ МАСТЕРОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА УЗБЕКИСТАНА

Кутлуғжон Иноятов
доктор исторических наук, профессор кафедры «Общественных наук, профессионального образования и педагогики» Национального института Художеств и дизайна имени Камолиддина Бехзода, Академик А.Н. Турона
https://doi.org/10.5281/zenodo.7586229

Аннотация: Мақола Шарқнинг ўрта асрлар мусаввири Камолиддин Беҳзоднинг тасвирий санъатдаги асарлари тўғрисидаги мулоҳазаларга ва уларнинг бадиий –тарихий таҳлилига.
Калит сўзлари: Камолиддин Беҳзод, рамзилик, ижодкорлик, компациция тус, ранг ва пластика.
Аннотация: Статья посвящена размышлениям и историко-художественному анализу произведений изобразительного искуства, посвященных средневековому художнику Востока Камалиддину Бехзоду.
Ключевея слова: Камолиддин Бехзод, символика, творчество, композиция, тон, цвет и пластика.
Abstrgct: The article is devoyed to the thoughts and historic of works an the arts dedicated to Kamoliddin Behzod, The medieval of the East
Key words: Kamoliddin Behzod, symbolism, creative, composition, composition, linghtcolours, colours and plastic.

В произведенниях узбекски художников образ основоположника восточной миниатюры Камалиддина Бехзада раскрыт ярко и убедитедьно. Как известно, своим творчеством он внес огромный вклад в историю культуры не только востока, но и всего мира.

Камалиддина Бехзад родился в 1455 году, в городе Герате, в семье бедного ремесланника. Он рано осиротел и воспитывался главой дворцовой библотеки Хусайна Байкары, известным художником Мираком Наккашем. В эти годы он постигал секреты изобразительного искуства своего времени. «Учителем Мирака Наккаша являлся Пир Сейид Ахмед Тебрези, а тот в свое время учился у бухарского мастера Джахонгира».

Камалиддина Бехзад быстро завоетвал признание у своих современников, художников и таких поэтов, как Абдурахман Джами, Лутфи и Алишер Навои. Этому периоду его жизни посвящено произведение известного художника Джавлона Умарбекова «Миниатюрист Мирак Наккаш с учениками».

Весна –пора пробуждения жизни, пора цветения. Держа в руке цветок, учитель объястняет ученикам, что цветок является частью природы и вырожает символы чистоты, нежности и гармонии. Цветок прекрасен и олицетворяет собой жизнь. Камалиддина Бехзад внимательно слушает каждое слово учителя.

Естественно, что после такого урока будущий известным миниатюрист начинает иначе воспринимать весну и связанное с ней обновление в природе, видеть в ней пору юности, расцвета и надежды. Глядя на мир глазами молодого художника, Камалиддина Бехзад испытывает волнующие чувства, которые в дальнейшем найдут воплощение в его прекрсных произведениях.

Каждое мгновение жизни учит его ценить красоту природы. Цветы, узоры ветвей, все гармонирует с состоянием его души. На первом плане картины Дж.Умарбекова изображена цветущая ветка с множеством мелких цветков. На ней сидит певчая птица, символизирующая связь человека с природой.

На фоне картины написаны скачищие вдаль кони, выражающие творческий полет мысли художника, стремительность движения вперед, к победе человеческого духа. Все это изображено на картине реалистично, образы одухотворены.

Произведение создано в теплых, золотистых тонах. Художник красиво состовил цветовую гамму картины и верно отобразил личность героев.Хорошо продумана ее композиция, удачно решен колорит, в едином ключе написаны одежда и детали растений.

Радует изящество и грамотность, с каким художник сумел связать изобразительные языки восточной миниатюры и западноевропейской художественной школы. Это говорит о высоком мастерстве художника и умение передать на полотне свои мысли и чувства посредством кисти и красок.

Образ 12-летнего Камалиддина Бехзада воплотила в передать на полотне своем произведении «Юный Бехзад» художница Азизы Маматовой.

С картины на нас смотрит задумчиво подросток. Его взгляд олицетворяет юность и благородство духа. Одежда сшита из изумрудного цвета ткани с вкраплениями алого. Во взгляде отражено состояние его души.

Безбрежное пространнство небеес окутывает его мир подобно сияющему покрывалу, где вода и воздух сошлись в одном дыхании. Символы, окпужающие его, словна светятся изнутри, говоря об общечеловесческих ценностях.

Птица Феникс – символ жизни. Каждый раз, заново возраждаясь из пепла, она напоминает о круговерти природы. Крылатый белый конь – символ творчества и вдохновения, серебристо-белая форель также является символом чистоты, ясности ума и благородных целей.

Полумесяц говорит о культуре страны, где рос и развивался Камалиддин Бехзад, как творческая личность и подарил миру свои бесценные произведения. Гармонично и тонко найден небесно-синиий цвет, вобравший в себя бирюзу, лазурь и аквамарин.

Художница в полной мере исполнила свой замысел, создав образ юного мастера.

Со времен Зороастризма до нас дошло имя великого художника Мани. Камалиддина Бехзада, за его совершенное искусство, современники прозвали вторым Мани, а европейцы его называли восточным Рафаэлем. Также его называли “Предводитель художников”.

Как художник Камалиддин Бехзад сложился в эпоху правления Хусейна Байкары (1438-1506), когда наука, культура и литература Герата по настоящему расцвели, благодаря покровительству великого поэта и просветителя Алишера Навои.

А.Навои сыграл решающую роль в сановление Камалиддина Бехзада, как художника. С ним он познакомился, будучи подростком.

Картина Тимура Сагдуллаев – “Диалог поэта Алишера Навои с миниатрюристом Камалиддином Бехзадом”, изображает одну из их встреч. Образ Алишера Навои написан художником с миниатюры Махмуда Муззахиба. Ученика Камалиддин Бехзада. Великий поэт стоит, опершись обеими руками на посох.

Его тонкое лицо светится умом, а глубокий взгляд устремлен на молодого художника, который держит в одной руке папку со своими миниатюрами, а в другой руке готовую книгу, которую он преподносит поэту.

Произведение написано в монохромной гамме. Янтарный цвет, в котором решен колорит картиры, передан с болтшим мастерством.

Кажущаяся простота композиции это, прежде всего деликатная гармония цвета и линии. Ничто ни диссонирует и не выпадает из поля зрения художника. Общее состояние картины сгармонирована.

По выражению лиц героев, их глаз и движению рук, зритель может ясно определить глубину их чувств.

Если внимательно рассмотреть картину, то нам откроется мир одухотворенных личностей. Спускающиеся рукава одежды у Алишера Навои, закрывают кисти рук, символизируя прожитую плодотворно жизнь. Книга в руках у Камалиддин Бехзада – сборник знаний и мудрости, а весеннее цветущее дерево отождествляет собой единение душ поэта и художника.

Скульптурное произведение Джалалиддина Миртожиева “Камалиддин Бехзад”, создано в 2011 году. Он поставлен рядом с музеем, посвященным этому великому мастеру средневековой миниатрюры.

Немного вытянутые пропорцин скульптуры, с изящным движением приподнятой руки, держащей кисть, а в другой, лист бумаги –остро выражают саму сусть этой творческой личности и его утонченную натуру.

Все многочисленные светотеневые перетекания, ритмические вариации, вылеплены, как оттенки движения одухотворенной материи.

И в тоже время, скульптор Дж. Миртожиев передает в своем произведенни не мгновенность, а длительную протяженность во времени, строгую, кристальную архитектонничность, а так же широту и зрелость выношенной, отстоявшейся систамы представлений о Камалиддине Бехзаде.

Это произведение сочетает классическую чистоту и строгость стиля с неповторимой оригинальностью.

В 2008 году, художником Мирхамидом Собировым, в музее имени Камалиддина Бехзада Академии художеств Узбекистана, была создана роспись, посвященная творчеству этого крупнейшего миниатюриста.

Композиция росписи вертикальна и с двух сторон в нее введен, за исключеним образа Камалиддина Бехзада и сидящей на расписном коврике музы, в основном, написано холодными цветами, роспись богато орнаментирована геометрическими и растительными узорами.

С большой любовью написан фон произведения, на котором проступают образы легендарного героя Авесты –художника Мани и древнего Кушанского царя Канишки. А круг орнамента, который расписывает, в узорчатом халате ярко карминового цвета Камалиддин Бехзад, символизирует время и преемственноссть культур.

За спиной у художника написан цветущий сад. Прекрасная девушка в образе музы, в расписном, золотистом одеянии, на поднятых руках разглядывает бутон розы.

На самом верху росписи парит мифическая птица Семург, олицетворяющая полет фантазии. Вся роспись, очень красива а цвете и дышит радостью творчесного труда. Чувствуется, что автор написал свое произведение с большим вдохновением.

Это роспись, является одним из самых красивых произведений исторического жанра изобразительного скусства созданного нашим современником и звучит как гимн, посвященный великому художнику – миниатрюристу средневековья Камалиддину Бехзаду.

В творчестве Дж.Умарбекова, А.Маматовой, Т.Сагдуллаева, Дж. Миртожиева и М.Собирова ярко выражены тенденции, в которых выражается органичное усвоение художественного опыта предшествующих поколений. Сохраняется преемственные связи между прошлым и настоящим. Сила профессиональных произведении в их непосредственном и глубоком

впечатление на зрителя. Недаром классик узбекской литературы Абдулла Кадыри писал: “Жаль что я не художник. Если бы у меня было дарованние художника, я не стал бы коверкать и мучить слова, а нарисовал бы вам портреты моих героев”.

Список использованной литературы:

1. Kazi Ahmad. Atreecuse on caxxegraphers and artists. Jntoduction by Zamhoder B. –M-L-1947
2. Ahmedov Javlon Umarbekovning ijodkorlik dunyosi / San’at. 2016 yil 3-son.
3. K.Inoyatov. The image of K/Bekhod ing the works of Uzbek masters of fine arts.Crech Journal Multi disciplinary Jnovations Volume 4 Aprel, 2022.71-75-page.

DINIY BAG‘RIKENGLIK – TINCHLIK POYDEVORI

Mahmudxon Muhriddinxon o‘g‘li Dovidxonov
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Toshkent viloyat bo'limi bosh mutaxassisi
mahmudxondovidxonov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7586235

Annotatsiya: O‘zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o‘z e’tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o‘rtasida qadimiy mushtarak an’analarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Ushbu maqolada O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik an’analari to‘g‘risida fikrlar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, vijdon erkinligi, millat, din.

RELIGIOUS GARDEN RICHNESS IS THE FOUNDATION OF PEACE

Mahmudkhon Dovidkhonov
Republican Spirituality and Enlightenment Center
Chief specialist of the Tashkent region department
mahmudkhondovidkhonov@gmail.com

Abstract: In Uzbekistan, efforts are being made to protect different religious affiliations, to create the necessary conditions for all citizens to practice their faith, to further improve inter-religious harmony, and to exchange ancient customs between them. Three articles provide information about traditions of inter-ethnic harmony and religious tolerance in Uzbekistan.

Key words: interethnic harmony, religious tolerance, freedom of conscience, nation, religion.

Ma’lumki O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekiston hududi qadim asrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo‘lgan, xilma-xil dinlarga e’tiqod qiluvchi, bir-biriga o‘xshash bo‘lmagan bir necha xalqlar yashagan o‘lkadir. O‘zbekistonning geografik nuqtai nazaridan muhim savdo yo‘llari chorrahasida joylashgani, ko‘plab davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar qilgani, turli xalqlarning diniy va ma’naviy hayotiga, shuningdek, Movarounnahrdagi urf-odatlar ham o‘zga yurtlar madaniyati rivojiga salmoqli ta’sir ko‘rsatgan. Bu esa o‘ziga xos millatlararo ham

jihatlik va diniy bag‘rikenglikni shakllantirishdagi asosiy omillardan biri bo`lib xizmat qilgan. Xalqimizning etnik, madaniy va diniy sabr-bardoshi ma’naviy uyg‘onishning yana bir bitmas-tuganmas manbaidir. Ming yillar mobaynida Markaziy Osiyo g‘oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan, tinch-totuv yashagan markaz bo`lib keldi. Etnik sabr-toqat, bag‘rikenglik, hayot bo‘ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me’yorlarga aylandi. Hatto bu hududlarni bosib olganlar ham Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati oldida bosh egibgina qolmay, uning eng qimmatbaho an’analarini, shu hududda mavjud bo`lgan davlatchilik an’analarini avaylab qabul qilganlar. Ayni shu zaminda ko‘p asrlar mobaynida jahon madaniyatlari dunyo miqyosida bir-birini boyitgan. Bu yerda ko‘chmanchi xalqlar o‘troq xalqlar bilan, eronlik qabilalar bilan, musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar bilan ko‘p asrlar birga yashab kelganlar. So‘nggi ikki asr davomida ham o‘zlarini “madaniyatli” va “ma’rifatli” hisoblab kelgan davlatlar ommaviy qirg‘inlar va diniy ta’qiblar bilan o‘zlariga dog‘ tushirgan bir paytda, O‘zbekiston zamini xalqlar va madaniyatlar tinch joylashgan bir joygina bo‘lib qolmay, balki quvg`in qilingan xalqlarga boshpana ham berdi.

Hech kimga sir emaski, bugungi kunda turli dinlar va madaniyatlarga mansub davlatlar o‘zaro yaqinlashmoqda. Bu hol ular orasidagi ijtimoiy, madaniy va diniy sohalardagi doimiy muloqotlarni taqozo etmoqda. Shu maqsaddan kelib chiqib 1945-yilda BMT ustavi “sabr-toqatli bo`lish, jahonda yaxshi qo‘shnilar sifatida birgalikda yashash, hamda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo‘llab-quvvatlash uchun sa’y harakatlarimizni birlashtirish”ni o‘z maqsadlaridan biri deb e’lon qildi. 1981-yil 25-noyabrda BMT Bosh Assambleyasining 361.55-rezolyutsiyasi din yoki e’tiqodga asoslangan sabr-toqatsizlik va kamsitishning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi deklaratsiyani e’lon qildi. Bosh Assambleya a’zo davlatlarni din yoki e’tiqod erkinligiga rioya qilish va uni kafolatlashga, din yoki e`tiqod erkinligi masalalarida bir-birini tushunish, sabr-toqatli va o`zaro hurmat qilishga ko`maklashishga, hamda din yoki e`tiqoddan BMT ustaviga va BMTning boshqa tegishli hujjatlariga xilof bo`lgan maqsadlarda foydalanilishiga yo‘l qo‘ymaslikka da`vat etadi.

Bugungi kunda jamiyatimizda turli dinlarga mansub fuqarolarning o‘z diniy arkonlari va amallarini emin-erkin ado etishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Ta’kidlanganidek, din, shu jumladan, muqaddas islom dinining odamlarni ezgulik va halollik, poklikka undash, tinchlik va osoyishtalikni saqlashga da’vat etishdagi o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Biroq bugungi murakkab va tahlikali, tezkor globallashuv davrida dunyoning turli mintaqalarida ro‘y berayotgan mojarolarda ba’zan din yoki milliy masala niqob qilib olinayotgani sir emas. Bu barchani yanada hushyorlik va ogohlikka, tinchlik va osoyishtalikni saqlashga, uning qadriga yetishga, jamiyatdagi barqaror muhitni asrab-avaylashga, yoshlar tarbiyasi uchun mas’uliyatni his etishga da’vat etadi. Bu kabi mudhish va vayronakor kuchga qarshi kurashda dunyo

hamjamiyati birdek harakat qilishi lozim. Shu ma’noda, yurtimizdagi millatlararo va diniy konfessiyalararo totuvlikni, o‘zaro hamjihatlikni ta’minlashga qaratilgan siyosat jahon hamjamiyatiga ibrat bo‘la olishi nufuzli xalqaro tashkilotlar, xorijlik olimlar, yetuk mutaxassislar tomonidan e’tirof etilmoqda.

Yurtimizda millatlararo va fuqarolararo totuvlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi g‘oya va tashabbuslar paydo bo‘layotgani tom ma’nodagi do‘stlik qo‘rg‘onining yanada mustahkam bo‘lishiga xizmat qiladi. Yurtimizda ta’lim yetti tilda olib borilayotgani, 138 ta milliy madaniy markazlarning faoliyat ko‘rsatayotgani bag‘rikenglik siyosatiga nechog‘li amal qilinayotganligiga misol bo‘la oladi. Qolaversa, 130 dan ortiq millat va elat vakillari o‘rtasida diniy bag‘rikenglik va millatlararo do‘stlik tobora mustahkamlanib bormoqda. Yurtimizda millatlararo va fuqarolararo totuvlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi g‘oya va tashabbuslar paydo bo‘layotgani tom ma’nodagi do‘stlik qo‘rg‘onining yanada mustahkam bo‘lishiga xizmat qiladi. Respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlanmoqda, va ularning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratilmoqda. O‘zbekistonning bu borada olib borayotgan oqilona siyosati Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi umummilliy g‘oyalarni barcha yurtdoshlarimiz bilan hamkor va hamjihat bo‘lib amalga oshirishimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, necha ming yillik tariximiz shundan guvohlik beradiki, olijanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridandir. Istiqlol bizga ana shu ezgu an’analarni izchil davom ettirish va avloddan avlodga yanada mukammal bo‘lib o‘tishini ta’minlash imkonini berdi. Zero, O‘zbekistonning boyliklari ko‘p, lekin bizning eng katta boyligimiz, eng yuksak qadriyatimiz – jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikdir.

MUSTAQILLIKKA ERISHISHNING GANGICHA YO’LI “GANDIZM’ SIYOSATI (1915-1947)

Xudoyqulov Xusan Ibragimovich
O’zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti
II bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7586239

Annotatsiya: Mazkur maqolada hind xalqi ozodlik yo’boshchisi Mahatma Gandining Hindiston mustaqilligi uchun olib borgan “Gandizm” siyosati, Britanya imperyasining Hindistondan qay yo’sinda chiqib ketgani va XX asrning 40-yillari oxiridagi mustaqillik uchun qulay sharoit yuzaga kelgani o’z aksini topgan.

Kalit so’zlar: Sabr-toqat, qat’iyat, fuqoroviy bo’ysunmaslik, tinch namoyishlar, siyosiy ziddiytlar, xalqaro maydondagi ahvol, imperya inqirozi, mustaqillik.

Мадрасадаги безак мавзуларининг бойлиги, ички ва ташқи нақшларнинг серҳашамлиги, пештоқ қаноти ва токчасидаги ироқи каштани эслатувчи безаклар, бўртма ёзувлар ўзига хосдир. Равоқ бурчаклари, безакли тоқиларни тўлдиришда кошинпаз усталар турли усулларни қўллашган (ғиштларнинг майда нақшлари кошинларнинг ҳандасий ва ислимий нақшлари билан мослаштирилган). Кошинкори равоқларда яшил тангачалар, сарғиш япроқлар ва феруза поялар акс эттирилган. Хонақоҳ изораси кошин намоён, девори, гумбази ва бағали кундал услубидаги серҳашам нақшларга бой. Меҳроб равоғи ва бағали муқарнас косачалар билан тўлдирилиб, зарҳал берилган ҳамда Қуръон оятларидан олинган бўртма ёзувлар билан ҳошияланган. [42]


ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР.

[42] https://meros.uz/uzc/object/tillakori-madrasasi

Либосларни яратишда ҳаворанг органза матосидан тикиладиган либоснинг этак қисмига тикилади, либосга комбинация қилинган матолар аёл қоматини янада нафис кўрсатиб, костюм учун ишлатилган матода эса тилла рангли безаклар либосга мадраса безагини, унинг хайбатини бериши тасвирланади. Либоснинг елка қисмига бериладиган елкабанд (погонлар)да эса юлдузлар тасвири тасвирланган.

Бу ерда кийим костюмининг елка қисмига Тиллакори мадрасаси нақши туширилади. Бино нақшларининг жозибадорлиги аёллар либосининг костюм қисмига туширилган безаклар мисолида акс этади. Нақшлари ўпириб тушаётгандай пастгақараб нақшлар сочилиб бўлиб кетган. Либос органза матосидан ишланади, юпқа ички кўринадиган нозик плаш костюм бўлади. Либослардаги безаклар маъжозий маъно касб этиш билан бирга, кишиларнинг эстетик дидини ҳам ифодалаган.

Либосларга бериладиган безак ва рамзларни таҳлили шуни кўрсатади, ҳар бир берилган либос эскизидаги бадиий асар, ижодкорнинг бадиий тўқима ва ҳаёллари асносида шакллантирилади.



5- расм. Тиллакори мадрасаси ва унинг тимсолидаги либос учун танланган мато тури.

Рамз сўзи “ишора қилмоқ” маъносини билдириб, табиатни, вокеликни, хаётдаги кувонч ва ташвишлар, дўст ва душман, эзгулик ва ёвузликларни чизик;, ранг ва шакллар орқали ифодалашган. Фалсафа луғатида “Тимсол — маданият яратиш, теварак-атрофдаги дунёни англаш жараёнида инсон томонидан кулланадиган белги воситаларидан бири ва шунга ухшаш бошка нарсадир”.

Тимсол - ниманидир ёки кимнидир англатадиган, ифода этадиган инсон ёки нарса-ходиса. Олимлар санъатда кулланиладиган рамзларни икки, яъни, эзотерик-махфий ва экзотерик-хамма учун аён турларга ажратади. А.Ф.Лосев экзотерик рамзларнинг фалсафий ифодаларини саккиз турга ажратади.

1.Илмий рамзлар

2.Фалсафий рамзлар,

3.Бадиий рамзлар,

4.Мифологик рамзлар

5.Диний рамзлар,

6. Инсон фазилатларини акс эттирадиган рамзий ифодалар


7.Еоявий ва чорловчи рамзлар,

8.Ташки-техник рамзлар.

Либос яратиш санъатида ҳам бир қанча гўзал меъморий обидалар танлаб олинган бўлиб, улар асосида миллий ва замонавий либослар яратиш имконияти янада ортмоқда. Бунга мисол қилиб, 1.Тиллакори мадрасаси, 2.Улуғбек мадрасаси, 3. Бухородаги Нодира девонбеги мадрасиси, 4. Самарқанддаги Шердор мадрасаларига яратилган эскизларни келтиришимиз мумкин.







6-расм. Самарқанддаги Шердор мадрасаси ва либос модели эскизи.

Ҳар бир бадиий ижодни таҳлил қилишда ҳатто рангларнинг ҳам рамзий маънолари мавжуд бўлиб, Яшил ранг - Она табиат, ислом рамзи, мовий ранг Осмон, коинот, тинчлик, ёмон кўздан асраш рамзи, Кизил ранг Еалаба, олов, иликлик, хурсандлик, шодлик, сарик ранг Мукаддаслик, ёруглик, куёш, кенглик, қора ранг Мотам, чексизлик, мавхумлик, куркув, тушкунлик, ноаниклик, зангори ранг Олий эътикод, ок ранг поклик, озодлик, ёруглик, бахт, омад маъноларини англатади.

ХУЛОСА.

Либосларни безатишда мадраса пештоқига туширлган тасвирлар, ундаги келинаётган рамзий образлар системаси мавжуд: гул - гўзаллик, маъшуқа, булбул - садоқат ошиқ, бойқуш - бахтси-злик, сариқ ранг - маҳзунлик, қора ранг - мотам, Ҳотам - сахийлик, чумоли - хокисорлик, донолик рамзини беради. Сирли тимсоллар ва рамзлар тили – турли тасаввурларга асосланган шартли белгиларда мужассам бўлиб, уларда минг йиллар давомида жамланган халқ донишмандлиги яширинган жуда қадим даврларнинг қимматли маънавий мероси ҳисо-бланади. Қудратли салтанатларни тарих қаърига ғарқ қилган вақт инсон тафаккури олдида ожизлик қилган. Қадимий рамзлар ҳали-ҳамон бизни ҳар томондан ўраб турибди, бироқ биз баъзан уларни пайқамаймиз ҳам.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, 49-модда
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги йиғилишидаги Ўзбекистонда ислом маданияти марказини ташкил этиш чора -тадбирлари

тўғрисида” маърузасидан. Тошкент шаҳри, 2017 йил 23 июнь. “Маърифат” газетаси, 2017 йил 24 -июн, No50 (9011).

3. Булатов.С.С., Салимов.С.Н., Мухторов.А. “Шердор мадрасаси безакларининг сирли олами”. Т.: «Талкин», 2007, 14-бет.

4. Рамзлар энциклопедияси. Тузувчилар: С. С. Булатов, М. С. Соипова. -Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021. 928 bet

5. С.С. Булатов,С.Н.Салимова, А. Мухторов., Шердор мадрасаси безакларининг сирли олами. Тошкент-2007.

6. История моды. Иллюстрированная энциклопедия от древности до наших дней / [пер. с англ. Е. Воронкиной при участии И. Ильина].

FOLKLOR ETNOGRAFIK ANSAMBLLARIDA RAQSNING O‘RNI

Munisa Xalilova Doniyor qizi
O‘zbekiston Davlat Xoreografiya akademiyasining
4-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7593528

Annotatsiya: Musiqa folklori milliy raqs madaniyatimizning muhim bo‘lagi, xalqimiz turmushi va ijtimoiy hayotining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib hisoblanadi.Milliy musiqa folklori ming yillar davomida xalqimizning kundalik hayoti va ertangi kuni, orzu umidlari intilishlariniaks ettirib kelgan, hamda umummilliy madaniyat rivojiga muhim o‘rin qo‘shishgan. Ushbu maqolada o‘zbek xalqining folklor san’ati, folklor-etnografik san’atida raqsning tutgan o‘rni va ularning rivojlanish tarixi haqida fikr yuritilgan. Musiqiy folklor tarixi hamda musiqiy folklorda ta’lim va tarbiya jarayoni, musiqiy folklorda raqsning tutgan o‘rni haqida ma’lumotlar berilgan .

Kalit so‘zlar: Folklor, mahalliy musiqa uslubi, qo‘shiq, milliy raqs san’ati, urf-odat, marosim, badiiy-estetik did.

THE ROLE OF DANCE IN FOLKLORE ETHNOGRAPHIC ENSEMBLES

Munisa Khalilova Daniyor`s daughter
4 th grade student of the State Academy of Choreography of Uzbekistan

Annotation: Music folklore is an important part of our national culture, a unique aspect of the life and social life of our people.For thousands of years, folk music has reflected the daily life and future of our people, their dreams, hopes and aspirations, and has played, an important role in the devolepment of national culture end national dance.The history of musical folklore and the progess of edication and upbringing in musical folklore are given information about the role of dance in musical folklore.

Key words: Folklore, local music style, song, national danse art, custom, ceremony artistic aesthetic taste.National danse art.

O‘zbek xalqining jahon xalqlari orasida tutgan o‘rni, insoniyat tamaddunlariga qo‘shgan munosib hissasi, avvalo, xalq og‘zaki ijodi namunalari misolida yaqqol ko‘rinadi. O‘zbek forklorini yozib olish, nashr qilish, tadqiq etish ishlari o‘tgan asr avvallaridan boshlangan bo‘lsa-da, xalq og‘zaki ijodini chinakam, har tomonlama o‘rganish, mukammal nashrlarini amalga oshirish, ularning tariximiz va bugungi

kunimizdagi ahamiyatini ko‘rsatish, anglab yetish bevosita mustaqillik sharofati bilan ro‘y berdi.qo‘shiq ijrochiligidan namunalar keltirib o‘tilgan. «Folklor atamasi aslida «folk»— xalq va lore-donolik, ya’ni xalq donoligi, xalq donishmandligi «ma’nolarini anglatadi. Uni birinchi marta 1846-yilda Vilyam Toms ilmiy istiloh sifatida qo‘llagan. Shundan boshlab bu istiloh xalqaro miqyosda ilmiy taomulda o ‘zlashib ketdi. Bu atama keng ma’noda xalq ijodining barcha sohalarini —xalq poeziyasi, xalq nasri, musiqasi, raqsi, rassomlik, o‘ymakorlik, diniy e’tiqodi va odatlarni ifodalasa, tor ma'noda faqat so‘z san’atini — xalq og'zaki poetik ijodi tushunchasini ifoda etadi. Xalq musiqasi tushunchasini ifodalashda «musiqa folklori», xalq san’atining boshqa turlarini, chunonchi, o‘ymakorlik, zargarlik, zardo‘zlik, kashtachilik singarilar xalq am aliy san’ati mavhumi ostida tushuniladi, Xalq raqsi tushunchasi xalq xoreografiyasi (grekcha «choreuo»— xor jo‘rligida raqsga tushmoq va «grapho»— raqs harakatlarini maxsus belgilarda yozib olmoq) deb yuritiladi. Kishilik jamiyati taraqqiyotida alohida o'rib tutuvchi bir yo'nalish borki, u ham bo'lsa betakror raqs san'atidir. Raqs insoniyat tarixining ilk davrlaridayoq paydo bo'lgan, ibtidoiy jamoalar orasida o'ziga xos ahamiyat kasb etgan. Hindistondagi g’or rasmlari, Misrdagi qabrlarga ishlangan rasmlarni o’rganish natijasida olimlar raqs tarixini antik davrga borib taqalishi haqida aytib o’tishgan. Bu san’at turi ijodkorning ruhiyatini, his tuyg’ularini, maqsadlarini so’zsiz, faqat harakatlar orqaligina tomoshabinga yetkazadi. Raqs-o’zingni kuyga, ohangga baxshida etib, sehrlar dunyosiga sho’ng’ib ketmoq, istaklaringni bir dasta gul shaklida tomoshabin hayajonlari ustidan sochmoq, ularning olqishiga muyassar bo’lmoqdir. Xalq raqs san’ati ashula va musiqa bilan chambarchas bog‘lanib ketgan.[43]

Buyuk mutafakkir Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarining turkiy nasrning betakror namunasi bo’lmish «Boburnoma»asaridan raqs san'ati haqidagi qimmatli fikrlarni keltirar ekan: «Milliy madaniy merosimiz haqida so‘z ketganda, raqs yozuvi azaldan mavjud ekanligi ilmiy jihatdan tan olinishi shart. Zero, milliy raqs san’atimiz nafaqat yurtimizda, balki xorijiy mamlakatlarda ham katta qiziqish bilan o‘rganilayotgan ma’naviy-estetik qadriyatlar tizimidir. «Boburnoma»muallifi Sayid Badr ismli kishining raqsdagi ixtirosi va Hindiston lo‘lilari «o‘yunidagi ijro jarayoni haqidagi fikrlarini juda aniq, ilmiy mukammallikda bayon etadi. Bu mukammallik zamirida atoqli davlat arbobi, ulug‘ shoir Bobur mirzoning san’atshunos, tilshunos, etnograf sifatidagi teran bilimi, raqs nafosatini bevosita amaliyot bilan bog‘lab tahlil eta olish salohiyati borki, u o‘zining qonuniy bahosini olishi shart. Va bu mulohazalar biz hali tariximizni to‘liq bilmasligimizni, SHarqda qadimdan raqslarni yozma ifodalash tajribasi borligini anglatadi”.

[43] SH.M.Mirziyoev, Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O‘zbekiston”-2017 y.

Bu an’ana hozirgi kungacha ham davom etib kelmoqda. Shu sababdan, bugungi kunda respublikamizda xalq badiiy ijodiyotining eng rivojlangan turi folklor-etnografik ansambllari madaniy hayotimizda oldingi o‘rinlarda turadi. Qo‘shiq va raqs haqida so‘z ketar ekan, ularning hamma davrlarda kuy bilan uyg‘unlikda qaralganligining guvohi bo‘lamiz. Fuod Ko‘pruli turklarning adabiy qarashlari diniy tasavvurlar hamda raqs va musiqa bilan birgalikda taraqqiy etganini yozadi. «Chig‘atoy lug‘ati»da qo‘shiq «raqs havosiga bog‘langan kuy» tarzda kelgani aytiladi. Qo‘shiqlarning raqsga munosabatiga kelsak, hech bir qo‘shiq yo‘qki, unda harakat bo‘lmasin. Yig‘i-yo‘qlov, motam qo‘shiqlarida ham garchand harakatlar raqs deb atalmasa-da, raqs elementlarni o‘zida to‘la saqlab qolgan. Birgina misol, motam marosimida azador o‘zining yuzlarini timdalab, sadr tushishi bu motam marosimidagi raqsning eng qadimiy ko‘rinishlaridan biridir. Qo‘shiq va raqsning eng mukammal uyg‘unligini biz «Beshqarsak» qo‘shiqlari va o‘yinida ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘yinni o‘rgangan san’atshunos olim Muhsin Qodirov uni o‘zbek xalq san’atining qadimiy ko‘rinishlaridan biridir deydi. Bu o‘yinda qarsak va qo‘shiq qaytariqlari alohida ahamiyatga ega. Raqqoslar doira shaklini yasab qarsak ohangiga mos harakatlar qilishadi. Qarsakning turlari ko‘p: mayda qarsak, yakka qarsak, qo‘sh qarsak va hokazo…[44]

O‘zbek folklorshunosligi tarixida «folklor»istilohi nisbatan keyinroq ilmiy iste’molga kirdi. U dastlab «el adabiyoti», «og‘zaki adabiyot», «og‘zaki ijod»tarzida qo‘llanildi. 1935-yilda X.Zarif va Yu.Rajabiylarning «o‘zbek sovet folkloridan namunalar» kitobi bosilib chiqqandan keyin mazkur istilohni q o‘llash taomilga kira boshladi va asta-sekin o ‘zbek folklori tushunchasi zamirida o ‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi tushuniladigan bo‘ldi. O‘zbek folklori xilma-xil janrlardan tarkib topgan behad qadimiy so‘z san’ati bo‘lib, unda o‘tmishda yashagan ajdodlarimizning turish-turmushi, dunyoqarashi va e’tiqodi, kurash va m ag‘lubiyatlari ifodalangan. V.M.Miller xalq ijodiyotiga xalqshunoslikning tarkibiy qismi sifatida qarab, uning xalq rasm-rusumlarini ifodalagan etnografik mohiyatini ta ’kidlaydi.

Shu o‘rinda viloyatlardagi ansambllaming ijodiy faoliyatlariga to‘xtalib o‘tsak. XX asrning 60- yillaridan boshlab respublikamizning barcha viloyatlaridagi tumanlarda bir emas, bir nechtalab ashula va raqs ansambllari gurkirab o‘sa boshladi. Joylardagi faoliyat yuritayotgan ilg‘or madaniyat xodimlari boigan xonandalar, sozandalar, raqqosalarga uslubiy va amaliy yordam berish uchun poytaxtdan malakali mutaxassislar, bastakorlar, baletmeysterlar taklif qilingan. Ular yangi ansambllami tashkil qilishda, repertuarlarini boyitishda o‘z hissalarini qo‘shganlar. O‘zbek musiqa va raqs san’atining merosiga aylangan «Bayot», «Namanganning olmasi», «Otmagay

[44] F.M.Karamatov, “O‘zbek xalq musiqa merosi”, Toshkent G‘.G‘ulom nomidagi nashriyoti-1987 y.

tong», «Tanovar», «Munojot», «Rohat», «Ko‘ngil taronasi», «Andijon polkasi» kabi ko‘plab ommaviy va yakka raqslami sahnalashtirib berganlar. Bunday ansambllar yillar davomida xalqning xizmatida bo‘lib, ulaming mehrini qozongan. Respublika miqyosida o‘tkazilgan turli tanlovlar, festivallarda ishtirok etib yuqori natijalarga erishgan ansambllarga «Xalq ansambli» unvonlari berilgan, ulaming chet davlatlarda o‘tkaziladigan xalq ijodiyoti festivallarida ishtirok etishi ta’minlangan. O‘zbekistonda mustaqillik e’lon qilinganidan so‘ng, istiqlolimiz sharofati bilan milliy an'analarimiz, qadriyatlarimiz tiklanib xalq badiiy ijodiyotiga keng yo‘1 ochildi. Umumxalq bayramlari keng nishonlana boshlandi, xalq ijodi festivallari, turli ko‘rik-tanlovlaming o'tkazilishi natijasida folklor janri rivojlanib respublikamizning turli hududlaridagi ashula va raqs ansambllari negizida o‘ziga xos bo‘lgan folklor-etnografik ansambllar tashkil qilindi. Folklor-etnografik ansambllar faoliyati ijodiy jarayon. Ulaming asosiy vazifasi - xalqimiz uchun badiiy, ommaviy tadbirlami o‘tkazishdan iborat. Mustaqillik va Navro‘z umumxalq bayramlari, «Sharq taronalari», «Asrlar sadosi», «Boysun bahori», «Barhayot an’analar», «Yangi avlod», «Kelajak ovozi»yosh ijodkorlar festivallari, M.Turg‘unboyeva nomidagi yosh raqqosalar respublika ko‘rik-tanlovi, Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligini nishonlash, «Umid nihollari», «Universiada»sport musobaqalari va boshqa shu kabi davlat tadbirlarini o‘tkazishda maydon raqslari, folklor raqslar, bolalar raqslari janrlari vujudga keldi. Bunday katta bayram va tadbirlami tashkillashtirish, hamda ijodiy dasturini tayyorlashda, ayniqsa, raqs san'atining o‘rni kattadir. Chunki qo‘shiq va kuy ijrosi raqs san’ati bilan yanada to'ldiriladi, ulaming mazmuni tomoshabinga harakatlar va obrazlar orqali yetkazib beriladi. O‘tkazilayotgan tadbirlaming mazmun va mohiyatini to‘la ochishga imkon beradi. Maromiga yetkazib ijro etilgan raqs esa, tomoshabinni zeriktirmaydi, estetik didini oshiradi, zavq beradi. Badiiy ommaviy tadbirlarda joylardagi qadimdan mavjud bo‘lgan marosim raqslari, mehnat raqslari, oilaviy va maishiy raqslardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ushbu raqslarda urf-odatlar, an’analar, qadriyatlarimiz aks ettiriladi. Masalan, Surxondaryo vohasining raqs maktabiga xos bo‘lgan «Chanqovuz», «Qoshiq», «Kadi»raqslari ayollaming xursandchiligini, «So‘zana», «Urchuq» raqslari o‘zbek ayollarining nozik mehnat jarayonini tasvirlaydi. «Chiroq» raqsi bir tomondan falsafiy-tarbiyaviy ma’noga ega bo‘lib insonning zulmatdan yorug‘likka, yomonlikdan yaxshilikka, yovuzlikdan ezgulikka intilishi tasvirlanadi. Ikkinchi tomondan marosim raqs hisoblanib, qadimda yilning eng uzun kechasida o‘tkaziladigan marosim aks ettiriladi. Erkaklaming «Podachilar», «Tovoq», «Chorqarsak», «Pichoq», «Ufo-jaqala», «Yaqqu-yaq», «Chavandozlan”, «Duchova» kabi raqslari jangovor, mehnat va marosimlami tasvirlaydi. Xorazm vohasi folklor raqs san’atining eng go‘zal namunalari bo‘lgan to‘qqiz turdagi «Lazgi»raqsining har-biri alohida o‘z tarixi va mazmuniga ega. «Olov», «Qayroq», «Garmon», «Dutor», «Surnay», «Xiva», «O‘g‘lon bola»,

«Masxaraboz», «Zamonaviy» lazgi raqslarining o‘z ijrochilari bor. «Masxaraboz lazgi» sining murakkab yo‘sindagi epchillik bilan o‘tirish va umbaloq oshib bajariladigan «Kosa», «Pichoq», «Tayoq» raqslari, maishiy turmush bilan bogliq «Cho‘girma», «Sipsa o‘yini», «Non yopish» kabi raqslar, yomon fazilatli insonlami tanqid qiluvchi, hayvon yoki qushlarga taqlid qilib ijro etiladigan taqlidiy-pantomimik «Chag‘alloq», «Xo‘roz», «Qumpishak», «G‘oz», «Ot o‘yini» kabi raqslari xalq xarakterini ochib beradi. Toshkent-Farg‘ona vodiysiga xos «Kichkinajon-kichkina», «Omon yor», «Vohay bola», Buxoro-Samarqand vohasiga xos mehnat va hazil-mutoyibali raqslari bilan tomoshabin qalbidan chuqur joy oladi. Shuning uchun marosim va bayramlarda folklor janridagi xalq raqslari zo‘r qiziqish bilan tomosha qilinadi. Folklor-etnografik ansambllar dasturidagi raqslaming ijrosi natijasida milliy qadriyatlarimiz, go‘zal va nafis san’atimizning qirralari, urf-odatlarimiz, an’ana va marosimlarimiz yanada jonlanadi. Folklor raqslari xalq qalbiga yaqin bo‘lgan oddiy va sodda harakatlar ijrosi bilan sahnaviy raqslardan farq qiladi.[45] Xalq orasida shakllangan raqslarda ijrochi o‘zi bilganiday erkin taqlidiy harakatlar qiladi. Professional ijrochi esa ma'lum harakatlar majmuasi chegarasidan chiqmasdan, ma’lum qoidalar asosida muayyan harakatlami ijro etib, o‘zi ijro etayotgan raqsning falsafiy mazmunini anglagan holda ijro etadi. Bundan tashqari folklor raqslarda ishlatiladigan qoshiq, so‘zana, kadi, tayoq, palak, urchuq, qayroq, angishvona va likob, choynakpiyola, yog‘och tovoq kabi atributlaming hamda har bir vohaning o‘ziga xos bo'lgan, betakror liboslari, taqinchoqlarining o‘rni beqiyosdir. Bu ansambllar «Navro‘z», «Mustaqillik»umumxalq bayramlari, «Sharq taronalari», «Asrlar sadosi», turli xalq ijodiyoti halqaro festivallarida ishtiroki orqali nafaqat o‘zbek xalqining, balki chet davlatlardan kelgan mehmonlaming ham olqishi va tahsiniga sazovor bo‘lmoqdalar. Respublikamiz va jahonning ko‘plab davlatlariga o‘zbek xalq san’atini, xususan, folklor raqs janrini tanitishga erishgan «Boysun», «Chavki», «Mohi sitora» kabi folklor-etnografik ansambllar shular jumlasidandir. Birgina misol qilib olsak, «Boysun» ansambli «YUNESKO» Xalqaro tashkilotning ro‘yxatiga kiritilishi fikrimizga dalil bo‘la oladi. Bugungi kunda folklor-etnografik ansambllarga dastur tayyorlashda xalq raqs an’anasining muhim xususiyatlaridan biri bo‘lmish syujetli raqslardan foydalanishga jiddiy e'tibor berish lozim. Chunki syujetli raqs ommaviy tadbirlardagi teatrlashtirilgan kompozitsiyaning epizodlarini bir-biriga bog‘lab yuborishi tabiiydir.[46]

Albatta bu yo'lda davlatimiz so'nggi yillarda samarali ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan 2020-yilda qabul qilingan «Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

[45] https//uzbekistan.travel. Lazgi raqsi - Xorazm folklorining yuragi
[46] . Haydarov A. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent: Oltin meros press. 2021. - B. 478 bet

4584-sonli qarori hamda xuddi shu sanada qabul qilingan «Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 4585-sonli qarorlari ayni so'zlarning isbotidir. Raqs-beqiyos kuch, inson tafakkuri va shuurining mahsuli sifatida butun jamiyat uchun muhimligi barchamizga ma'lum.

Lazgi raqsining rivoji yo‘lidagi ishlarning mantiqiy davomi sifatida davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan «Lazgi» xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida»gi 2020-yil 28-sentabrdagi 4843-sonli qarori juda katta voqea bo'ldi desak yanglishmagan bo'lamiz. O'zbekning boy raqs san'ati tarixida alohida o'rin egallagan lazgini ulug'ligini xalqaro festival darajasida namoyish qilishdan maqsad eng avvalo «Xorazm lazgi raqsi»ning asriy an'analarini saqlash va rivojlantirish, raqs san'ati orqali xalqlar o'rtasidagi do'stlik, birodarlik rishtalarini mustahkamlash, xalqaro miqyosda ijodiy hamkorlik ko'lamini va madaniy aloqalarni yanada kengaytirish hisoblanadi. Raqs marosim yoki e'tibor belgisi sifatida ishlatilgan bo'lsa bugunga kelib raqs yuksak san'at namunasi darajasiga ko'tarildi. Zamon rivojlanib borayotgan ekan undan ortda qolmaslik uchun, bir vaqtlar bizni taraqqiyot yo'limizdan o'rnak olib rivoj topgan Yevropa darajasiga yetish uchun bugun bizdan ko'p o'qish va izlanish talab qilinadi. Bu yo'lda ayniqsa, milliy madaniyatimiz va san'atimizni rivojlantirish barchamizning ezgu burchimizdir. O'sib kelayotgan yosh avlod ongu shuuriga ezgulik va nafosat, estetik-ma'naviy kamolotga muhabbat tuyg'ularini singdirishda o'zbek milliy raqs san'atining o'rni hamda ahamiyati beqiyos. Milliy raqslarda xalqimizning eng munavvar qadriyatlari, insoniy fazilatlari, milliy an'analari ifodalanadi.[47]

Bugun butun dunyoni Ommaviy madaniyat qamrab olayotgan bir davrda, o'z milliyligini e'zozlagan xalqgina millat ruhini asrab qoladi. Yangi O'zbekistonni qurmoqchi ekanmiz, eng avvalo uni ulug’ g’oyalar, ezgu maqsadlar va albatta buyuk milliy qadriyatlar uyg’unligida qurishimiz maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.M.Mirziyoev, Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O‘zbekiston”-2017 y.

2. F.M.Karamatov, “O‘zbek xalq musiqa merosi”, Toshkent G‘.G‘ulom nomidagi nashriyoti-1987 y.

3. E.Y.Saitova, N.E.Abraykulova. Xoreografiya va raqs san’ati asoslari. -T.: «Fan va texnologiya», 2015. 128 bet

4. https//uzbekistan.travel. Lazgi raqsi - Xorazm folklorining yuragi

[47] Do'smurodova X. Raqs - qalbning yashirin tili. // Teatr jurnali. - Toshkent: 2021. 3-son. - B. 48.172 bet

5. G.Matyoqubova «Ofatijon «lazgi». - T. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993. - 64 bet.

6. Axborot qidiruv manbai: www.lex.uz

7. Haydarov A. Madaniyat - milliy yuksalish poydevori. - Toshkent: Oltin meros press. 2021. - B. 478 bet

8. Do'smurodova X. Raqs - qalbning yashirin tili. // Teatr jurnali. - Toshkent: 2021. 3-son. - B. 48.172 bet

WILLIAM SHAKESPEARE
(APRIL 23, 1564 - APRIL 23, 1616)

Allamurotov Sherzod Jalilovich
teacher of English at School No. 56 in Sherabad District Surkhandarya Region
https://doi.org/10.5281/zenodo.7593611

Annotationt: Information about the life and work of William Shakespeare. The importance of his works and tragedies today.

Key words: Tragedy, actor, career, dramatist, master of words, author of English times.

Shakespeare is an English playwright, poet and actor, one of the most famous playwrights in the world. He is the author of 17 comedies, 10 chronicles, 11 tragedies, 5 poems and 154 sonnets. Around 1585, he left his native Stratford-upon-Avon and later went to London. His career as a theater actor and dramatist began in 1580. Shakespeare's acting career lasts about 15 years. Shakespeare played supporting roles in England's best-regarded troupe and wrote plays for that troupe. William Shakespeare's works are a treasure for world literature; this man was an English poet, dramatist and stage actor who lived between the 16th and 17th centuries. However, the cultural impact of his works has transcended centuries. Today it is a symbol of Western art, letters and popular culture. He is considered by some to be the most important author of all time in the English language. Shakespeare's plays cover comedy, historical dramas cover tragedy. These are part of the Elizabethan theatrical tradition, but stand out in quality and importance among other authors. His greatness lies in the fluent use of language, as well as the sharpness, roughness and universality of the images he creates.

William Shakespeare is the 3rd largest writer in the world using more than 20,000 words in his works. William Shakespeare is considered one of the greatest English playwrights. It is difficult to find another person in the world whose life is surrounded by so many assumptions and assumptions. His main gift for drama is real talent.

Facts about William Shakespeare:

1. The great playwright William Shakespeare always lived with secrets.

2. Shakespeare's biographical evidence shows that he was the second most quoted author in the world.

It was Shakespeare who introduced the word "murder" into the everyday life of all people.

4. William Shakespeare did not study at the university.

5. As the facts of Shakespeare's life say, he quickly became famous all over the world.

6. Shakespeare is the greatest artist today.

7. The works of the great playwright that have survived to this day include a collection of 38 plays.

8. Many of Shakespeare's works have been translated into other languages of the world.

9. Performances of this figure are shown in theaters more often than other characters.

10. William Shakespeare began his career as an actor.

11. The great playwright never published his works.

12. Shakespeare had 3 children.

13. According to Shakespeare, his works should only be performed on the stage.

14. About 3000 new words were created by Shakespeare.

15. The play "Macbeth" written by Shakespeare is considered the most famous in the world.

16. There are 2035 words in Shakespeare's works.

17. William Shakespeare painted self-portraits.

18. Shakespeare created 10 tragedies.

19. In 1955, Shakespeare opened a theater.

20. There were no prizes in Shakespeare. It is difficult to imagine the history of world art without Shakespeare. His influence on the development of theater art is immeasurable. His tragedies are among the masterpieces of world literature. Shakespeare's works are not leaving the world stage even today. Despite all his work and fame, William Shakespeare was not awarded any awards or diplomas...

During his creative career, the great playwright created 17 comedies, 11 tragedies, 5 poems, 154 sonnets and 10 chronicles. His poems have been translated into many languages of the world. However, 400 years after Shakespeare's death, the debate about his famous works still continues. At the age of 18, Shakespeare married Anne Hathaway, 8 years his senior, and as a result of this union, three children - Susan and twins Hamnet and Judith - were born. After moving to London, Shakespeare began to create and soon became a successful actor, playwright and founded a theater called "Lord Chamberlain's Servants". At the age of 49, the poet returned to his native Stratford and died there in 1616. On the occasion of the 400th anniversary of Shakespeare's death, we bring to your attention his wisest words.

1. You can fall in love with beauty, but only the soul is loved. 2. Look at yourself before you find fault with others. 3. If we are seriously upset for some reason, we get nervous about trivial things. 4. Evil does not lead to good. 5. Every thoughtless action has its own logic. 6. Oaths taken in a storm are forgotten in calm

air. 7. Men who are looking for a way to their hearts are like April, and married people are like December. 8. I have forgiven the feelings I once felt, and you too - forgive the world -If you want to walk uphill, you should walk slowly first. - A poor contented person is rich, rich enough. He who swims in riches and fears to lose them, is poorer than winter. -Cowards die hundreds of times before they die. A brave man does not taste death but once in his life. - It's easier to get what you want with a smile than with a sword. - A wise man does not sit down to mourn, but begins with joy the task of repairing the damage done. -First of all, your existence must be real. -True hope is swift and flies on the wings of a swallow. "Hidden sorrow, like a closed hearth, turns the heart into mere ashes." -If your friends and you have already tested their friendship, keep them close to your heart with iron hooks. If music is the food of love, let it continue to sing.

William Shakespeare, one of the brightest representatives of world literature, Shakespeare's works are loved and read by readers all over the world to this day. The reason is that the author has created his works with such high skill that he can attract the attention of the reader, using the various possibilities of the artistic genre. A number of his works have been translated into Uzbek and are being performed on theater stages. The most popular of these works is the tragedy "Hamlet".

References:

1. William Shakespeare. Othello. Translated from English by Jamal Kamal. - Tashkent: Literary and art publishing house named after Gafur Ghulam. 1991
2. William Shakespeare. Hamlet. Translated from Russian by Maqsud Sheikhzadeh. Tashkent: Baktriya Press Publishing House, 2013.
3. William Shakespeare. Don't be elected. The first volume. Translated from English by Jamal Kamal. - Tashkent: Science, 2007.

MUSIQIY XOTIRA. ASAR YODLASH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Xidoyatullayeva Gulsora Zoirovna
O‘zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi
Milliy estrada san’ati instituti o‘qituvchisi
Jemchujina_nila@bk.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.7600563

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqiy xotira va idrok haqida so‘z borib, ta’lim jarayonida sozanda-o‘quvchilarni asar yodlash bilar bog‘liq muammolar va yechimlari haqidadir. Asar yodlashda List, Makkinon, Nikolayev, Leymyer va Gofman metodlari keltirilgan. Bundan tashqari psixologik jihatlarni inobatga olgan xolda, Petrushin, Ovsyankina va Uippllarning tavsiyalari xam berilgan.

Kalit so‘zlari: xotira, musiqiy xotira, musiqiy idrok, yod olish, eshitish xotira, xarakat-motorli xotira, taktil xotira.

МУЗЫКАЛЬНАЯ ПАМЯТЬ. ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ЗАПОМИНАНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЯ

Хидоятуллаева Гульсора Зоировна
Преподаватель Национального института эстрадного искусства
имени Б. Закирова при ГКУз
Jemchujina_nila@bk.ru

Аннотация. Эта статья о музыкальной памяти и восприятии, а также о проблемах и решениях, которые музыканты сталкиваются в процессе обучения. При выучивание произведения упоминаются методы Листа, Маккиннона, Николаева, Леймера, Гофмана. Также даны рекомендации Петрушина, Овсянкиной и Уиппла с учетом психологических аспектов.

Ключевые слова: память, музыкальная память, музыкальное восприятие, запоминание, слуховая память, моторно-моторная память, тактильная память.

MUSICAL MEMORY. PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE PROCESS OF MEMORIZING A PIECE

Khidoyatullaeva Gulsora
teacher of the National Institute of Pop Art named after B. Zakirov at the State Conservatory of Uzbekistan

Annotation. This article is about musical memory and perception, as well as the problems and solutions that musicians face in the learning process. When learning a work, the methods of Liszt, McKinnon, Nikolaev, Leimer, Hoffmann are mentioned. Also, recommendations are given by Petrushin, Ovsyankina and Whipple, taking into account psychological aspects.

Key words: memory, musical memory, musical perception, memorization, auditory memory, motor-motor memory, tactile memory.

Yaxshi musiqiy xotira – bu musiqiy asarni tez yod olish, mukammal saqlab qolish va hattoki ma’lum bir davrdan so‘ng uni maksimal aniqlikda ijro etishga aytiladi. Gigant musiqiy xotiraga ega shaxslar: Motsart, List, Anton Rubinshteyn, Raxmaninov, Arturo Toskaninilarni aytish mumkin, chunki ular xotirada butun musiqiy adabiyotni qiyinchiliksiz yodda saqlay olishardi. [9.183]

Musiqiy xotira uzoq davr davomida musiqiy iqtidor sifatida sanalmagan, xususan bunday fikrni B.M.Teplov va ingliz pianisti L.Makkinonda uchratish mumkin. Musiqiy xotirada asosiy deb biron turdagi xotirani ko‘rsatish mumkin emas deb hisoblaydi Makkinon. Odatda musiqiy xotira deb bir nechta xotira turlarining hamkorligi nazarda tutiladi, xar bir insonda mavjud – eshitish, ko‘rish, his qilish va harakat xotiralari bo‘lib, tajribali musiqachi odatda xotiraning hamma turlaridan foydalanadi. Asarni yod olish jarayonida ikkita xotira turidan: motorli(mushakli) va taktil (his qilish) – deyarli bir biridan ajralmagan xolda, uchinchi eshitish xotirasi bilan birgalikda amalga oshirish mumkin. Ko‘rish xotirasi esa ma’lum bir darajada o‘ziga xos kvartetni to‘ldirib, xar bir ijrochida odatlarni shakllanishining asosiy shartlaridandir. [6.21]

A.D.Alekseevning fikricha "musiqiy xotira – sintetik tushuncha bo‘lib: eshitish, harakatli, mantiqiy, ko‘rish va boshqa turdagi xotiralar kiradi. Xar qanday pianistda 3 ta turi: 1) eshitish – musiqa san’atining turli sohalarida muvaffaqiyatli ishning asosi bo‘lib xizmat qiluvchi xotira; 2) mantiqiy – ya’ni asarning mazmun mohiyatini, rivojlov qonuniyati va kompozitorning fikrini tushunish bilan bog‘liq xotira; 3) harakatli(motorli yoki mushakli) – cholg‘u ijrochisi uchun juda muhim xotiralar". [1.35]

Savshinskiy xam bu nuqtai nazarga qo‘shilib, "pianist xotirasi – majmuadir, u xam eshitish, xam ko‘rish, xam mushak – harakatli xotiralardan foydalanadi" – deb fikr bergan. [10.33]

Umumiy xotira masalalarini qadimdan olimlarni qiziqtirgan, chunki xotirasiz biron bir amaliy yoki nazariy sohada faoliyat yuritib bo‘lmaydi. Zamonaviy ilm-fan tobora shunday fikrga kelishmoqdaki, musiqiy xotira – umumiy xotiraning bir qismi bo‘lib, musiqiy qobiliyatni mustaqil ravishda ifodalaydi. Umumiy psixologiyada xotiraga berilgan aniq ta’riflardan kelib chiqib, musiqiy xotiraga xam formulasini

berish mumkin, - bu "asab tizimi xususiyatini inson ruhiyati (psixikasi)da musiqiy ma’lumot saqlanadi va tajribadan kelib chiqib aynan musiqiy obrazlar bilan qayta ijro etilishi yoki qayta ishlatilishidir". [8.35]

Musiqiy qobiliyat asosini tashkil etuvchi musiqiy xotirani – orkestrga taqqoslasak, xar bir ijrochi va dirijyor o‘z mahoratini oshirishi mumkin, xuddi shundan eshitish, taktil va motorli – harakatli xotiralarni xam rivojlantirishimiz mumkin. Eshitish xotirasini hatto insonning yetuk davrida xam rivojlantirish mumkin – deydi Makkinon. Bu esa o‘z navbatida ijrochilik imkoniyatlarini kengaytiradi, chunki mushaklar –"mexanik" harakatdan tiyilib, sozandaning "maqsadli ijrosi"ga "javob berish" ko‘nikmasini hosil qila boshlaydi. [6.21]

Arturo Toskanini ko‘rish xotirasi bilan maqtanishi mumkin edi, -deydi Buzoni. Uning yozishmalaridann ayta olish mumkinki, Toskanini bosma partituraga bir on boqib, xuddi foto skaner kabi eslab qolib ijro eta olardi. [4.148] Ko‘rish xotirasi xuddi absolyut eshitish kabi juda foydali bo‘lishi mumkin, ammo "notasiz" ijroda keraksiz xususiyat.

Taktil xotira (sezgi, biron ushlagandagi his qilish jarayoni)ni rivojlantirishning eng yaxshi usuli – ko‘zlarni yumgan holatda yoki qorong‘ilikda ijro etish yaxshi natija beradi.

Mushakli (motorli) xotira ijrochida yaxshi rivojlangan bo‘lishi shart va bunda harakat mexanik emas, balki avtomatik – ya’ni ong osti boshqaruvidagi harakatli bo‘lishi muhimligini ta’kidlaydi Makkinon. [6.20]

Musiqiy xotirani xususiyatini tushungan xolda ko‘plab pianist-pedagoglar va metodistlar asar yod olish jarayonida o‘z usullarini ishlab chiqishgan. A.Buasye Listdan ijrochilik mahoratidan dars olgan kezlari asar u xoh pyesa bo‘lsin, xoh fuga yodlash jarayonini bir necha bosqichlardan iborat bo‘lganligi haqida yozadi. 1-marta partituradagi nota matnini sekin sur’atda hech narsa qo‘shmay ijro etardi. 2- marta nota cho‘zimidagi jihatlarga, punktirli notalar, choraktalik pauza va hokazolarga e’tibor qaratilardi. 3-marta ***f / p*** */ crescendo /* ***sf*** –ya’ni dinamik tuslarga e’tibor berib ijro qilardi. 4-marta akkord va arpedjioli joylarda asosiy kuyni topish maqsadida bas va yuqori ovozni sinchkovlik bilan o‘rganardi. 5-marta asarning tempiga ahamiyat berardi, agar asar xarakteri bunga yo‘l qo‘ysa sur’atiga o‘zgartirish xam kiritardi. [3.19]

V.Gizekingning ustozi – K.Leymer, asarni yodlash metodida ko‘plab aniq jihatlarga e’tibor qaratadi, - degan Savshinskiy. Leymerning fikricha, hali asarni yod olishdan oldin – nota matni ongda umumiylikda gavdalanishi kerak deb hisoblaydi. Bunday usul "refleksiya" deb nomlanib, "mantiqiy-tizimli fikrlash" ma’nosini beradi. Bunda asarning 1-taktidan boshlab chap qo‘l partiyasi qaysi tonallik uchtovushligida; o‘ng qo‘l partiyasida esa uning qaysi aylanmasida; qanday gruppeto kelishi; gammasifat ketma-ketlikning yuqorilovchi yoki pastga ketuvchi yo‘nalishi

ishlatilganmi kabi jihatlar tahlil qilinadi. [10.33] L.Nikolayev esa boshqa usul yordamida yodlar edi. Uning maslahatiga koʻra, "asarda shunday boʻlak olish kerakki, xotirada qiyinchiliksiz yodda qolsin... Agar u yod olingan boʻlsa, unda bunga yangi boʻlak qoʻshilishi lozim va hokazo". [10.37]

Ingliz pianisti Makkinon yangi asar yod olishda asosiy qoidalarni bergan, bulardan bir nechtasini keltirib oʻtaman:

- ✓ Kunning ma’lum bir vaqtida va tizimli (sistematik) ravishda shugʻullan
- ✓ Asar haqidagi birinchi taassurotlar toʻgʻri va musiqiy boʻlishiga harakat qil
- ✓ Qachonki nimadir yodlasang, ayni vaqtda faqat bir narsaga diqqat – e’tiboringni qarat
- ✓ Nota va akkordlarni guruhlab yod ol
- ✓ Applikaturani sening qoʻllaring uchun mosini tanla va oxirgi natijada xam xuddi shu applikatura qolishi shart
- ✓ Oʻxshash boʻlaklarni bir biri ila solishtir, nimasi bilan farqlanishiga ahamiyat ber
- ✓ Musiqani taktma takt emas, balki jumlalab yodla va hokazo kabilar.

Bundan tashqari asarning qiyin va koʻlamligidan kelib chiqib, namunaviy mashgʻulot rejasini xam bergan:

3 kun ketma-ketlikda – mashgʻulot
3 kun ketma-ketlikda – "dam olish"
3 kun ketma-ketlikda – mashgʻulot
6 kun ketma-ketlikda – "dam olish"
3 kun ketma-ketlikda – mashgʻulot
12 kun ketma-ketlikda – "dam olish".

Bunda "dam olish" davrlarida – ya’ni boshqa asarlar (ular bir nechta boʻlishi maqsadga muvofiq) ustida ish olib borilishi kerak. Oxir oqibat asarni vaqti vaqti bilan takrorlab turish lozim. [6.61]

Musiqiy asarni yodlash psixologiyasiga nazar tashlasak, B.Yu.Grigoryevning fikricha musiqiy xotiraning beshta faza (doira)si boʻlib, uning davomiyligi turlicha va musiqiy matnni oʻzlashtirish jarayonidagi vazifalar xam farqlanadi: 1- doira atigi 0,3 soniya davom etib, bunda eng qisqa – sensor xotira harakatga kelib, ma’lum bir konturlar aniqlanadi. 2- doira 1 soniya atrofida davom etib, asarning eng umumiy obrazi ya’ni oʻziga xos "shartli tasvir" yaratilib, axborotni idrok etish boshlanadi. 3 – doira 5 daqiqa boʻlib, avvalgi tajribaga yangi axborotni qoʻyish va mantiqiy aloqa oʻrnatilishi kuzatiladi. 4- doirada 20-60 daqiqagacha boʻlib, bunda xotira izlarini mustahkamlar jarayoni kechadi. 1 soatli ishdan soʻng qisqa muddatli xotira oʻrniga uzoq muddatli xotira kelib, ongda amaliyotsiz axborot qayta ishlanadi. 5- doira 1sutkani qamrab oladi, bunda axborotni "qoʻllab – quvvatlash, kerakli kerakli

ma’lumotlarni saralash, assotsiatsiyalar bilan boyitish, davriylik chastotasini aniqlash, odatlarni mashq qilish kabi jihatlar kechadi". [5.72] Bu jarayon 3 kundan so‘ng yod olingan musiqiy fragment yoki asar to‘laqonli uzoq muddatli xotiraga o‘tkazilganda tugaydi, shuning uchun xam ijrochilarga mashg‘ulot ketma – ketligini 3 kun oralig‘ida qo‘yilishi bejizga emas. [8.41]

Amerikalik psixolog G.Uippl o‘zining asar yodlash tadqiqotida turli usullarning unumdorligini solishtirish maqsadida 2ta guruh tuzadi. 1-guruh talabalariga yodlash oldidan to‘laqonli asar tahlili beriladi, boshqa guruh talabalariga esa tahlilsiz asarni yodlash vazifasi beriladi. Bunda ikkala guruhga berilgan vaqt bir xil edi. G.Uipplning xulosasiga ko‘ra "asarni tahlil qilgan" talabalar natijasi "tahlilsiz yod olishgan" talabalarga ko‘ra yaqqol ustunlik kuzatilgan. [7.14] Bunday fikrni psixolog G.Rebson, pianist A.Korto, olmon pedagogi K.Martinsen va ko‘plab pianist – pedagoglar xam olg‘a surishgan.

I.Gofman formulasi bo‘yicha musiqiy asarni yod olish ketma-ketligida xam shu jihatlarni ko‘rishimiz mumkin:

1. Fortepianosiz musiqiy matn bilan ishlash. Bu bosqichda nota matnini e’tibor bilan o‘rganib chiqish kerak bo‘ladi.

2. Fortepianoda musiqiy matn bilan ishlash. Aqliy tanishuvdan so‘ng, birinchi ijro asarning umum-badiiy obrazini anglash va tushunish asosiy omildir.

3. Asar ustida partiturasiz ishlash (yoddan ijro). Eslab qolishda – assotsiatsiya(mo‘ljal)lar katta yordam berishadi.

4. Fortepianosiz va partiturasiz ishlash. I.Gofmanning fikricha bu eng qiyin bosqich bo‘lib, unda aqliy munosabatning qiyinligi va vazifaning zerikarliligidir. [9.188-197] Bu borada Makkinon xam "soqov fortepiano"da shug‘ullanish foydasi haqida ta’kidlagan. [6.110]

Ovsyankina ijrochilik tajribasini kuzatish natijasidan kelib chiqib bir nechta psixologik tavsiyalar beradi: Birinchidan, bu davomiy jarayon bo‘lib, uning natijasi tez ko‘rinmaydi. Ikkinchidan, yuqori natijaga erishish uchun, aniq bir muddatni belgilash "qachon asarni yodlash" miximligi. Uchinchidan, 5 daqiqalik bir xil vazifali ishdan so‘ng diqqatni boshqa narsaga yo‘naltirish lozim. Bunda axborotni tekshirish 20 daqiqadan so‘ng amalga oshirilishi kerak. To‘rtinchidan, harakat(motor)li xotiraga 30 soniyadan 5 daqiqa oraliqdagi davrdan so‘ng takrorlash foyda beradi. Beshinchidan, tasodifan uzilgan vazifa yaxshi esda qoladi. Oltinchidan, yodlash jarayonida xotira turlaridan tashkil topgan majmuasiga tayanish lozim: taktil, xarakat-motorli, ko‘rish, eshitish, verbal xotiralar va hokazo. Yettinchidan, asarning boshi va yakuniy qismlari tez yodlanishi bilan farqlanadi, shuning uchun ularga alohida e’tibor bilan yodlash tavsiya beriladi. [8.42]

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, inson – tabiatning bir bo‘lagi, tabiat hodisalariga e’tibor bersak – tong, undan so‘ng kun, kundan so‘ng tun keladi, bu esa o‘z navbatida

"ritmlilikka" xosligiga guvoh bo‘lamiz. Musiqachi xam o‘z hayotini ritmik tarzda tashkil qilishi kerak. Unda albatta o‘z ustida ishlash uchun vaqt, fikrlash va dam olish uchun vaqtlar ajratilgan bo‘lishi lozim. Yana yodlash va yodda saqlashning muhim shartlaridan biri – bu o‘quv ma’lumotni idrok qilish uchun to‘g‘ri tashkillashtirilgan jarayondir. Inson bir paytda xam idrok etib, xam turli chalg‘ituvchi tashqi omillarga e’tibor bera olmaydi. Bochkaryov bu borada shunday degan: "Idrok qilish ko‘lamini va diqqat e’tiborni asta-sekinlik bilan kengaytirish lozim". Masalan, G.P.Prokofyev juda xam to‘g‘ri fikr bildirgan bu borada: yunonchadan "mnemonika" - eslab qolish san’atida diqqatning davriyligi – obyektning soniga bog‘liq, chunki xar bir obyekt idrok etilishi uchun ma’lum bir vaqt kerak. [2.310]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алексеев А.Д. Методика обучения игре на фортепиано. М., 1978
2. Бочкарёв Л. Психологические аспекты публичного выступления музыкантов-исполнителей // Вопросы психологии. 1975 №1
3. Буасье А. Уроки Листа. "Музыка" Л., 1964
4. Бузони Ф. Путь к фортепианному мастерству. Лань 2018
5. Григорьев В.Ю. О развитии музыкальной памяти учащегося. Музыка. М., 1980 вып.2
6. Маккинон Л. Игра наизусть. 1966.
7. Муцмахер В.И. Совершенствование музыкальной памяти в процессе обучения игре на фортепиано. М., 1982
8. Овсянкина Г.П. Музыкальная психология Санк-Петербург 2016
9. Петрушин В.И. Музыкальная психология. М.,1997
10. Савшинский С.И. Пианист и его работа . Л., 1961

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA OT SO‘Z TURKUMI USTIDA ISHLASH ORQALI O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Sobirova Aziza Farhodovna
Otanazarova Mohira Hamidbekovna
Xorazm viloati Shovot tumani boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari

Annotatsiya: Maqolada ona tilining izchil kursida beriladigan bilim, malaka, ko‘nikmalar, ona tili darslarining maqsadi, shu jumladan, ot so‘z turkumining umumta’lim maktablarida o‘qitish usullari haqida fikr yuritilgan bo‘lib, ot so‘z turkumining o‘qitish jarayoni ketma-ketlikda amaliy topshiriq va misollar orqali yoritilgan.

Kalit so‘zlar: so‘z turkumlari, ot so‘z turkumi, morfologiya, topshiriq, ona tili, o‘quvchi, maktab.

Abstract: The article examines the knowledge, skills, and abilities provided by a sequential course of the native language, the purpose of the native language lessons, including the methodology of teaching the noun in general education schools, the process of learning the noun is illustrated with practical tasks and examples.

Keywords: phrases, nouns, morphology, homework, native language, student, school.

Ma’lumki, yurtimizda va hattoki, jahon miqyosida ro‘y bergan va ro‘y berayotgan ijtimoiy iqtisodiy o‘zgarishlarni ijobiy natijalarga erishish uchun juda katta e’tibor qaratilmoqda. Dunyodagi ko‘plab rivojlangan mamlakatlar singari rivojlanish yo‘llarini belgilashda ta’lim sohasini tubdan isloh qilish va takomillashtirish ishlari olg‘a surilmoqda.

